# O'ZBEKISTON TALABASI

2023.06. № 6(7)

## ZUVALAMNI PISHIRAYOTGAN TAJRIBALAR

"XABARCHI"– TALABA YARATGAN TARMOQ TO'LMAGAN KO'NGILNI HASAD TO'LDIRAR...
QABUL JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR
"YUTQAZSANG, ONANG YIG'LAYDI..."

# ANONS

## BARKAMOL TALABA QANDAY BO'LADI?

U nima uchun o'qiyotganini anglab yetgan va qat'iy maqsadlarga ega bo'ladi. Tartibli hayot va rejalashtirilgan harakatlar barkamol talaba uchun odatga aylanishi lozim.

## MANGU DA'VAT

Inson umri naqadar qisqa, turmush tashvishlari va bandasini yo'ldan uradigan ko'ngilochar ne'matlar, ohanrabolar naqadar ko'p! Ayniqsa, shu zamonda.

## HECH KIM MAQTAMAYDI...

Laganbardor boshliqning hamma hazillariga kuladi. Tashkilotchi laganbardor esa barchani boshliqning hazillariga kulishga undaydi.

## "MAUGLI" BOLALAR

U bilan ko'p ishlashadi... Go'shtni pishirib berishsa yemas, xom go'sht va suyaklarni bo'ridek g'ajirdi. Unga bo'rilar orasida o'tgan umridan ko'proq yil mehnat sarf etishadi. Ammo natija juda oz edi.

## "ENDI KUZGA QOLDI QIZG'ALDOQ SAYLL..."

Buncha tun ko'ksida talvasa, gidir,
Buncha oy yuzida achchiq kulimsa?
Zamon ravnaqiga yetgay ne putur -
Bir inson suyunsa,
Bir inson suysa?!

## MUAMMOLAR MIQYOSINI KAMAYTIRISH SIRLARI

Inson xotirasida har doim bajarilmagan vazifalar va erishilmagan maqsadlar haqidagi eslatmalar qalqib chiqib turadi. Vazifa bajarilgan va maqsadga erishilgan lahzadayoq eslatmalar zanjiri "uziladi".

## XALQQA QAHRAMONLARI ESLATILGANDA...

Yov ichkarida emas, tashqarida, buni hammamiz bilamiz. Tarixiy g'ururi, or-nomusini unutmagan xalq davlat uchun har narsaga tayyor bo'ladi. Buning uchun xalqni o'ziga tanitish lozimdir.

## PUBG EPIDEMIYASI

Ijtimoiy tarmoqlardan ham zerikkanlar virtual ijtimoiylikni yangi bir darajaga ko'targan "Pubg"ga qaram bo'lib qoladilar. Chunki unda o'yin o'ynash, suhbatlashish, tanishish, hatto sevishish mumkin.


O'ZBEKISTON TALABASI

Ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Bosh axborot hamkorimiz
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

Jamoat kengashi
**Isajon SULTON**
**Alisher SHODMONOV**
**Ravshan ERMATOV**
**Olim TOSHBOYEV**
**Sherzodxon QUDRATXO'JA**
**Dilorom KARIMOVA**
**Nodir JONUZOQ**
**Shahlo TURDIQULOVA**
**Nazokat AZIM**
**Abduvali XOLIQOV**
**Kamoliddin O'RINBOYEV**
**Ayub SHAHOBIDDINOV**
**Iqbol QO'SHSHAYEVA**
**Bahrom IRZAYEV**
**Shahobiddin SHARIPOV**

Muassis
**"INTEGRATION CENTR UMID" MCHJ**

Direktor
**Chorshanbi XOLMATOV**

Bosh muharrir
**Sirojiddin IBROHIM**

Navbatchi muharrirlar
**Maqsad OBIDJON**
**Aziz ABDUMALIK**

Jurnal tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner
**Rahmatjon YUNUSOV**

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 3000 nusxa.

Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri Mirobod tumani Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
"Invest Book" bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Uchtepa Tumani, Foziltepa 12-B

30.06.2023-yilda chop etishga ruxsat berildi.
Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan
+99891 077 75 75
raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin.

# MUNDARIJA


MUAMMOLAR MIQYOSINI KAMAYTIRISH SIRLARI....02

QABUL JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR....08

PUBG EPIDEMIYASI....10

REKTOR AKRAMJON YO'LDOSHEV: "VAQT YETOVIDA YURA OLMAYMIZ..." ....12

BARKAMOL TALABA QANDAY BO'LADI?....18

MANGU DA'VAT....22

IS IT POSSIBLE TO EARN INCOME BY SELLING PAINTINGS?....30

"XABARCHI" - TALABA YARATGAN TARMOQ....34

ZUVALAMNI PISHIRAYOTGAN TAJRIBALAR....36

TO'LMAGAN KO'NGILNI HASAD TO'LDIRAR....42

TO'RT YILLIK QIYOFA....46

XALQQA QAHRAMONLARI ESLATILGANDA....50

SHOGIRDNING USTOZGA VA BOSHQALARGA NISBATAN ODOBI....54

"YUTQAZSANG, ONANG YIG'LAYDI..." ....62

HECH KIM MAQTAMAYDI....66

OTOYINING TUG'ILGAN YILI....68

MAHLIYO ASQARALIYEYA: "QADRIYATLAR BILAN QIMMATLIMIZ..." ....76

MUHAMMAD SIDDIQ: "ENDI KUZGA QOLDI QIZG'ALDOQ SAYLI..." ....82

MILLIONLAB SAHIFAGA SINGGAN KO'Z NURI....86

"MAUGLI" BOLALAR....94

# MUAMMOLAR MIQYOSINI KAMAYTIRISH SIRLARI

Inson muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi omil nima? Tom ma'nodagi muvaffaqiyat siri nimada? Baxtli, o'ziga ishongan, sevimli kasbidan halovat topgan, oilada va do'stlar davrasida suyumli inson bo'lib hayot kechirmoq mumkinmi? Shaxsning qaysi fazilatlarini mutloq farovonlikka erishish kaliti deb hisoblash mumkin? Umuman, shunday kalit bormi? Psixologlarning fikricha, bunday kalit ikkita, xolos: aql va iroda. Taassufki, hali fan olamida inson aql-u zakovatini oshirishning uslubiyati (metodikasi) mavjudligi borasida yagona to'xtamga kelingan emas. Ayni vaqtda, inson o'z-o'zini boshqarishini takomillashtirishning usullari kashf qilingan.

O'tgan asrning 70-yillarida psixolog Daril Bem insonga xos odatlar ro'yxatini tuzib, irodali va irodasiz odamlarning farqi nimada ekanligini aniqlashga qaror qildi. Uning taxminicha, "ilmiy ishlarni o'z vaqtida topshirish" va "doim toza paypoq kiyib yurish" kabi odatlar o'rtasida ijobiy o'zaro bog'liqlikni aniqlash mumkin. Biroq o'zi ishlaydigan Stendford universiteti talabalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil etar ekan, yuqoridagi ikki odat o'rtasidagi nisbat hayratlanarli darajada salbiy natijalar ko'rsatdi. Tadqiqotchi hayratini: "Aftidan, talabalar yo ilmiy ishlarini o'z vaqtida topshirishadi, yoki har kuni pay-

poq almashtirishadi. Ikkisidan biri", – deya hazilomuz tarzda ifodaladi. Daril Bem bu g'oyani rivojlantirish va tadqiq etish fikridan voz kechdi, ammo oradan bir necha o'n yillar o'tgach, boshqa mutaxassislar o'ylanib qolishdi: balki Daril Bemning hazilida jon bordir? Ikki avstriyalik psixolog – Megan Outen va Keng Chenglar talabalarda mashhur "Ruhiy toliqish" holati paydo bo'lganlik farazini tekshirib ko'rdi. Ular semestrning har xil davrlarida talabalarning o'z-o'zini boshqarish darajasini aniqlab boruvchi tajribalar o'tkazishdi. Kutilganidek, talabalarda o'z-o'zini boshqarishning eng past ko'rsatkichi semestr oxirida qayd etildi – aftidan, ularning irodasi (ruhiy quvvat ham deyish mumkin) imtihonlarga tayyorlanish va kurs ishlarini topshirish davomida yetarlicha toliqqan. Qolaversa, ulardagi ruhiy tartibsizliklar nafaqat laboratoriya xonasida, balki oddiy turmushlarida namoyon bo'lardi. Talabalar o'rtasida ular hayotining boshqa jihatlari xususida so'rov o'tkazilganda qayd etildiki, Bemning "kirlangan paypoqlar" borasidagi kuzatishlari aslo tasodifiy emas ekan. Ruhiy toliqish barobarida insonning barcha yaxshi xususiyatlari ham yo'qolib borarkan.

Ehtimol, ushbu qarash talaba uchun ustuvor masalalarning amaliy jihatdan o'zgarishida aks etgandir? Ehtimol, talabalar o'qish uchun ko'proq vaqt qolishi uchun ongli ravishda ayrim odatlardan voz kechgandir? Biroq bu fikr ham unchalik to'g'ri emas. Imtihonlar davrida talabalar o'qish o'rniga do'stlar davrasida ko'proq vaqt o'tkazishga intilganliklari qayd etildi. Aslida esa bu omilkor va aqlli odamning harakatlariga mutlaqo teskari edi. Hatto ayrim talabalar, imtihon davrida o'rganish ko'nikmalarining pasayib ketishini qayd etdilar. Bu esa ularning inon-ixtiyorlariga, mo'ljallariga butunlay nomuvofiqdir. Mantiqqa binoan, talaba butun iroda quvvatini ko'proq o'qib-o'rganishga yo'naltirishi lozim edi-ku! Biroq, shunga qaramay, asosiy mashg'ulot bilan kam shug'ullanishlari ma'lum bo'ldi. Ular yana davomli uyqu va istak-xohish yo'lidagi ortiqcha sarf-xarajatlarga moyilliklarini ham aytishdi. Boz ustiga, ular jizzaki, qo'pol, jahl asnosida ixtiyorsiz xatti-harakatlar sodir etishga yaqin bo'lib qolganliklarini ta'kidlashdi. Ruhiyatdagi bu o'zgarishlarni yakuniy imtihonlar davri bilan bog'lash mumkin, qolaversa, omma orasida bir xato tasavvur yuradiki, go'yo bunday buzilishlarni keltirib chiqaruvchi omil stress emish. Stress bizning irodamizni zaiflashtirib, his-tuyg'ularimizni boshqarish qobiliyatini pasaytiradi. Aslida, inson irodasi stress bilan kurashishga sarf bo'ladi va natijada muhim ishlar uchun "iroda yetishmay qoladi". Irodaning zaiflashuvi esa bizning mayda istak va mayllarga "yem bo'lib" ketishimizga sabab bo'ladi. Psixologlar o'tkazgan tajribalar inson irodasini qanchalik ko'p sarf etsa, navbatdagi istak-xohish izmiga bo'ysunish ehtimoli shunchalik ortishini ko'rsatdi.

Xo'sh, irodani "zaxira qilib" qo'yish mumkinmi? Mashhur psixolog Myureyven tajriba o'tkazdi. U tadqiq etiluvchi talabalarning qat'iyatlarini (irodalarini) baholashdan oldin tajribadagi topshiriqni yaxshi bajarganlarga pul berilishini ma'lum qildi. Chindan ham pul mo'jiza yaratdi.

# Mohiyatga nazar

Tadqiq etiluvchilar pulning daragini eshitishlari bilan tajribada ko'zda tutilgan topshiriqlarni a'lo darajada bajarish uchun o'zlarida "zaxira" topdilar. Tajriba davomida odamlarning qat'iyat va tirishqoqligini ko'rib, sira ham ular o'z iroda quvvatlarini sarflab bo'lgan demagan bo'lardingiz. Ular marra chizig'i ortida katta mukofot turganini ko'rib, nafas yo'llari butunlay ochilgan marafonchilarga o'xshar edi. Tasavvur qiling-a: marafonchi marra chizig'iga yetib keldi va unga kutilmaganda, haqiqiy marragacha yana bir mil yugurish lozimligini aytib qolishdi. Myureyven ikkinchi bosqichda pul mukofotiga ega bo'lgan tadqiq etiluvchilarga nisbatan xuddi shunday yo'l tutdi. Ularning ikkinchi bosqichdagi qat'iyatlarini ko'rib, bu hali hammasi emasligini, ishtirokchilarning qat'iyatini sinovdan o'tkazish uchun boshqa topshiriqlar ham borligini e'lon qildi. Ishtirokchilar esa ushbu "qo'shimcha topshiriq" haqida oldindan ogohlantirilmaganligi, binobarin, butun quvvatlarini ikkinchi bosqich topshiriqlarini bajarishga sarf etib qo'yganliklari bois, juda yomon natijalar ko'rsatishdi. Boz ustiga, ikkinchi bosqichda ishtirokchi qanchalik qat'iyat namoyon qilgan bo'lsa, uning "qo'shimcha" bosqichdagi ko'rsatkichlari shunchalik past edi. Bu ishtirokchi ushbu vaziyatda chindan ham yugurishni juda erta boshlagan va musobaqadoshlaridan birin-ketin ortda qolayotgan marafonchiga juda o'xshab ketardi.

Biroq, umidsizlikka tushmang: irodaning zaxirasini mo'l qilib qo'yishning ham imkoni borligi allaqachon isbotlangan. Buning uchun psixologlar tavsiya etgan bir necha yumushni bajarib borish kifoya qiladi. Jumladan:

Maxluqqa ozuqa bering. Ayni o'rinda biz "maxluq" deganda sizning botiningizdagi iblislarni nazarda tutmoqdamiz. Glyukoza yetishmasligi eng namunali insonni ham maxluqqa aylantirishi mumkin. Yaxshi nonushta bilan bog'liq eski o'git mutlaqo to'g'ridir. Qolaversa, jismoniy va ruhiy zo'riqishni boshdan kechirayotgan davringizda bu juda ham foydali. Agar siz imtihon topshirmoqchi, zarur uchrashuvga bormoqchi yoki muhim loyihani muhokama qilmoqchi bo'lsangiz, albatta, organizmingizdagi glyukoza miqdorini hisobga oling. Masalan, tushlikdan to'rt soat keyin aslo boshlig'ingiz bilan gap talasha ko'rmang; kechki ovqatgacha hamkoringiz bilan muhim mavzularni muhokama qilmang.

Eng zaruri, ortiqcha vazndan ko'ra ham jiddiyroq muammolaringiz bo'lsa, kaloriya bilan kurashmang.

Shuni aytish kerakki, shakarning qo'llanilishi faqat tajriba jarayonidagina (oddiylik uchun) o'rinli. Mutaxassislar uning taomlar ro'yxatida doimiy ravishda bo'lishini ma'qullamaydi. Ba'zan, shirinlikdan voz kechish uchun irodasi yetmay yurgan odamlarga o'z-o'zini boshqarish masalasining tadqiqotchilari tajribalar davomida shakar berishlari juda kulgili tuyuladi. Qanchalik kinoyali, kulgili tuyulmasin, olimlar shu usulda tajriba o'tkazishga majbur: negaki, aynan shakar tajribaning vaqtini tejaydi. Shakarli ichimlik qonda glyukoza miqdorining qisqa fursatda ko'tarilishini ta'minlaydi va olimlar uning ta'sirini tezda (masalan, tajribaning ikkinchi qismida)

o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Olimlar ham, tadqiq etiluvchilar ham organizmda tajriba uchun zarur miqdordagi glyukoza hosil bo‘lguncha murakkabroq yemak (masalan, oqsilli taom)ning parchalanishini bir soat yoki undan ortiq vaqt kutib o‘tirishni xohlamagan bo‘lardi.

Ayrim hollarda, siz qisqa muddatli sinovlar – matematikadan imtihon topshirish yoki sport musobaqasi oldidan ichki boshqaruv darajasini oshirish uchun shakar iste’mol qilishingiz mumkin bo‘ladi. Shunisi ham borki, qand miqdori qanchalik tez ko‘tarilgan bo‘lsa, shunchalar keskin pasayib ham ketadi. Buning natijasida esa siz o‘zingizni avvalgidan ham battar ezilgan va irodasiz his qilasiz. Shuning uchun uzoq muddatli strategiya sifatida bu usul butunlay yaroqsizdir. Qolaversa, biz shirinlikni doimiy iste’mol qilib yurishni tavsiya qilmoqchi ham emasmiz.

Sekin hazm bo‘ladigan taomlarni yeng. Organizm ovqatning barcha turlaridan glyukoza ajratib oladi, ammo bu jarayon har xil sur’atda sodir bo‘ladi. Tez hazm bo‘luvchi taomlar yuqori darajadagi glikemik ko‘rsatkichlariga egadir. Bunday taomlar sirasiga kraxmalli uglevodlar: oq bo‘lka non, kartoshka, guruch va ko‘plab qandolat mahsulotlari kiradi. Glikemik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan taomlar qonda qand miqdorining keskin oshib, keyin esa birdan pastlab ketishiga sabab bo‘ladi. Bu hol bizda glyukozaning, binobarin ichki boshqaruv darajasining pasayishiga va buning natijasida “o‘sha kraxmalli, shakarli” bo‘lakdan yana bir marta totinib ko‘rish istagiga qarshilik qila olmasligimizga olib keladi.

Bemorlik vaqtingizda immuntizimni oziqlantirish uchun glyukoza miqdorini saqlab turing. Yana bir marta kasal tanangizni bazo‘r sudrab ishga borarkansiz, bir narsani aslo esdan chiqarmang: mashinani kuchli shamollash paytida boshqarish shirakayf holda rulga o‘tirishdan ko‘ra xavfliroqdir. Immuntizimingiz kasallik bilan kurashar ekan, organizmdagi barcha glyukoza shu kurashga sarf etiladi va miyaning mo‘tadil ishlashi uchun bu ozuqa qolmaydi.

Agar siz o‘ta muhim loyihani boshqarayotgan bo‘lsangiz, glyukoza miqdori kamaygan daqiqalarda hech qanday uzil-kesil qarorlar qabul qilmang. Mabodo siz yig‘ilish yoki juda ahamiyatli kengashga qatnashishingiz shart bo‘lsa, irodangiz yetganicha rad eting. Bordi-yu imtihon

**O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISHDAGI ENG BIRINCHI QADAM ANIQ MAQSAD QO‘YISHDAN IBORATDIR**

arafasida to‘satdan shamollab qolgan bo‘lsangiz, yaxshisi, imtihonni boshqa kunga qoldirishga erishing.

Charchagan bo‘lsangiz – dam oling. Ish orasida andak mizg‘ib olsangiz, nima bo‘pti! Ko‘pincha, katta yoshli odamlar uyquni cheklash hisobiga ishlashga harakat qilishadi. Bu esa o‘z-o‘zini boshqarish darajasining pasayib ketishiga olib keladi.

Muhimni nomuhimdan ajrata biling. Har bir o‘tayotgan kunda zamonaviy odamning o‘rtacha statistik yumushlari ro‘yxat qilinsa, ustidan chiziq tortilishi lozim bo‘lgan 150 qator qayd etilar ekan. Boz ustiga, har daqiqada yangi yumushlar qo‘shilib boraveradi. O‘zimizning haftalik shaxsiy ro‘yxatimizga qanday vazifalarni kiritish va ularni qanday ketma-ketlikda bajarish tartibini hal qila olamizmi?

O‘z-o‘zini boshqarishdagi eng birinchi qadam aniq maqsad qo‘yishdan iboratdir. Aslida, aniq maqsadning mavjudligi ham o‘z-o‘zini boshqaruvning bir qismi hisoblanadi. Bu yerda ongli ravishdagi maqsadli o‘zgartirish nazarda tutiladi. Maqsadsiz o‘z-o‘zini boshqarish – ko‘plab bema’no o‘zgarishlarning majmuasidir. Bu – insonning o‘ziga yoqmaydigan taomlar haqida tasavvuri ham bo‘lmagan holda parhez saqlashiga o‘xshaydi.

Ammo ko'pchiligimiz uchun asosiy muammo maqsad yo'qligida emas, bil'aks juda ko'pligidadir. Biz har bir kun uchun rejalar tuzamiz, afsuski, ko'zda tutgan ishlarimizni hatto betanaffus harakat qilsak ham, bajarishga ulgurmaymiz. Qolaversa, yuqorida tilga olganimizdek, tanaffuslarning bo'lmog'i shart. Hafta yakunlayvergan sayin bajarilmay qolgan ishlarning salmog'i orta boradi. Biz esa ularni yanada orqaroqqa tashlayveramiz va "mavridi kelganda bir hamla bilan bajarib tashlayman", deb o'ylaymiz.

Uzoq muddatli vazifalarimizning ro'yxatini tuzish asnosida esa mavjud voqelikdan battar uzoqlashib ketamiz. Benjamin Franklin (mashhur siyosatchi bo'lish bilan birga u o'z-o'zini takomillashtirish usullari bo'yicha ham ilk kashfiyotchilardan sanaladi) hayotining so'nggi yillarida tarjimai holini yozar ekan, yoshligida zimmasiga olgan majburiyatini kinoya aralash yodga oladi. "Men axloqiy yetuklikka erishishning qiyin va qat'iy rejasini ishlab chiqdim. Va hech qanday xato qilmasdan yashashga harakat qildim. Tabiiy moyilliklarim, jamiyat va odat keltirib chiqargan ojizliklarimni yengishga urindim", deb yozgandi u. Ammo ko'p o'tmay Franklin muammolarga duch kela boshladi: "Mening diqqatim bir xatoni sodir etmaslik bilan band bo'lgan asnoda, beixtiyor kutilmaganda boshqa bir xatoga yo'l qo'yganimni sezib qolardim; mening e'tiborim xatolarga qaratilgan vaqtda botinimga ildiz otib ketgan odatlar o'zini namoyon qila boshlardi; ba'zan ishtiyoq ongdan ustun kelardi".

Shundan so'ng Franklin "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" tamoyilini qo'llashga qaror qildi. U o'zida shakllantirishi lozim bo'lgan fazilatlar ro'yxatini tayyorladi va har biri bo'yicha bajariladigan eng muhim vazifalarni qisqa va lo'nda yozib chiqdi. Mana, masalan, "Tartib"ga erishish uchun vazifalar: "har bir narsani o'z joyida saqlash, har bir mashg'ulot bilan o'z vaqtida shug'ullanish".

Tadqiqotchilar har xil toifadagi odamlardan "shaxsiy maqsadlari" haqida so'rashganda, ularning ko'pchiligi uchun kamida 15 tadan kam bo'lmagan ro'yxatni aytib berish uncha qiyin kechmagan. Ayrim hollarda bir necha maqsadlar bir-birini to'ldiradi: masalan, chekishni tashlash va pulni tejash. Ammo oilaviy maqsadlar va xizmatga doir maqsadlar orasida chetlab o'tish mumkin bo'lmagan ziddiyat bor.

Ba'zi maqsadlar mohiyatan o'zaro ziddiyatli bo'lishi mumkin. O'zaro ziddiyatli maqsadlarning hosilasi harakat emas, ayrim hollarda baxtsizlikka olib keladi.

Maqsadlar ham muddatli bo'ladi. "Olisdagi ko'pdan yaqindagi kam" qabilidagi reja har bir "bog'lanib qolgan" odamlarga xosdir. Ya'ni ular vaqt kesimining mumkin qadar dastlabki muddatlarida muayyan narsaga erishishni istaydi. Masalan, giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxs "hoziroq beriladigan" 375 dollarni bir yil o'tgach beriladigan 1000 dollardan afzal ko'radi. Xuddi shu xususiyat ashaddiy chekuvchilar va spirtli ichimlikka mukkasidan ketgan ichuvchilarga ham xosdir. Shuningdek, giyohvandlar tajriba laboratoriyasida qimor o'ynaganlarida, katta yutuq keltirishi mumkin bo'lgan tez, ammo qaltis strategiyani tanlaydilar. Garchi davomli ehtiyotkorona o'yin bilan bundan bir necha barobar ko'proq yutish mumkinligini bilsalar ham, "qaltis tezlik"dan o'zlarini tiya olmaydilar.

O'nlab yillar davomida psixologlar proksimal maqsadlar (ya'ni qisqa vaqtga mo'ljallangan rejalar) ning distal maqsadlar (uzoq muddatli vazifalar) strategiyasiga nisbatan afzalligi xususida bahslashib keladilar.

O'z oldiga uzoq muddatli maqsad qo'ymoq deyarli bemaqsadlik bilan tengdir. Faqat proksimal (qisqa muddatga mo'ljallangan) maqsadlarning mavjudligi ta'lim sifati, samaradorligini ta'minlaydi.

# INSON BUTUNLAY MUAMMOSIZ YASHASHINING "SIRI" ESA... TOPILMAGAN

Bir gal Napoleon o'zining strategik (uzoq muddatli) rejalashtirishga munosabatini shunday ifodalagan edi: "Avval haqiqiy jangni boshlab olaylik, keyin ko'rarmiz...". Dushman bilan to'qnash kelarkan, yaxlit vaziyatni umumiy tarzda nazorat qilib turar va natijada ko'z qamashtirarli zafarlarga erishardi. Shu taxlit o'z armiyasi bilan butun Yevropaning havas va hayratiga (keyin esa kulfatiga) sabab bo'ldi.

Qisqa muddatli tezxotirlik. Psixologlar orasida og'izdan og'izga ko'chib yuruvchi naqlda aytilishicha, bu kashfiyotning ibtidosi 1920-yillarning o'rtalarida, Berlin universitetiga yaqin joyda qilingan tushlik ovqatdan boshlanadi. Universitetning bir guruh olimlari restoranga kelib, ovqat buyurtma qilishdi. Ofitsiant butun boshli guruh tomonidan berilgan buyurtmani hatto yozib ham olmadi, shunchaki, bosh irg'ab qo'ya qoldi. Shunga qaramay, so'ralgan ovqatlar aynan buyurtma bo'yicha adashmay olib kelindi va bu hol olimlarni chinakamiga lol qildi.

Tushlik tamaddidan so'ng hammalari restoranni tark etdi, faqat bir kishi (uning aynan kimligi naqlda aytilmagan) unutib qoldirgan narsasi uchun qaytib keldi. U kuchli xotirasi bilan hayratda qoldirgan ofitsiantni chaqirib, yordam berishni so'radi. Afsuski, u allaqachon hammasini (qaytib kelgan odamning kimligini-yu qaysi stolda o'tirganini) unutib bo'lgan ekan. Undan, qanday qilib buncha tez unutish mumkinligini so'ralganda, "Men hamma buyurtmalarni stolga tortib, hisob bo'yicha pullar to'lanadigan vaqtgacha eslab turaman", degan javob olindi.

Inson xotirasida har doim bajarilmagan vazifalar va erishilmagan maqsadlar haqidagi eslatmalar qalqib chiqib turadi. Vazifa bajarilgan va maqsadga erishilgan lahzadayoq eslatmalar zanjiri "uziladi".

Inson ruhiyati – to'liq tadqiq etilmagan olam. Yuqorida keltirilgan tavsiyalar bizga oniy vaziyatlarda yoki ma'lum vaqt kesimida rejalashtirgan muammomizni hal etishimiz uchun zamin yaratadi. Inson butunlay muammosiz yashashining "siri" esa... topilmagan, balki uning keragi ham yo'qdir?

**Turdimurod MUSTAFOYEV**
**jurnalist**

# QABUL JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga abituriyentlarni onlayn ro'yxatga olish 20-iyun kuni boshlandi. Xo'sh, bu yil talaba bo'lish istagidagi yoshlar uchun qanday yangiliklar bor?

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligi mutasaddilari tomonidan yangi o'quv yili bo'yicha ba'zi ma'lumotlar sanab o'tildi. Bu yilgi qabul jarayonlarida o'tgan yilgiga nisbatan qabul kvotalari soni grant uchun 10 foizga, to'lov-kontrakt uchun esa 1 foizga oshirilgan. Bu esa, raqamlarda bakalavriat uchun kunduzgi ta'lim to'lov-kontrakt qabul kvotalari 92 254 tani tashkil etayotgani hamda davlat granti 34 860 ta etib belgilanganini ko'rsatadi. Qolaversa, bu yildan prezident farmoyishi bilan 16 ta bakalavriat va 23 ta magistratura mutaxasisligiga yangidan qabul tashkil etilmoqda.

Dilruh ISOMIDDINOVA olgan suratlar

Ma'lumki, joriy yildan abituriyentlarni ro'yxatga olishda maktab baholarining inobatga olinishi haqida aytilgan edi. Prezidentning tegishli farmoniga asosan, majburiy 11 yillik ta'limning so'nggi 6 yillik baholari o'rtacha ko'rsatkichini oliy ta'lim tashkilotiga kirish imtihonlarida inobatga olish 2 yilga kechiktiriladigan bo'ldi. Joriy yilgi qabulda maktab bitiruvchilariga o'rtacha bahosi qo'shimcha ball sifatida qo'shilmaydi. Chunki avvalgi yillarda maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlarning baholarini tegishli platformalarga kiritish uchun vaqt kerak. Demak, bu tamoyil ushbu muammo bartaraf etilgandan so'ng ishlay boshlaydi. Ma'lumot o'rnida, bu yil 390 mingdan ortiq yoshlar maktab bitiruvchisiga aylanadi.

Darvoqe, abituriyentlar uchun test sinov mezonlari o'tgan yilgidek qoldirildi – 3 ta majburiy fan va bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan 2 ta fan. 2023/2024-o'quv yili qabulida abituriyentlarga 5 ta fan bo'yicha jami 90 ta test savoli beriladi. Bunda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball - 189.

2023-2024 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga qabul qilish bo'yicha test sinovlari katta sig'imli binolarda o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bunda test sinovlarini o'tkazish uchun 92 ta bino tanlab olingan bo'lib, bir smenada 44 ming nafar abituriyent test sinovida ishtirok etishi mumkin bo'ladi.

Test sinovlari kunning ikki qismida o'tkaziladi:
1-smena: 08:00 da;
2-smena: 15:00 da boshlanadi.

Ro'yxatdan o'tish uchun abituriyentlardan faqatgina 2 ta hujjat: biometrik pasport yoki ID-karta va umumiy o'rta ta'lim olganligini tasdiqlovchi hujjat talab etiladi.

Asosiy testga qadar abituriyentlarda umumta'lim fanlaridan milliy sertifikat va B2 darajadagi til bilish sertifikatini olish imkoni bor.

B2 va undan yuqori darajadagi sertifikat chet tili blogidan maksimal ball beradi.

Milliy sertifikat esa eng yuqori ballning 60 foizdan 85 foizigacha to'plagan abituriyentlarga o'zlashtirish foiziga mos ravishda ushbu fandan belgilangan eng yuqori ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball beriladi. Eng yuqori ballning 86 foizi va undan yuqori ball to'plaganlarga esa ushbu fandan belgilangan maksimal ball qo'shiladi.

Majburiy fan uchun belgilangan maksimal ballni olish uchun talabgorning sertifikat bali 60 foizdan yuqori bo'lsa yetarli.

Abituriyentlar uchun yana bir yangilik! 2024/2025-yilidan boshlab qabul jarayonlari tizimida yana o'zgarish bo'ladi. Ya'ni prezident imzolagan qarorga asosan, kelgusi yildan boshlab OTMga kirish imtihonlari "Avval test, so'ng tanlov" tamoyili asosida tashkil etiladi. Bunda abituriyentlar test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, OTM, ta'lim yo'nalishi va shaklini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi tartibda esa abituriyentlar 5 ta yo'nalish ustuvorligini oldindan tanlaydi va keyin o'zgartira olmaydi. Natijalar chiqqach qaysi yo'nalishda o'qishini o'zi tanlash imkoniyati ham hozir yo'q.

Eslatib o'tamiz, joriy yildan magistratura yo'nalishlariga topshiruvchi talabalar uchun qabul yilda faqat 1 marta bo'lishi aytildi. Karantin davridan buyon magistratura yo'nalishiga qabul yilda 2 marotaba bo'layotgandi. Bu yildan hammasi yana o'z o'rniga qaytadi. Magistratura mutaxasisliklariga kirish uchun hujjat topshirish jarayoni 1-iyuldan 30-iyulga qadar (shu kuni ham) davom etadi.

Bakalavr yo'nalishiga topshiruvchi abituriyentlar uchun esa qabulning so'nggi kuni 20-iyul etib belgilangan.

**Internet manbalari asosida UrDU talabasi Javohir SOBIROV tayyorladi**

# PUBG EPIDEMIYASI

Bir kunda 10 soat pubg o'ynaydigan yoshlar haqida nima deyish mumkin? Albatta, salbiy fikr bildirish to'g'ridek tuyuladi. Negaki, bu vaqtni bekorga sarflash va hokazo. Lekin biz masalaning boshqa bir tomonlariga e'tibor bermagan bo'lamiz. Bir do'stim qishlog'iga borsa, 4-5 soat futbol o'ynashini aytgandi. Futbol bu sport, u esa sog'liq uchun foydali deyishga shoshilmang. Do'stim bugun stadionga borib, sog'lomroq bo'lishim kerak deb o'ynamagani aniq. Undan sababini so'raganimda, "mazza qilish uchun" degan javobni oldim. Aynan shu ikki holatning umumiy nuqtasi hisoblanadi. Odamlar nega kun-u tun Pubg o'ynaydi degan savolga ham xuddi shunday javob berish mumkin. (Pubg shunchalik mashhurki, siz uni mobil o'yin ekanini darhol tushungan bo'lsangiz kerak)

## Lekin nega?

Men bir necha pubgchilar bilan suhbatlashdim. Ulardan ketgan vaqtingizga achinasizmi, deb so'raganimda, barchasi "ha" deya javob berishdi. Unda nega o'ynashni to'xtatmaysiz, deganimda esa ba'zi birlari o'yinga narkotik kabi bog'lanib qolishganini tan olishdi. Qanday vaziyatlarda Pubg o'ynamay turasiz degan savolimga esa afsuski tayinli javob ololmadim. Suhbatdoshlarim bo'sh vaqt topdim deguncha... Savollar ko'p edi, men esa javoblardan tushunganlarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

## Tartibsiz bo‘sh vaqtlar

Biz qaysi sohada ishlashimiz yoki o‘qishimizdan qat’i nazar, mal’um darajada bo‘sh vaqtlarimiz bo‘ladi. Ko‘pincha u umuman rejalashtirilmaydi. Ijtimoiy tarmoqlardan ham zerikkanlar virtual ijtimoiylikni yangi bir darajaga ko‘targan “Pubg”ga qaram bo‘lib qoladilar. Chunki unda ham o‘ynash, suhbatlashish, tanishish, hatto sevishish mumkin. Natijada siz umuman boshqa virtual dunyoda yashay boshlaysiz. Bu esa shaxsiy rivojlanishingiz uchun sizga vaqt ham, imkoniyat ham qoldirmaydi. Shuning uchun bo‘sh vaqtni rejalashtirish kerak. Masalan, virtual dunyoda kim bilandir tanishgandan ko‘ra, real hayotda kimnidir uchrashuvga taklif qilgan yaxshiroq. Ota-onalar esa farzandlarining qiziqishlaridan kelib chiqib ularning hayotini yo‘naltirganlari ma’qul. Aks holda, o‘zi qiziqmagan mashg‘ulot bilan shug‘ullanishni istamagan bolalar boshqa qiziqarliroq mobil o‘yinlarga berilishlariga to‘g‘ri keladi.

## Yaltiroq o‘ramlardan foydalanish

Pubg, umuman, mobil o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar sizga juda jozibali ko‘rinadi. Ular sizga zavq bag‘ishlaydi. Aksar foydali ishlar esa qiyin va og‘riqlidek go‘yo. Shu o‘rinda bir ustozimning kitob o‘qish borasidagi maslahatini eslash foydali. Unga ko‘ra, kitobning mal’um bir qismini yoki butunlay o‘qib bo‘lganingizdan keyin o‘zingizga nimanidir sovg‘a qilishingiz kerak. U har xil ko‘rinishda yoki shaklda bo‘lishi mumkin. Har holda, qarshimizda turgan Pubg bizga juda ko‘p narsalani sovg‘a qiladi. Kiyimlar, qurollar, muloqot mimikalari, raqslar va hokazo. Ular o‘yinchilarni shunchalik qiziqtiradiki, ba’zilar uni pulga ham sotib olishadi. (Suhbatdoshlarimdan biri shu uchun 700 AQSH dollar sarflaganini aytib berdi). Shunday ekan, foydali ishlaringiz uchun o‘zingizga bonus bering.

## Muqobillikning kamligi

Hayotimizda muqobillikning kam bo‘lishi ko‘pchilikning aynan bir narsa atrofida to‘planib qolishiga olib keladi. Tasavvur qiling, maktab o‘quvchisining darsdan bo‘sh vaqtini modellashtirmoqchimiz. Shaharlarda-ku nisbatan imkoniyatlar keng. Ammo qishloqlardachi? Maktabdan qaytgan o‘quvchiga nima taklif qila olamiz? (chorvani boqishdan boshqa). Axir aksar qishloqlarda san’at maktablari, sport inshootlari-yu turli to‘garaklar yo‘q! Ular zamonaviy dunyo uchun anchayin sodda hayot kechirishadi. Lekin ularning qo‘lida mobil telefon bor. Endi aytingchi, vaziyat ularni qaysi tomonga yetaklaydi?

Menimcha, ayb sutkaning uchdan birida uxlab, yana uchdan birida mobil o‘yin bilan band bo‘layotganlarda emas. Tartibga solinmagan hayot va mavjud vaziyat ularni shunga majbur qilayotgan bo‘lishi mumkin. Biz qachonki sabablarni o‘zgartirsak, oqibat ham o‘zgara boshlaydi.

**Bobur SHAVKATOV**

# ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Rektor Akramjon YO'LDOSHEV:

## "VAQT YETOVIDA YURA OLMAYMIZ..."

**– UZOQ YILLIK TARIXGA EGA OTAXON UNIVERSITET BUGUNGI DAVR TALABLARIGA TO'LA JAVOB BERA OLYAPTIMI? ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETIDA KECHAGI TA'LIM VA BUGUNGI O'ZGARISHLARNI NIMALARDA KO'RASIZ?**

– Haqiqatan ham Andijon davlat universiteti O'zbekistondagi eng qadimgi, nufuzli universitetlardan biri hisoblanadi. Universitetimizga 1931-yilda asos solingan. 1992-yilgacha turli nomlar bilan faoliyat yuritib kelgan. Bugungi kunda universitetda 9 ta fakultet bor. 21,500 dan ortiq talaba tahsil oladi. Mana shu talabalarga 800 ga yaqin professor-o'qituvchilar dars beradi.

Keyingi paytlarda universitetimizda ta'lim tizimi ancha o'zgargan, rivojlangan va xalqaro ta'lim standarti asosida kredit modul tizimi bo'yicha darslar olib boriladi. Oxirgi yillarda moddiy texnik bazasini rivojlantirish bo'yicha ham juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda xalqaro reyting tizimida ham yil sayin yuqorilab borilyapti. Ta'lim jarayonini oldingi holat bilan deyarli taqqoslab bo'lmaydi. Chunki, o'zgarishlar juda ham katta. Professor-o'qituvchilarimiz xorijga borib, malakalarini oshirib kelyapti, xorijdan ham professorlar taklif qilyapmiz. Bu albatta talabalarning bilimi yuksalishiga va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida o'ziga yarasha rol o'ynaydi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Shuning uchun yoshlarimiz ham, ularning ota-onalari ham bundan mamnunlar. Kechagi ta'lim bilan bugungi o'zgarishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, yer bilan osmoncha farq qiladi. Chunki keyingi paytlarda shaxsan Prezidentimiz boshchiligida oliy ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va boshqaruv mustaqilligi berildi. Shu jumladan, Andijon davlat universitetiga ham. Yuqorida aytganimdek, kredit modul tizimiga ham o'tdik. Bu tizim ko'proq o'qituvchiga emas, talabaga yo'naltirilgan. Ya'ni o'sha eskirgan tizimdan voz kechib, talabaga yo'naltirilgan tizimga o'tishimiz, ta'lim sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Islohotlardan oldin universitetda ta'lim olayotgan talabalarga xorijlik mutaxasislar tomonidan o'quv mashg'ulotlari olib borilishi haqida gapirilsa yoki xorijlik olimlar bu yerga kelib, ilmiy ishlar qilishi va dars o'tishi haqida so'z borsa, hech kim bunga ishonmasdi. Lekin bugungi kunda bu bor narsa, talabalarimiz ham o'qituvchilar ham bunga o'rganib qoldi.

## – MAMLAKATIMIZDA XUSUSIY OTMning SONI KUNDAN KUNGA ORTIB BORMOQDA. KELGUSIDA USHBU MUASSASALAR BILAN RAQOBATLASHISH BORASIDA QANDAY CHORA-TADBIRLAR REJALASHTIRILGAN?

– To'g'ri aytasiz, chindan ham OTMning soni ortib boryapti. Mana shu oxirgi 5-6 yilning ichida oliy ta'lim muassasalarining soni 3 baravarga oshdi. Bundan tashqari, xususiy oliy ta'lim dargohlari ham shakllandi. O'zimning fikrimni aytadigan bo'lsam, xususiy universitetlarning paydo bo'lishiga, ularning faoliyat yuritishiga shaxsan men salbiy qaramayman. Chunki ta'lim sifati, o'qituvchilar, yetishib chiqayotgan kadrlarning salohiyati bo'yicha sog'lom raqobat yuzaga keladi. Bu faqat yaxshilikka! Agar qaysidir xususiy universitet kadr yetishtirishda oqsasa, sifatli kadr chiqara olmasa, bitirgan talabalari bilimi bilan o'zini ko'rsata olmasa, bu boshqa gap. Buni vaqt ko'rsatadi. Lekin vaqt yetovida yurish jarayoni tugadi biz uchun.

Yillar o'tib raqobat yanada kuchaysa kerak. Bunda ta'lim sifati bo'yicha keskin o'sish yuzaga keladi, deb o'ylayman. Chunki xususiy oliy o'quv yurtlari moddiy texnik bazasini tezda rivojlantirishga harakat qiladi. Eng kuchli o'qituvchilarni jalb qila oladi. Bu – tabiiy. Davlat oliy ta'lim muassasalari mana shu raqobatga chidashi kerak. Nafaqat chidashi, raqobatda yutib chiqishi kerak. Buning uchun albatta o'qituvchilarimiz o'z ustida ko'proq ishlashi, rahbariyat esa sharoit yaratish bo'yicha juda ko'p ishlarni olib borishi kerak. Biz ham qarab turganimiz yo'q. Keskinlik bilan mana shu raqobatga chiday oladigan kadrlarni yetishtirishga harakat qilyapmiz. Hamma imkoniyatlarni ishga solyapmiz. O'ylaymanki, rivojlanishda orqada qolmasak kerak.

## – UNIVERSITETDA KORRUPSIYAGA QARSHI QANDAY TIZIMLI CHORALAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

– Agar oldingi davr bilan solishtiradigan bo'lsak, keskin o'zgarish bor. Bundan tashqari, har bir oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashish nazorat bo'limlari ochildi. Rektor maslahatchisi degan lavozim ta'sis etildi. Universitetimiz saytiga kirib ko'rsangiz, alohida yozib qo'yganmiz: "Korrupsion holatlarga duch kelganda murojaat qiling", deb. U yerda anonim tarzda bemalol murojaat qilish mumkin. Barcha murojaatlar to'g'ridan-to'g'ri o'zimga kelib tushadi. Mana shu o'zgarishlar keyingi paytlarda korrupsiya holatlarining kamayishiga sabab bo'ldi. Har oyda bo'ladigan universitet kengashi, har haftada bo'ladigan rektor huzuridagi yig'ilishlarimizda tinmasdan bu haqida aytib kelamiz. O'zimizning ichki tartib-qoidalarimizda ham poraxo'rlikka qarshi keskin kurashishimiz belgilab qo'yilgan. Ya'ni bunday holatga yo'l qo'yadigan o'qituvchi yoki xodim bo'lsa, darrov bahridan o'tamiz.

**— BUGUNGI TALABALAR KECHANGI TALABALAR EMAS. HOZIR KO'P NARSALAR ULARNING TALABIGA JAVOB BERMAYAPTI. AYNIQSA, TAHSIL BERUVCHI PEDAGOGLAR BORASIDA E'TIROZLARI BISYOR. ULARNI PORLOQ KELAJAKKA QANDAY ISHONTIRASIZ?**

– Bugungi talabalarning dunyoqarashi mutlaqo boshqacha, ularning qarichi bilan o'lchanadigan bo'lsa, jarayon oldingi davrlarga umuman to'g'ri kelmaydi. Chunki, ular juda ko'p axborot, ma'lumotlar davrida yashayapti. Internet orqali juda ko'p bilimlarni olish mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlamaydigan bo'lsa, bilim jihatidan talabalardan ortda qolishi mumkin. Hozirgi talaba juda talabchan. Unga bardosh berish uchun o'qituvchi har kuni izlanishi shart. Bo'lmasa, eski bilimlar bilan qolib ketgan o'qituvchi bugungi talabalarga dars berishda qiynalib qoladi. Bu albatta nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. E'tirozlarga sabab bo'ladi. Lekin men bemalol aytishim mumkin, Andijon davlat universiteti o'qituvchilari bu borada samarali mehnat qilishyapti, nazariy bilim berishda ham, amaliy bilim berishda ham jonbozlik ko'rsatyapti. Bugungi talablarga bemalol javob bera olyapti, deb o'ylayman.

**— KADRLAR TAYYORLASHDA TA'LIMNI AMALIYOT BILAN UYG'UN RAVISHDA OLIB BORISH JUDA MUHIM. SHU MA'NODA, BUGUN TALABALARNI SOHALAR BO'YICHA AMALIYOTGA YUBORISH, QOLAVERSA, ULARNI ISH BILAN TA'MINLASH MASALALARIDA QANDAY CHORA-TADBIRLAR KO'RILMOQDA?**

– Hozir zamon bilan hamnafas kadrlarni tayyorlash uchun amaliyotga ko'proq e'tibor berilyapti. Andijon davlat universiteti pedagoglarni tayyorlaydigan muassasa bo'lgani uchun 90 foizdan ziyod amaliyotlar maktab, litseylarda bo'lib o'tadi. 3-4-kursda o'qiyotgan talabalarimiz amaliyot o'tayotgan joyida o'zini ko'rsatib, keyinchalik ishlab qolyapti.

Talabalarni nafaqat o'qitish, balki keyinchalik, hatto o'qiyotgan paytida o'z sohasi bo'yicha bandligini ta'minlaydigan tizim ham yaratilgan. Amaliyot paytida yaxshi natijaga erishgan talabalar o'sha paytning o'zida ishga qabul qilinishi mumkin.

– Shaxs sifatida bugungi davrga baho bera olasizmi? Umuman, dunyo qanday o'zgarayotgani haqida mulohazalaringiz.

– Avvallari maktab ham, oliy o'quv yurtlari ham boshqacha edi. To'g'ri, o'sha paytlarda ham sifatli ta'lim berishga harakat qilingan. Lekin imkoniyat bunaqa emasdi. Laboratoriyalar, auditoriyalar, moddiy texnik baza, raqamlashtirish masalalari bugungi kunimizda o'zini ko'rsatyapti. U davrda mana shu narsalar yo'q edi. Ma'lumotlar va adabiyotlar almashinuvi juda ham qiyin edi. Hozir raqamlashtirish orqali istalgan, nafaqat Andijon davlat universitetining bazasi, balki butun res-

publikadagi oliy ta'lim muassasalarining kutubxonasi bir-biri bilan bog'langan. Dunyodagi nufuzli universitetlarning kutubxonalari bilan integratsiya qilingan. Bugun adabiyotlar masalasi deyarli yechilgan. Elektron holatda istalgan kitobni o'qish imkoniyati paydo bo'ldi. Mana shu narsalar oldin yo'q edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, yangi adabiyotlarning yetishmovchiligi, chet eldagi xorijiy tillarda chop etilgan darsliklarning o'zbek tiliga tarjimasi masalalarida hali qilinadigan ishlar bor. Bu maslalarda bizning professor-o'qituvchilarimiz ham tinimsiz ishlab, manbalarni ro'yobga chiqarishga harakat qilyapti. Eslasangiz, oldinlari dars mavzulari "konspekt" shaklida yozdirilar va uyga vazifa sifatida yodlashga berilar edi. Bu jarayon insonni fikrlashga, qo'shimcha yangi bilimlar o'zlashtirishga undamaydi. Hozir har bir dars mashg'ulotidan so'ng, mavzu yuzasidan yangi bilimlar o'zlashtirilishi va qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilinishi kerak bo'ladi. Shu bois, bugungi pedagog faqatgina darslik bilan cheklanmasligi lozim. Ular har kuni 4-5 ta chet elda nashr etilayotgan ilmiy maqolalarni o'qishi zarur. Bugungi davr juda boshqacha davr. Agar harakat qilsa, o'z ustida ishlasa, o'zining sohasini yaxshi biladigan bo'lsa, til o'rgansa, yoshlar uchun juda katta imkoniyatlar bor.

**– O'ZINGIZ HAM TALABALAR BILAN UCHRASHIB, ULARNING DARDLARIGA QULOQ SOLIB TURASIZMI?**

– Ha, albatta. Rektor sifatida Andijon davlat universitetining deyarli hamma talabalari bilan uchrashib chiqishga harakat qilaman. Yigirma bir yarim ming talaba bor deb yuqorida aytdim, shuning 9,500 nafari kunduzgi yo'nalishda o'qiydigan talabalar. Ular har kuni darsga keladi. Sentyabr-oktyabr oylarida grafik bo'yicha birinchi kurs talabalari bilan to'liq tanishib chiqaman. Fakultet-ma-fakultet, yo'nalishma-yo'nalish yurib, aylanib chiqishimga bir yarim, ikki oy vaqt ketadi. Keyin odatda noyabr-dekabr oylarida men to'rtinchi kurs talabalari bilan gaplashaman. Chunki, ular shu yil bitiradi. Ularda ish muammosi, bandlik muammosi, ilmiy ishlari, himoyasi kabi juda ko'p masalalar paydo bo'ladiki, to'rtinchi kurs talabalari bilan ham ikki oy uchrashib, alohida-alohida suhbatlashishga harakat qilaman. Keyin yanvar oyidan to o'quv yili tugaguncha ikkinchi, uchinchi kurs talabalari bilan uchrashaman. Ularni qiziqtirgan savollarga javob beraman. Qiynayotgan muammolari bo'lsa birgalashib yechishga harakat qilamiz. Bundan tashqari, tez-tez talabalar turar joylariga, sport kompleksida bo'layotgan har-xil sport o'yinlari davrida borib, ularni qo'llab-quvvatlab, uchrashib, qiziqtirgan savollariga javob berib, dardini eshitishga intilaman. Hozirgi zamon talabalarga yuqoridan qarashga imkon berayotgani yo'q. Biz o'qigan paytlarimizda ta'lim tizimi bunday emasdi. Rahbarlarni biz talabalar deyarli ko'rmasdik. Lekin hozir davr taqazosi shundayki, har kuni talabalarning ichida bo'lishingiz kerak. Ular bilan muloqat qilishingiz va albatta ular sizni yaxshi tanishlari kerak. O'ylaymanki, mana shunday munosabat bundan keyin ham davom etaveradi.

## – AKRAMJON YO‘LDOSHEV QANDAY KITOBLAR O‘QIYDI? SIZ TALABALARGA TAVSIYA ETISHNI ISTAGAN 5 KITOB NOMI?

– Badiiy, sarguzasht janridagi kitoblarni juda ko‘p o‘qirdim. Kitob haqiqatan ham odamning qiyin kunida do‘st bo‘ladi, yo‘l ko‘rsatadi va eng ishonchli, yorug‘ kelajakni ta’minlaydi. Men talabalarimizga Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini tavsiya qilaman. Ular yana “Temur tuzuklari” kitobini, O‘tkir Hoshimovning menda juda katta taassurot qoldirgan, hayotimda mayoq bo‘lib xizmat qilgan “Nur borki, soya bor” asarini, “Dunyoning ishlari” qissasini, Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz”, Aleksandr Dyumaning “Graf Monte Kristo” asarlarini mutolaa qilishlarini istardim.

## – SUHBATIMIZ PIROVARDIDA REKTOR SIFATIDA BUGUNGI KUN TALABALARIGA NIMA DEGAN BO‘LAR EDINGIZ?

– Talabalarga, yoshlarga aytadigan gapim shuki, baho uchun o‘qimanglar, hurmatli talabalar. Baho uchun o‘qimaslik kerak, bu notog‘ri bo‘ladi. Bilim uchun o‘qish kerak. Kitob o‘qishdan maqsad, darsga kelishdan maqsad bilim olish bo‘lishi kerak. Nomdor stipendiat bo‘lish uchun, har xil imtiyoz bilan magistraturaga kirish uchun va hakozo maqsadlar tufayli o‘qituvchisi bilan baho talashayotgan talabalarni ko‘rsam achinib ketaman. Stipendiyani yuqori miqdorda olish, nomdor stipendiat bo‘lish yaxshi, lekin buning uchun bilimingiz yetarli bo‘lishiga harakat qilish kerak-da. To‘rt bahongizni besh qilib qo‘ysa, bilimingiz oshib qolmaydi...

Talabalarimiz, xususan jurnalingiz o‘quvchilari bo‘lmish yoshlar avval insoniylikni, ma’naviy boylikni yuqori darajada egallagan bo‘lishini, oilasi-yu xalqi uchun manfaatli kishilar, yuksak madaniyatli, yuksak axloqli va o‘zlari haqida qayg‘uradigan kishilar bo‘lishini orzu qilib qolardim.

## – MAZMUNLI SUHBATINGIZ UCHUN JURNALIMIZ JAMOASI, KO‘P SONLI MUSHTARIYLARIMIZ NOMIDAN MINNATDORLIK BILDIRAMIZ!

– Jurnal o‘quvchilariga qarashlarimni bayon eta olganimdan mamnunman, o‘z navbatida ushbu imkoniyat uchun jamoangizga tashakkur aytaman. Ezgu maqsadlar yo‘lida olib borayotgan ishlaringizda Yaratgandan kuch-quvvat tilayman!

**Rektor huzurida Aziz ABDUMALIK bo‘ldi**

# BARKAMOL TALABA QANDAY BO'LADI?

*Talaba bo'lishni to'xtatgan kishi, hech qachon talaba bo'lmagan!*
**JORJ ILES**

Dunyoda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bu, shubhasiz, ta'lim. Bugun ta'lim sohasidagi o'zgarishlar barobarida insonlarning ham bilim olishga nisbatan qarashlari va fikrlari o'zgarib bormoqda. Bizda talaba bo'lish va oliy o'quv yurtiga kirish istagida bo'lgan yoshlarning soni kundan kunga ortib borayotgani ham barchaga ma'lum. Xo'sh, zamonaviy dunyoda talabalarning "barkamol talaba" tushunchasi haqida fikri qanday? Savolimizga javob izlab, ayrim talabalardan fikr so'radik.

## Barno JO‘RAYEVA, talaba:

– Men talaba sifatida quyidagi xususiyatlarni barkamol talaba bo‘lishda kerakli deb hisoblayman:

- Mas’uliyatli bo‘lishi, dars jarayoniga vaqtida kelishi va qatnashishi lozim. Shu bilan birga, oliy o‘quv yurti talablariga javob beradigan darajada kiyinishi kerak;

- Tashabbuskor bo‘lishi, ya’ni nafaqat o‘quv jarayonida o‘zini ko‘rsata olishi, balki tashkiliy ishlarda ham faol bo‘lishi kerak;

- Talaba kelajakda erishishi kerak bo‘lgan aniq maqsadlarga ega bo‘lishi. Chunki shunday talabalar borki, oliy o‘quv yurtida nima sababdan o‘qiyotganini anglab yetmaydi. Shu sababli unday talabalardan kelajakda jamiyatga, mamlakatga foydasi tegadigan kadrlarning yetishib chiqishi dargumon.

## Shohsanam YUSUBBOYEVA, talaba:

– Muntazam o‘qiydi va o‘qiganlariga amal qiladi. Undan talab qilingan har bir vazifani bajaradi. O‘zining rivojlanishida to‘siq bo‘ladigan yumushlarga chalg‘imaydi. Bunday talabalar o‘zi tanlagan sohani katta ishtiyoq va mas’uliyat bilan o‘rganishadi. U topshiriqlarni zo‘rama-zo‘raki emas, undan zavqlangan holda bajaradi. Shu bilan birga u o‘raganyotgan bilimlar kelajakda orzu qilgan kasbiga qaratilgan bo‘ladi. Barkamol talaba o‘zi, ustozlari va atrofidagilarni hurmat qiladi. Xullas, uning obrazida shaxs sifatida shakllanayotgan yoshni ko‘raman.

# Bizning so'rovnoma

## Javlon RAHIMOV, talaba:

– Barkamol talaba – bu g'ayratli, qiziquvchan, intizomli va o'z yo'nalishiga sodiq odam. U ochiq fikrli, o'rganishga tayyor va kerak bo'lganda savol berishdan yoki yordam so'rashdan qo'rqmaydi. Yana u o'qituvchilari va tengdoshlariga nisbatan hurmat saqlashi, ularning xatti-harakatlari uchun ham javobgar bo'lishi lozim. Qolaversa, o'z ilmiy va shaxsiy izlanishlarida mukammallikka intilishi kerak.

## Diyoraxon MISRALIYEVA, talaba:

– Aslini olib qaraganda har bir oliy ta'lim muassasining o'z tartiblari mavjud. Shu bilan birgalikda talabalarga xos qoidalari ham. Bunga ko'ra, har bir talabaning ma'lum salohiyatlariga qarab unga baho beriladi. Kimningdir nazdida sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega hamda ijodkor talaba iqtidorli deb topilsa, yana kimdir uchun bu boshqa o'lchov asosida aniqlanadi. Barkamol talaba uchun ta'lim maskani bilim olish hamda kelajak uchun maqsadli harakat qilish manzili bo'lishi kerak, xolos. U universitetda olayotgan ta'limi oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun "tramplin" ekanini anglab yetgan bo'ladi. Menimcha, ideal talaba o'zi ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtidagi mavjud har qanday vaziyatga moslashgan holda professor-ustozlardan maksimal darajada bilim olishga intiladi va bu orqali o'z kamchiliklarini tuzatib boradi.

## Shavkat AKTAMOV, talaba:

– Barkamol talaba qanday bo'lishi kerak? U o'zi uchun o'zi harakat qilishi kerak! Iqtisodiy, ijtimoiy o'rni va porloq kelajagi uchun harakat qilishi lozim. Men ikki yil Xitoy davlatida ta'lim olib qaytganman. Dunyo talabalari orasida "Time managment"iga ega talaba "ideal" hisoblanar edi. U o'qish bilan birga, til o'rganishi, o'zining iqtisodiy tomonini ham shakllantirishi lozim. Bularning barchasini amalga oshirish uchun esa, vaqtni tog'ri taqsimlay olishi darkor!

## Lola BEGMAMATOVA, talaba:

– Talaba bo‘lgunimcha talabaning qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikrlarim boshqacha edi, o‘qishga kirganimdan keyin esa umuman o‘zgardi. Nazarimda, barkamol talabada quyidagilar bo‘lishi lozim:

- Talaba o‘qishga va darsga vaqtida kelishi shart;
- Har doim darsga tayyor turishi va mavzuni o‘qituvchi bilan bir xil muhokama qila olishi kerak;
- Mutaxasisligi bo‘yicha birinchi raqamli mukammal kadr bo‘lishni maqsad qilishi va shunga qarab harakat qilishi lozim;
- Imkon boricha, turli xil grantlarga qatnashib, talabalik imkoniyatlaridan maksimal foydalanishi kerak.

## Ilhom O‘ROQBOYEV, talaba:

– U nima uchun o‘qiyotganini anglab yetgan va qat’iy maqsadlarga ega bo‘ladi. Tartibli hayot va rejalashtirilgan harakatlar barkamol talaba uchun odatga aylanishi lozim. Faqatgina foydali mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishi hamda asosiy maqsaddan chalg‘itadigan keraksiz narsalardan voz kecha olishi lozim. Talabadan talab qilinadigan eng asosiy narsa bu – o‘qish. Shunday ekan, haqiqiy talabaning asosiy maqsadi ilm olish bo‘lshi kerak!

**Dilmurod MAHRAMOV tayyorladi.**

# MANGU DA'VAT

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist,
adib va tarjimon Qulman OCHIL bilan suhbat

Atoqli adibimiz Erkin A'zam bir kitobimga yozgan so'zboshisida "Zavqi zo'r, jur'ati zo'r" deb lutf qilgan va bu menga beqiyos ilhom bag'ishlagan edi. Ishtiyoqimni menga munosib ko'rilgan ana shu "mo'tabar unvon"dan izlang!

Bir haqiqatni erta anglatgani uchun shukr qilaman: bu dunyoga lo'lining erkagiday yalpayib yotish, choyxona-yu mayxonalarda, gap-gashtaklarda gap sotish uchun kelmagan ekanman. Bunday o'tkinchi davralarga yoshligimdan tob-toqatim yo'q. Mabodo tasodifan qo'shilib qolsam ham ichimdan zil ketib, yegan-ichganim zaharga aylanib o'tiraman: "Shuncha ish-yumushing qalashib yotibdi-yu, sening bunday yallo qilib yurishingni qara!"

Inson umri naqadar qisqa, turmush tashvishlari va bandasini yo'ldan uradigan ko'ngilochar ne'matlar, ohanrabolar naqadar ko'p! Ayniqsa, shu zamonda.

**– USTOZ, KO'Z TEGMASIN-U, G'AYRATINGIZGA, SERMAHSULLIGINGIZGA HAVAS QILAMIZ. DAVLAT XIZMATI MAS'ULIYATI, YILLAR YUKI HAM YOZISHDAN HAFSALANGIZNI PIR QILMADI. BU ZO'R ISHTIYOQNING SABABINI QAYERDAN IZLAYLIK?**

– Shu savolingiz manzil-makondan sal adashdi-yov. Bandasini hayratga soladigan hafsala-yu ishtiyoq masalasida menga emas, ana, amriqolik ikki qariya – Donald Tramp (asli o'zi Doniyor Turop bo'lsa kerak) buva bilan Jozef Bayden (Yusuf Boydin bo'lsa ne ajab) dodaga havasingiz kelsin!

Donald buva sakson yoshning biqiniga mushtini o'qtalib turgan bo'lsa, Jozef doda to'qsonga qarab ot solganiga a-ancha bo'lgan. Birining boshi tergov bilan suddan chiqmayotganiga, ikkinchisi tep-tekis yerda qoqilib-surinib yurganiga qaramay, kursi talashgani-talashgan! Ana kuch, ana g'ayrat!

Dunyoning ishlariga ser solibroq qarasam, hayronlar qolaman-da, inim: nufusi 335 millionni qoralab qolgan shunday qudratli davlatda nahotki qarqarali kursiga loyiq bizga o'xshagan qarsillagan yigitlar topilmasa?

Kaminaga kelsak, yozishga ishtiyoqimning sababini yurtimizda faqat so'zda emas, yana amalda bo'y ko'rsata boshlagan demokratiya, oshkoralik va so'z erkinligi kabi to'tiyolardan izlang. Bir vaqtlar oxiriga yetkazishga jur'atim yetmay, g'aladonga tashlab qo'ygan mashqlarim bugun peshma-pesh chop etilayotgan bo'lsa, sababini jamiyatimizdagi ana shu emin epkinlar-u evrilishlardan izlang.

# Gurung

**– JURNALIMIZ MUSHTARIYLARI – ASOSAN TALABALAR. KELING, TALABALIK YILLARINGIZNI ESLAYLIK. BUGUNGI YOSHLARGA O'SHA KEZLAR "OB-HAVO"SIDAN GURUNG BERSANGIZ.**

– Avval-boshdan uzrimni aytganim durust: keksalikka xos ikki qusur – hadeb g'ingshiyverishdan va pand-u nasihatdan tiyilishga harakat qilaman. Shunday ekan, aytadiganlarimni ushbunday qusurlarga yo'ymaysiz.

Innankeyin, talabalik yillarimda zavq-shavqqa to'lib eslaydigan voqeaning o'zi bo'lganmikan? Jinday shubham bor-da!..

Darvoqe, uyimda bir surat bor. Sochlari yelkasiga tushgan yigitchaning nigohi go'yo uzoq-uzoqlardagi baland-baland cho'qqilarga qadalgan. Demak, bilingki, uning orzulari mo'l, shashti g'oyat baland. O'ta jiddiy va sipo. Kiyinishiyam shunga yarasha: bo'ynida o'sha zamon urfidagi ingichka galstuk. Egnida oq ko'ylak, qalin kostyum. Surat hoshiyasida "Studentlik – oltin davrim" degan totli-mujmal so'zlar.

Surat yiqilib-surinib, talashib-tortishib Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetining kechki bo'limiga bir amallab ilashgan sahroyi bolaning orzusi ushalgan saodatli kunlaridan esdalik!

Tongdan shomgacha qurilishda beton quyib, oqshom Talabalar shaharchasidagi dorilfununga oyog'ini sudrab kirib boradigan tinglovchining turish-turmushi qaydan "oltin davr" bo'lsin! Tun yarmidan oqqanda Chilonzorning mashhur Qatortol ko'chasidagi quruvchilar yotoqxonasiga tramvayga osilib kelib, och-nahor "tarrakday qotgan" chilvirday ingichka bolaning kunlari qanday "oltin davr" bo'lsin!..

Shu holiga, o'sha "mullaqiltiriq" tonglarda turib, besh-olti chaqirim masofaga yugurganiga, joni ko'ziga ko'rinmaydigan tengdoshlari bilan mashg'ulotlarda ayovsiz mushtlashganiga, bo'yidan baland joyga osilgan pishiq g'ishtni kim tepib sindirar o'ynaganiga o'lasizmi! Karateni qoyillatmoqchi bo'lgan-da!..

Toshkentdagi jamiki kitobfurushlar bilan oshno tutingan o'sha "karatechi" korandalarning dam olish kunlari magazinma-magazin sanqiganini, do'kondorlarga choychaqani mo'lroq berib, kamyob kitoblar, gazeta-jurnallarni sevinib-sevinib xarid va mutolaa qilganlarini aytmaysizmi!

O‘sha kezlar menga kunduzgi bo‘limda o‘qish nasib etmaganidan o‘kingan paytlarim bo‘lgan. Hammamiz ham xom sut emgan bandamiz, axir. Peshinda darsdan chiqib, yotog‘ida miriqib uxlaydigan, stadionni changitib to‘p tepadigan, saboqdosh qizlari bilan kinoga tushib, chaqchaqlashib yuradigan tengdoshlarimga ko‘zim tushganida, egnimdagi dag‘al korjomam, oyog‘imdagi zil-zambil kirza etik, boshimdagi suyakdan qattiq kaskamdan orlangan kunlarim bo‘lgan.

Brigadamizda 28 ishchi edik. Turli millat, turli til, turli sajiyali o‘sha qora-qura korandalar jamoasidan hech bir maktab, hech bir dorilfununda o‘qitilmaydigan hayot saboqlarini oldim. Ular orasida qotillikda ayblanib yigirma yilcha “yotib chiqqan” shovvozlardan tortib nufuzli kengashlarning deputatlarigacha, so‘nggi chaqasini ham lotereya chiptasiga sarflab, och-nahor yuradigan qimorbozdan to qo‘lidan kitob, tilidan oyat tushmaydigan dindorlargacha bor edi. Bugun men hayrat va havas bilan eslaydiganim – ularning hammasi og‘ir mehnatning ostidan chiqqan, zahmatkash odamlar edi.

Keyinchalik anglab yetdimki, Xoliqi azal suyagim qotar-qotmasdan meni ana shunday qiyinchiliklar, o‘rtanishlar va mahrumliklar sari yo‘llab, ulug‘ marhamat ko‘rsatgan ekan. Turfa odamlar davrasidan bahramand qilib, umrimga rostakam “oltin davr” hadya etgan ekan!

Amin bo‘ldimki, bu dunyoda nimagadir erishmoqchi bo‘lgan inson albatta nimadandir voz kechmog‘i darkor. Gardun-u dunda biror bir imorat yo‘qki, biryo‘la uning ham eshigidan, ham teshigi – derazasidan chiqa olsang! Mening jaydari falsafam – shu. Hayotda muhimni nomuhimdan ajrata olish –ulkan omad.

**– O‘TGAN ASRNING 80-YILLARI – QAYTA QURISH DAVRI SIZNING NAVQIRONLIK CHOG‘LARINGIZGA TO‘G‘RI KELGAN. O‘SHANDA JURNALISTIKA JAMIYATDAGI HAL QILUVCHI KUCHLARDAN BIRIGA AYLANGAN EDI. BU DAROMADDAN MUDDAO – IKKI JIHAT HAQIDA SO‘RAMOQCHIMAN. NEGA KEYIN JURNALISTIKANING O‘SHA MAVQEI SAQLANIB QOLMADI? OSHKORALIK YILLARIDA SOHA VAKILLARI TOMONIDAN QANDAY KAMCHILIKLARGA YO‘L QO‘YILGAN EDI?**

– Saksoninchi yillarda gazeta-jurnallar, radio-televideniye idoralari qaynab yotgan qumg‘onni eslatardi. Odamlar badiiy filmlar chetda qolib, partiya qurultoylari, parlament sessiyalari, komissiyalarning majlislaridagi bahs-munozaralarni yutoqib tomosha qilgan. Hayajonlangan, asabiylashgan, tortishgan, qo‘liga qalam olib, fikrini erinmay yozgan.

Gazeta-jurnallarda ko‘tarilgan muammolarni, ayniqsa, ziyoli ahli – jurnalistlar, adiblar, olimlar, o‘qituvchilarning dadilligini, ahilligini va birdamligini ko‘rsangiz edi!

Butun bir xalqning tiliga va diliga solingan necha asrlik ko‘z ilg‘amas tushovlar birdan yechilib ketgan. Odamlar yengil nafas olib, yuragidan in qurgan va azob berib yotgan qo‘rquv ko‘tarila boshlagan.

Qizig‘i, dasturxonida noni, qozonida go‘shti, hamyonida puli haminqadar bo‘lsa-da, kitob-u gazeta-jurnalsiz uyni topish qiyin edi. O‘qish-o‘rganish millatimizning go‘yo faxr-iftixor ishiga aylangan. Shundanmikan, u zamonning odami maoshim kam, ko‘chamizda gaz yo‘q, suv yo‘q, chiroq yo‘q, deb hadeb yozg‘iravermasdi.

Gazeta-jurnallar ilgari barmoq bilan sanarligina xat-xabar olgan bo'lsa, demokratiya epkinlari esa boshlaganidan keyin kunlik pochta qoplarga sig'may ketganiga o'zim guvohman. Hammasida el-yurt, Vatan dardi! Istiqlol orzusi!

Keyin bu dardga malham indi: Vatanimiz mustaqillikka erishdi! O'sha saodatli kunlarga, tarixiy lahzalarga guvoh bo'lgan ko'ngillar shod! Axir istibdod, zulm tugadi! Ma'muriy buyruqbozlik silsilasi barham topdi. Bu yog'i endi ozodlik. Hammasi o'z qo'limizda. Yaratganning nazari tushgan ona zaminimiz bor, ona zaminimizda qazilma boyliklarimiz bisyor. Xalqimiz tezda boyib ketadi!..

Nazarimda, tengsiz kurashlarda erishilgan g'alabaning izidan keladigan mislsiz masrurlik – eyforiyadan keyin paydo bo'ladigan bo'shashish, so'ljayish, horg'inlik sezilgan edi. "Temir qafas"dan nariga chiqib, dunyo ko'rmagan millatga tajribasizlik pand bera boshladi.

Qarangki, ona zamin bag'ridagi umid qilingan o'sha ne'matlarga bozor iqtisodiyoti sharoitida hammaning ham qo'li yetmas, hamma birdan boyib ketmas ekan. Ko'zdan nari yo'qolganday tuyulgan ma'muriy buyruqbozlik silsilasi ham tezda yana to'rga chiqib oldi.

Bularni ko'rib, ra'yi qaytgan, alamzada boladay shalvirab qolganlar bo'ldi. Hamma o'qish-o'rganishdan yuz o'girganday: kecha talabgorlar ko'pligidan pufakday yorilish darajasiga yetgan oliy ta'lim muassasalari endi abituriyentlarning diydoriga zor. Ha, aynan shunday – universitetlardan yoshlarning qadami deyarli uzilib qolgan paytlar bo'lgan, tirikchilik g'amida ko'pchilik o'zini bozorga urgan va shukrki, bari tezda iziga qaytgan edi.

Harqancha ko'p bo'lmasin, tabiiy boyliklarga tayanib uzoqqa borish dushvorligini, najot faqat ilm va tafakkurda ekanini anglash boshlandi. Jahoniy taraqqiyotning gadoytopmas bir kunjagida qolib ketmaslik uchun aqlni peshlashdan o'zga chora yo'q.

Jamiyatimiz yana iqror bo'ldiki, ochiqlik, oshkoralik va so'z erkinligi bo'g'ilib-biqtirilgan muhitda ozod va obod Vatan barpo etish – xomxayol. Na ta'lim, na ilm-fan, na mamlakat ravnaq topadi. Na jafokash xalq ro'shnolik ko'radi.

Bunday iqrornomalarni ko'p o'qib, ko'p eshitganimiz va yuraklarimiz zada bo'lib ketgani uchunmi, hayotda adolatning boshini ham ko'rganimizda so'qirning yo'qolgan hassasi haqidagi naql yodga tushaveradi: "Nahotki? Yana-ya? Axir endi aslo ortga qaytmaymiz, deyilgan edi-ku?"

Uchinchi Renessans poydevorini ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish orqali barpo etish g'oyasini ilgari surib, yoshlarni "rektorlarning bunkeri"dan qutqargani uchun Prezident Shavkat Mirziyoyevdan minnatdor bo'lishimiz kerak. Aynan ana shu tashabbus o'laroq, yuzlab zamonaviy maktablar, o'rta va oliy ta'lim dargohlari, o'quv markazlari millionlab yigit-qizlar uchun eshiklarini lang ochdi. Bir zamonlar qirq ming studentimiz bor deb qayqayib yurgan o'lkada bugun talabalarning soni-salmog'i millionga yetdi. Bugun jamiyatimiz boshidan kechayotgan jarayonlar milliy yuksalish sari qo'yilayotgan dadil qadamlardir.

Xatolar, uloqishlar, yo'qotishlar istiqlol baxtiga erishgan har bir millatning boshida bor. Bu jarayonni donishmand Erkin Vohidov "ulg'ayish azobi" deb atagan.

## —BESH-OLTI YILDAN BUYON BLOGERLAR QAVMI HAMMANI OG‘ZIGA QARATGAN. JURNALISTLAR PANA-PASTQAMDA G‘IMIRLAB YURISHIBDI. SIZNINGCHA, BU HOL JAMIYATDA NIMALARNI O‘ZGARTIRDI? FUQAROLIK JURNALISTIKASI (NOBOPROQ IBORA-YU, AMMO SHUNDAY ATALMOQDA) HAQIDA FIKRINGIZ QANDAY?

– Qonun tili bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqda sahifa yurituvchi borki, hammasi – bloger. El-yurtni bugun shu qavm o‘z og‘ziga qaratayotgan ekanmi, demak, aytayotgan gapining hammasi ham tuz-siz-namaksiz emas. Baraka topsin!

Goh fuqarolik, goh xalq jurnalistikasi deb atalayotgan bu yangi ijodiy yo‘nalishning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqei tobora oshmoqda.

Aslida, el-yurt dardini fidoyilik bilan dadil va asoslab aytayotgan blogerlarning kimligini surishtirib ko‘rsangiz, yana o‘sha jasur jurnalistlar, adiblar va olimlar bo‘lib chiqadi.

Yangi asrda afkor ommaning – muallif-u mushtariylarning bosma nashrlardan elektron olamga “buyuk ko‘chishi” yuz berdi. Butun dunyoga xos bunday yalpi hijrat asnosida ahli olam internet deb atalgan hududsiz qo‘rg‘onga hayrat va havas bilan boshini suqdi. Suqdi-yu, nazarimda, mubtaloga aylanib qoldi!

“Pana-pastqamda g‘imirlab yuribdi” deb ginador bo‘layotganingiz esa – qarovsizlikdan “snosga tushgan” ko‘hna qo‘nalg‘asini o‘sha qo‘rg‘onga almashtirishga yuragi dov bermay, halovatsiz qolgan jabrdiyda hamkasblarimiz.

Ba’zan o‘ylanib qolaman. Oradan 25-30 yil o‘tgach biror yosh tadqiqotchi istiqlol yillarining matbuotini tahlil qilishga jazm etsa, qanday xayollarga boradi? Jadid bobolarimiz “millat oyinasi” deb atagan gazeta-jurnallarimizning bugungi sifat-saviyasiga qanday baho beradi? “Mahliyo bo‘ldim sango” qabilidagi bitiklarimizni o‘qib, o‘shal tadqiqotchi quvonchidan chapak chalib yubormasa kerak.

## — BO‘LAJAK JURNALISTLAR SHAXSIYATIDA QANDAY FAZILAT-U KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRGANI MA’QUL?

– Bir haqiqatga ishonchim komil: jurnalistlik – qismat, bir emas, o‘n umringni bag‘ishlasang arziydigan kasb. Faqat qalamingni o‘tinga – qozon qaynatish vositasiga aylantirib qo‘ymasang bo‘lgani. Qo‘l tegdi, kosov tegdi qabilida ish qilib, samara-yu baraka, obro‘-e’tibor topgan odamni ko‘rmadim. Axborot dengizida suzishga orzumandning ko‘ksida avvalo fidoyilik va jasorat bo‘lsin. Yolg‘ondan hazar qilsin!

Bu hunarning etagini mahkam tutgan fidoyining oldida ochilmaydigan eshig-u ko‘ngilning o‘zi bo‘lmaydi. Bo‘lmagani uchun ham uni goh razvedkachiga, goh yer qa’rida ma’dan qazuvchiga, goh jinoyatchining dodini beruvchi izquvarga mengzaydilar. Men yana aytar edimki, jurnalistda donishmandning aqli, ruhoniyning qalbi, Alpomishning mardligi bo‘lsin! Insonni sevsin! Hazrat Navoiy aytadilarki, “Yerga suv sepadiganlar juda ko‘p, lekin mushki anbar sepadiganlar onda-sonda”.

Har ne bo‘landa ham, buzruklarimiz vasiyat qilganidek, “hech qachon erishgan darajam yetarli demasdan, kuch borki, hayot borki, oldinga intilib yashamog‘imiz kerak!”

**– NASRIY ASARLARINGIZ ADABIY JAMOATCHILIKNING E'TIBORINI QOZONGAN, JAHON ADABIYOTIDAN TARJIMALAR QILGANSIZ. JURNALISTIKA-YU ARBOBLIKKA SARF BO'LGAN UMRINGIZNI ADABIYOTGA BAG'ISHLASAM BO'LARKAN, DEGAN O'YLAR O'TGANMI HECH?**

– Mabodo biror o'rinda bozimning balandligi sezilgan bo'lsa, arboblik ta'masidan emas. Qalamimning g'amidan. Bandasi haddini bilib yashagani ma'qul.

Imkonim bo'lganida, boshimga yupqagina kepka, egnimga odmigina ko'ylak, yelkamga yengilgina sumka ilib, erkin qush kabi yurt kezardim. Kezardim-u yozardim. Sumkamda bitta daftarcham-u ruchkam, sevimli kitobim bo'lardi. Men kirolmagan eshik, suhbatini ololmagan odam bo'lmasdi. Tilini topardim! Shu paytgacha topganman, axir!

Ustozimiz, rahmatli Odil Yoqubov "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga rahbarlik qilgan saksoninchi yillarning avvalida boshlangan va zavq-shavqlarga to'la muxbirlik bahorim shirin tushday tez – uch yilda o'tdi-ketdi. Na yurt kezib, na miriqib yozib ulgurdim.

Xonanishinlik yo'liga kirib, muharrirlik, ya'ni rahbarlik kursisiga ertaroq o'tirdim... Rahbarlik, ayniqsa, gazeta-jurnalning rahbari bo'lish havas qiladigan ish emas. Ishonmasangiz, boshiga tushganlardan so'rang. Rahmatidan ko'ra, minnati, g'urbati ko'p, qip-qizil qora mehnat!

Biroq, nadomatga ne hojat! Balki boshimdan o'tgan shu kechmishlarim – o'rganganlarim, orttirgan tajribam o'laroq bugun badiiyatga daxldor nimalardir yozgim, tarjimalar qilgim kelayotgandir.

Шарқ юлдузи

НАСР

Қулман ОЧИЛ

*1957 йилда туғилган. Тошкент давлат университетининг (ҳозирги ЎзМУ) журналистика факультетини тамомлаган. "Жайдари фалсафа" ҳикоя ва очерклар тўплами нашр этилган.*

ҚАСД

*Қисса*

*Бул одам ўлмай қўлга тушмайди.*
"Далли" достонидан

Саломсиз калом

16

Профессор Панжи Намозов иккинчи қаватдан юрадиган лифтга етгунича ҳансираб, харсиллаб қолди. Унинг ҳаракатлари анча сусайиб, бугдойранг юзидаги ажинлари кун-бакун кўпайиб бораётган бўлса-да, баъзи тенгдошларига ўхшаб, жуда мункиллаб қолганича йўқ. Аммо етмишни коралаган одам яна олма ёки ўрик бўлиши қийин. Ҳар куни шу: бир амаллаб хонасига кириб олади-да, кечгача қоғоздан бош кўтармайди. Тушликни ҳам пастдаги ошхонадан ёрдамчиси олиб чиқади. Иш эса кўпайса кўпайиб бораётирки, асло камайишидан дарак йўқ. Қарилик гаштини суриб, уйда ётай деса, раҳбарлари кўнмайди: "Шошил-

**– MA'RIFATPARVAR DARG'ALARNING JAMIYATDAGI O'RNI QANDAY? XALQIMIZNING ULARGA MUNOSABATI XUSUSIDA MULOHAZALARINGIZNI BILMOQCHIMIZ. NIMA DEB O'YLAYSIZ, UMUMXALQNI LOQAYDLIKDAN QANDAY QUTQARISH MUMKIN?**

– Qadimdan ma'lum, mamlakatda inson qadri baland va adolat hukmron bo'lsa, jamiyatni aqidalar emas, ma'rifatli qonunlar boshqaradi. Ma'rifatning o'zi nima? So'z va a'mol birligi. Qonunga itoat va qonun oldida barchaning tengligi. Qilmish uchun jazoning muqarrarligi.

Buning aksi – odamga bepisandlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan sho'rolar zamonini ko'rdik. Yuksak g'oyalarni bayroq qilib hokimiyatni qo'lga kiritgan bir to'da lo'ttiboz va ularning izdoshlari xalqni olomonga, podaga aylantirib qo'ymaganmidi! O'sha to'da amal qilgan yovuz aqidani eslaylik: xalqni qayoqqa boshlasak, haydasak, oldimizga tushib, o'sha yoqqa yo'rtib ketaveradi...

Alhol, odamlardagi tashabbus, ma'rifat ahliga xos fikrlash so'nib, ishlar chappa-rosta bo'ldi. Fikrlaydigan odamdan jamiyat hadiksiraydigan, qo'rqadigan va hatto nafratlanadigan darajaga yetdi. Jadid bobolarimiz kabi ma'rifat darg'alar diyonatli kishilar mahv etilib, xiyonatning xizmatkorlari ayshini surdi.

Ildizlari haqsizlikdan quvvat oladigan loqaydlik epidemiyaga aylandi. Adolat barcha despotlar va diktatorlarning dushmanidir. Ko'hna tarix saboq beradiki, inson irodasining erkinligi toptalgan mamlakat kommunistlar saltanati kabi yo'qlikka yuz tutishi muqarrar.

Bugun barpo etishga kirishganimiz – Yangi O'zbekistonda insonning ilohdan bandalariga tenglik asosida in'om etilgan eng muqaddas huquqlarini ta'minlashga ustuvor vazifa deb qaralayotgani ma'rifatli jamiyat sari qo'yilgan ezgu qadamlardir.

**– KO'P YILLARDAN BUYON SIYOSIY DAVRALARGA BEGONA BO'LMAGAN SHAXS O'LAROQ SIYOSAT HAQIDAGI UMUMIY XULOSALARINGIZNI BILSAK BO'LADIMI?**

– Siyosat ham, siyosatdonlar ham o'tkinchi ekanini aqli butun odam yaxshi biladi. Ana shu o'tkinchi "kamalak" oldida yaltoqlanmasdan, turlanmasdan, tuslanmasdan, o'yinchoqqa aylanib qolmasdan aytilgan haq so'zga ega chiqish – mashaqqat. Mashaqqat ahlining joniga to'zim, ijodiga baraka bersin.

Qadimdan bir naql bor. Qulga, ozodlikka chiq, deb harqancha uqtirmang, harakatga tushmaydi. Lekin unga erk va ozodlik qanday ulug' ne'mat ekanini ko'rsatib bersangiz, oyoqqa qalqiydi.

Insonning eng yomon g'animi – nafsi. Bu dunyodagi jamiki kulfat-u ko'rgiliklarning tag-zaminiga razm solsak, hakalak otgan ana shu baloni ko'ramiz.

San'at, adabiyot va jurnalistikaning ishi bandasini nafs balosidan mudom ogohlantirib, mukarramlik sari mangu da'vat etishdan iborat.

**– BOR BO'LING, USTOZ! SHU "MANGU DA'VAT" YO'LIDA TOLMANG!**

**Sirojiddin IBROHIM gurunglashdi**

# IS IT POSSIBLE TO EARN INCOME BY SELLING PAINTINGS?

As an artist, monetizing your creative work can feel like an uphill battle. The common perception is that achieving financial success through art is nearly impossible unless you're already a household name. Moreover, it seems that many of the most lucrative artists only achieve fame and fortune posthumously. Despite these challenges, there are 7 effective strategies you can implement to earn money from your art while you're still alive. Let's explore these simple yet impactful ways to turn your passion into a profitable career.

## How to sell original artworks or prints and make money?

The first idea that springs to mind when it comes to earning money as an artist is selling your artwork. There's nothing quite like the feeling of creating something that resonates with someone so deeply that they're willing to buy it. Of course, selling original artwork takes a lot of preparation, from listing and promoting to shipping and more. However, one of the most common challenges for artists who are starting to sell their own work is determining how much to charge.

One approach to pricing your artwork is to use a formula. By considering factors such as your level of experience, demand from your target audience, and what other artists in your community are charging, you can get a rough estimate of the cost. From there, you can tailor and adjust the price until it feels fair to you and your customers.

When it comes to selling your artwork, it's important to conduct research to determine how much other artists are charging for similar pieces. By underpricing your work, you risk diminishing the perceived value of your craft and hurting your long-term career prospects. On the other hand, setting prices that are too high can drive away potential buyers. As a general rule, aim to make a profit after considering all costs, including materials and your time.

If you're struggling to make sales, it might be tempting to adjust your artistic style to cater to current commercial trends. However, it's important to stay true to your artistic vision and not sacrifice your creative integrity for the sake of making money. Rather than altering your work to fit a certain market, focus on promoting and marketing your art to attract the right audience.

## Sell art prints

Another way to make money as an artist without parting with your original artwork is by selling prints. This option allows you to produce high-quality reproductions of your work that you can sell to customers. Some artists choose to sell a combination of original pieces and prints to increase their revenue.

Creating art prints can be done at home with the right equipment, or you can use a printing service to handle production and shipping for you. The print-on-demand business model is a popular option for artists who don't want to invest in expensive equipment. These services allow customers to purchase your designs through an external company, which then takes care of the printing and shipping process. In addition to art prints, many print-on-demand companies also offer to print your designs on various products such as tote bags, mugs, and t-shirts.

## Create an Online Shop

Having an online shop is a great way to showcase your art and make money. You can sell original artwork, prints, and other products with your art on them. It's important to have a professional-looking website that is easy to navigate and use. Make sure to promote your shop on social media and other online platforms to increase your visibility.

## Sell at an Art Fair

**(Art Fair – a space in which art objects meet an audience)**

Selling your art in person at an art fair is a great way to engage with potential customers and build relationships with fellow artists and industry people. However, it does require more planning and research, and can be more expensive when considering fees, materials, and transportation. Nonetheless, it's a good experience to have as an artist, as it exposes your art to a different market.

If you're an up-and-coming artist looking to fully immerse yourself in a bustling sales environment, arts and craft fairs are the perfect starting point. These fairs offer an invaluable in-person shopping experience that online platforms just can't replicate, especially when it comes to art. Plus, being physically present at your stall allows you to interact with potential buyers and forge meaningful connections. But the networking opportunities don't end there – make sure to use this chance to connect with other artists and industry professionals.

Of course, participating in an art fair requires careful planning and research ahead of time. You'll need to ensure that you have all the necessary materials and equipment for your physical storefront, and keep in mind that costs can add up quickly with fees, transportation, and other expenses. However, the benefits of branching out into in-person selling are well worth the effort. Even if you don't make a ton of sales, having your art seen in person can make a big impact and hopefully leave a lasting impression with potential customers who can always purchase from you later on.

## Make use of Instagram's shop tool

Instagram's shop tool allows artists to directly advertise their work on the platform, making it easier for shoppers to find and purchase their art. Even if you don't sell directly on social media, using Instagram to build a community and promote your art can be very effective.

Spread the word and get noticed! As an artist, it's important to actively promote your work to increase visibility and attract potential buyers. Thanks to social media, particularly Instagram, artists can now reach a wider audience and even build their entire careers by showcasing their creations online. Instagram's recent shift towards e-commerce has made it easier for artists to sell their work directly on the app and build a large following. Take the example of a recently graduated artist who was able to attract over 48K followers and sell their art on Instagram.

Social media platforms now offer built-in shop features that make it easier for artists to advertise their work and for shoppers to find their desired pieces. Even if you choose not to sell directly on social media, it's still important to build a community and engage with your audience on these platforms. By consistently posting your work, you're effectively promoting your art and reaching potential buyers during their daily social media browsing.

## License your artwork

Licensing your artwork is a form of passive income that requires work at the beginning, but doesn't need much monitoring or maintenance. It involves allowing others to use your art for a fee, such as on products or in advertising. This is a great option for artists who don't have as much time to devote to active selling.

## In conclusion

Earning money as an artist is not a quick or easy process, and requires dedication and hard work. Unlike other careers, it can take time to see any financial gain from your art practice. However, there are various methods you can use to generate income as an artist, and combining them can create a reliable and sustainable income stream.

It's important to note that these methods are not mutually exclusive. For instance, you can sell your work at art fairs and online marketplaces like Jose Art Gallery or Instagram. You could also offer commissions while making passive income by licensing your artwork. Diversifying your income streams can be a smart strategy for making money as an artist, especially as you establish yourself and learn what works and what doesn't.

To succeed in making money as an artist, be sure to stay open to new opportunities and explore different income streams. It may take time and effort, but with dedication, hard work, and a willingness to learn, you can turn your passion into a profitable career. Also, make a research about what kind of art is trending now.

**Sirojiddin NAJMIDDINOV**
**Student of Uzbekistan State World Languages University**

# "XABARCHI"

## — TALABA YARATGAN TARMOQ

Bugungi hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Messengerlar, turli platformalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Butun dunyo bo'ylab millionlab insonlar do'stlari, oila a'zolari va hamkasblari bilan muloqot uchun Telegram, Instagram, Facebook, Tik Tok, Twitter kabi platformalardan foydalanadilar. Ushbu mashhur startaplardan ilhomlanib, o'z ijtimoiy tarmog'ini yaratgan iqtidorli talaba yoshlardan biri Andijon mashinasozlik instituti talabasi Temurmalik Ma'murovdir. Yoshligidan oldiga ulkan maqsadlarni qo'ygan ushbu yosh qahramonimiz Farg'ona viloyatida tug'ilgan.

Temurmalik dasturchilik faoliyati davomida ko'plab yutuqlar va grantlarni qo'lga kiritdi. Toshkent shahrida o'tkazilgan InnoWeek texnologik rivojlanish marafonida 2-o'rin, "Yosh ixtirochilar" ko'rik tanlovida faxrli 1-o'rin, "Bo'lajak olim" tanlovida 2-o'rin, "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalar tanlovida 60 mln so'm mukofotni qo'lga kiritgani shular jumlasidandir. Yosh dasturchi Sankt-Peterburg politexnika universitetida 26-29-aprel kuni bo'lib o'tgan Xakaton ko'rgazmasida ham ishtirok etdi.

– Dasturchilik sohasiga maktabda o'qib yurgan kezlarimdan mehrim tushgan. Yoshligimda elektrotexnikaga qiziqish juda katta bo'lgan. Uydagi elektron jihozlar tuzilishini o'rganish uchun ularni ochib ko'rardim. Uyimizdagi buzilgan jihozlarni o'zim tuzatishga harakat qilardim. 5-sinfga o'tganimizdan so'ng bizga informatika darsi ham o'tila boshladi. Shunda birinchi marta kopmyuterdan foydalanib ko'rganman. Uning monitoridagi amaliyotar, buyruqlarni bajarish jarayoni meni judayam hayron qoldirgan. Kelajakda men ham ixtirolar qilaman degan maqsad uyg'ongan. Shu kundan boshlab o'zim mustaqil hamda maktabdagi o'qituvchilarimdan dasturchilikni o'rganishni boshladim. Ushbu qiziqishlarim tufayli yurtimizdagi axborot texnologiyalari o'qitiladigan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga topshirdim va Andijon mashinasozlik institutining Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishiga o'qishga kirdim. Institutda soha bo'yicha bilimlarimni mustahkamlab, maqsadlarim yo'lida harakat qila boshladim. Birinchi kursligimdayoq institutda "Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi"da ishlay boshladim. Ish davomida institut uchun ko'plab ilovalar ishlab chiqdik. Masalan, o'sha paytda masofaviy o'qish bo'lgani uchun moodle platformasining institut uchun ilovasini, o'zida ko'plab darslarni jamlagan E-learn platformasi, Hemis platformasining institut uchun ilovasi, Andijon mashinasozlik instituti ilovalarini ishlab chiqdim. Bugungi kunda Andijon shahrida joylashgan IT parkda ish faoliyatimni olib bormoqdaman.

Hozirda o'zim tengqur yoshlarning ko'p vaqti turli ijtimoiy tarmoqlarda behudaga ketayotgani meni tashvishga soladi. Shunda menga yangi loyiha yaratish istagi paydo bo'ldi. Ijtimoiy tarmoq ham vaqtni mazmunli o'tkazsin, ham insonlarga turli bilimlar olishlariga yordam bersin. O'sha kundan boshlab dunyoga mashhur tarmoqlarning yutuq va kamchiliklarini, tuzilishini o'rganishni boshladim. Yetarli ma'lumotlarni to'plab bo'lganimdan so'ng o'zimning ijtimoiy tarmog'imni yaratishga kirishdim va harakatlarimiz natijasida "Xabarchi" deb nomlangan ilovani yaratishga muvaffaq bo'ldim. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun esa ilovaga kutubxona bo'limini qo'shdim. Odamlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi grant mablag'laridan kitob o'qish davomida pul ham ishlab olish imkoniyatini yaratdik. Shuningdek, hozirda yangi funksiya ustida ish olib boryapmiz, tarmog'imiz orqali pdf shaklidagi kitoblarni yuborib, uni audio holatda tinglash imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Dasturni yaratish davomida foydalanuvchi ma'lumotlarining xavfsizligiga alohida e'tibor qaratdik. Bunda ko'pgina zamonaviy messenjerlar qatori bizda ham, foydalanuvchilarning barcha ma'lumot almashishlari shifrlangan holda amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar "Xabarchi"da o'zlarini xavfsiz hisoblashlari mumkin. Hozirda jamoamiz hamda ustozlarimiz bilan ilovani rivojlantirish, yana yangi imkoniyatlar qo'shish ustida ishlayapmiz.

Oq yuvib-oq taragan, hech kimdan kam bo'lmay unib-o'sishim, bilim olishim, yuqori natijalarga erishishim uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan ota-onamga, har jabhada qo'llab-quvvatlayotgan universitet rahbariyatiga chuqur minnatdorlik bildiraman. Ularning ko'magiga tayangan holda maqsadlarimga erishishimga albatta ishonaman.

**Sherzod ABDURAHIMOV**
**O'zJOKU talabasi**

*Assalomu alaykum, vatandoshlarim! Men Robiyabonu Almanova, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida tug'ilib o'sganman. Hozirda Germaniya Federativ Respublikasining Bavariya federal viloyatida joylashgan Weihenstephan-Triesdorf universitetida international agrarmanagement yo'nalishi magistratura bosqichi bitiruvchisiman va shu bilan bir vaqtda talaba sifatida o'z ish faoliyatimni Quyi Saksoniya federal viloyatining Statistika boshqarmasida olib bormoqdaman.*

# ZUVALAMNI PISHIRAYOTGAN TAJRIBALAR

# Germaniyaga boshlagan sabab

Ko'plab talabalar qatori menda ham bakalavr bosqichida o'qiyotganimda chet elda magistratura bosqichida o'qish orzusi bor edi. Shu sababli nemis tili kurslarida o'qidim. Rostini aytsam, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish institutiga bakalavr bosqichidan so'ng magistratura bosqichiga birinchi o'rinda grant asosida qabul qilingan edim, lekin magistratura va bakalavr bosqichlari o'rtasidagi farqni ko'rmadim. U "magistrlik" darajasi bilan nimanidir o'zgartirishimga ko'zim yetmasdi. Keyin o'ylab ko'rib, qishloq xo'jaligi sohasida amaliyot o'tab, magistraturani Germaniyada davom ettirishga qaror qildim va oxirgi 4-semestrda akademik tanaffus olib amaliyotga jo'nab ketdim.

Aynan Germaniyani va nemis tilini tanlaganimning sababi esa bu mamlakatning umumiy va xususan agrar sohada rivojlangan katta tajribaga ega bo'lgan mamlakatlardan biri ekanligida. Qolaversa, Germaniya jahonning yirik iqtisodiy markazlaridan biri va xorijiy talabalarga qulay sharoit yarata olgan sanoqli davlatlardan. Bu yerda o'qib tushunib yetdimki, qarorim to'g'ri bo'lgan ekan, vaqtim bekorga ketmadi. Germaniyada oliy ta'lim tizimi asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi va shunga yarasha talablar ham ancha baland, statistika bo'yicha o'qishga qabul qilingan talabalarning faqat 30 foizigina o'z vaqtida bitira olisharkan va yana 28 foiz talaba turli sabablarga ko'ra o'qishni tashlab ketishar ekan.

Yuqorida aytganimdek, Germaniya oliy ta'lim tizimi bizdagiga qaraganda juda farqli. Semestr vaqti bizdagidan farq qiladi, o'qish davomiyligida kurslar emas, semestrlar muhim, kimdir 4-semestrda o'qishni bitirsa, boshqasi 7 semestr o'qishi mumkin, har kimning o'zlashtirish darajasi va hayotiy rejalariga qarab farqli albatta. Umumiy fanlarni o'zingiz tanlaysiz, yo'nalishingizning qaysi asosiy nuqtalarini o'qishni o'zingiz hal qilasiz. Menga ko'proq tajriba to'plash, rivojlangan mamlakat tajribalari bilan tanishish, tizimni o'rganish qiziq bo'lgani uchun talaba bo'lishimga qaramay, soham bo'yicha ishlashga va bilimlarimni ikki taraflama oshirishga harakat qilyapman.

# Ko'ngilsiz voqea

Germaniyaga kelganimda hayotimda katta burilish yasagan voqea – velosipeddan yiqilib, o'ng qo'limning juda murakkab singani bo'lgan. Biz agrar sohada o'qishdan oldin amaliyot o'tashimiz kerak edi, mening amaliyotim, sabzavotchilik fermasida bo'lgan, 6 oylik amaliyot davomida shu ferma egalarining uylarida ijarada turganman. Bu nemis oilasi men uchun juda qadrli bo'lib qolishgan. Qo'lim singach, 6 oydan uzoq muddat umrim kasalxonalarda reablitatsiyalarda o'tdi, chunki qo'limni ilk bor ko'rgan nemis shifokori xato tashxis qo'ygan ekan va bu qo'limning suyaklari bitay deb qolgandagina og'riqlar hech o'tib ketmagach aniqlandi. Afsuski, juda kech bo'lgan ekan, qo'limni tuzatish uchun uni qayta sindirib, oldin sinib ezilgan suyaklar o'rniga tos suyagimdan bir bo'lak suyak kesib olib metall orqali qo'limga ulab qo'yishgan. Qo'lim faqatgina 45-55 foizgacha ishlab ketishi mumkinligini tahmin qilishgandi. Tasavvur qilish ham qiyin, o'sha vaqtda judayam qattiq tushkunlikka tushib qolgandim. Qo'lim singan, o'qish o'rniga kasalxonama-kasalxona yuribman, amaliyot tugab, o'qish uchun imtihon vaqtlari kelgan, menda esa o'qishga na vaqt, na sharoit bor, og'riqlar tufayli xohish ham yo'q edi.

Kamiga uydagilar xavotir olishmasin deb hech kimga aytmay yashirib yurgandim. Endi o'qish ham yo'q, sayohat ham yo'q, qaytib ketamanmi uyga, deb yig'laganim kechagiday esimda. O'shanda ferma bosh-lig'i hazilkash Janob Schwarzbeck menga, "Xavotirga tushma, bu taqdir, pozitiv bo'l, yaxshi narsalar haqida o'yla, sen buni udda-laysan" deb dalda bergandi. Allohga behisob shukrki, o'sha vaqtda atrofimdagi do'stlarim va men birga yashagan nemis oilasining ber-gan daldalari sabab bo'lib stresslarni yengib o'tdim. Qo'lim singan bo'lishiga qaramay, imtihonlarni og'zaki va elektron test shak-lida topshirishga ruxsat berildi va men ishonchni oqlab, imtihonlardan muvaffaqi-yatli o'tdim. Harakatda barakat deganlari-dek qo'lim ham vrachlar tahmin qilganidek 45 foiz emas, 85 foiz ishlab ketdi. Ana shun-day qiyin vaqtlarda, musofirchilikda inson haqiqatda sinalar ekan, men bu voqealardan ko'p tajribalar oldim.

## Nemis xalqining hayotiy tutumlari

Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati bor, deb o'ylayman va bir inson xarak-teri, insoniy jihatlarini uning millati belgilaydi, degan fikrda emasman. Balki shaxs shakllanishida jamiyatning ta'siri bordir, ammo har bir inson o'ziga xos. Shuning uchun, bu savolga faqatgina shunday deb javob bera olaman: inson hamma joyda inson, xuddi "o'zbeklar" ichida ham mehmonsevar va ochiqko'ngil, ham sovuq va boshqalarga yopiq insonlar bo'lgani kabi – "nemislar" orasida ham turli xarakterli insonlar topiladi. Germaniyaliklarning madaniyatiga kelsak, albatta O'zbekiston-dan farq qiladigan taraflari bor, hatto Germaniyaning ichida juda ko'plab madani-yatlar to'plangan. Misol uchun, bu yerda ayollar va erkaklarning teng huquqliligiga juda katta ahamiyat beriladi. Turli tashkilot va fondlarda ko'ngilli ishlaydigan va qariyalarga, jismoniy imkoniyati cheklan-gan insonlarga yordam beradigan ko'ngillilar, ayniqsa, yoshlar juda ko'p. Bolalar tarbiyasi-da ham ota-onalar farzandlariga kich-kinaligidan mustaqil bo'lishni, qo'rquv va boshqa tuyg'ularini boshqarishni, birinchi o'rinda farzandlari-ning o'zlarini hurmat qilishi va yaxshi ko'ri-shi kerakligini, ularni hech kim nazorat qila olmasligini va ular hech kimga tegishli emasli-gini o'rgatadilar.

Germaniya xalqining hayotga bo'lgan qiziqishi yuqori. Ertangi kun uchun qayg'urishadi va har bir kunidan unumli foydalanishga intilishadi. Aynan shu xislatlarini o'zimiznikilarga o'xshataman. Ammo germaniyaliklar vaqtni haddan ortiq qadrlashganliklari bois, yaqinlari bilan kam muloqotda bo'lishadi. Bu bizning xalqimizga o'xshamaydigan jihatlaridan. Ular hafta davomida imkon qadar rejalashtirilgan ishlarini tugatishga harakat qiladi. E'tiborlisi, germaniyaliklar aytilgan vaqtda belgilangan joyga kechikmasdan kelishga odatlanishgan.

Bundan tashqari, yevropa xalqlari ichida nemislar eng ko'p sayohat qiladigan, har ta'tilda dengizda yoki boshqa mamlakatda dam olishni yoqtiradigan xalq ekanligiga guvoh bo'ldim. Ular uchun ta'tilni uyda o'tkazish juda noodatiy. Menga eng yoqqan xislatlaridan biri esa ularning hamma narsani oldindan reja qilib, shu rejalariga har qanday sharoitda ham amal qilishga urunishlaridir. Hamma narsa doim ham rejadagidek bo'lmasligi mumkin, biz musulmonlar uchun albatta shu vaqtda bu ish bo'ladi deyish ham juda yot tushuncha, lekin vaqtni rejalash bu aynan shu ish shu vaqtda bo'ladi deb oldindan aytish emas, balki o'z vaqtimizni behuda o'tib ketmasligi uchun ham kerak deb o'ylayman.

## Mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash

Germaniyada, umuman Yevropada yoshlar hayotiy qarorlarni mustaqil o'zlari qabul qilganliklari uchun ularga bolalikdan o'ylab o'ziga qiziq bo'lgan sohani tanlash, kelajagini tasavvur qila olgan soha bo'yicha ketish juda muhim. Pul bilan munosabat, o'zining va o'zgalarning vaqtini qadrlash kabi tushunchalarning bolalikdan rivojlantirilgani ularning katta yutuqlari deb o'ylayman. Albatta hamma joyda bo'lgani kabi ma'suliyatsizlari ham uchrab turadi, lekin men tanigan nemis do'stlarim menda juda yaxshi taassurot qoldirishgan. Ularga qarab menda o'qishga yanada ko'proq ishtiyoq paydo bo'lardi. Bizda esa yoshlar ota-onalariga juda suyanib qolishgan, hatto kasb va hayot yo'lini tanlashda ham ularning qarashlari bilan ish qilishlari – keyinchalik kasblarini sevmasliklariga va o'qigan sohalarida ishlamasliklariga olib keladi.

O'zgarishlarni amalga oshirishning yagona usuli bu mamlakatni yanada kengroq ochish va o'qimishli yoshlarni mamlakatga jalb qilish, deb hisoblayman. Bundan tashqari, yurtimizda hali ham ijodkorlik va innovatsion fikrlashning aniq bir konsepsiyasi mavjud emas. Shuningdek, yoshlarni tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun e'tiborni kuchaytirish zarur. Chunki taraqqiyot inson kapitaliga to'liq bog'liqdir. Mening fikrimcha, ta'limga uzoq muddatli sarmoya ertangi kun rahbarlarini tarbiyalashga yaxlit muhit yaratish uchun rag'batlantiruvchi va asosiy omil bo'ladi. To'g'ri, kamchilik hamma yerda ham bor. Aytishim kerakki, oxirgi yillarda o'zbek yoshlarining erishayotgan yutuqlari va o'qishga bo'lgan munosabatining qisman bo'lsa ham o'zgargani juda quvonarli.

# Talabalarga tepadan qaralmaydi

Germaniyaning qaysi tajribasini O'zbekistonga qo'llasa bo'ladi? Menimcha, hammasini! Bu yerda o'qishga kirish oson, o'qish jarayoni juda murakkab va natijada siz haqiqiy mutaxassis bo'lib chiqasiz. Bu yerda talabalarga ishonadilar, talaba bu ishonchni yo'qotmaslikka harakat qiladi. Bu yerda korrupsiya, tanish-bilishchilik yoki "kimdirning qizi, jiyani" degan tushunchaning o'zi yo'q, tasavvurga sig'maydi! Talaba o'qish jarayonida qaysi fanlar unga kerakligini o'zi mustaqil tanlaydi, "tayyor dars jadvali" yo'q. Germaniya universitetlarida o'qish haftasiga 2-3 kun, bu tanlagan modulingizga qarab, kuniga 2-3 soat dars degani. O'qituvchi faqat mavzuning asosiy jihatlari bilan tanishtirib, mustaqil o'qish uchun manbalarni beradi. Qolgani – talabaning vazifasi. Universitetda o'qish jarayonida juda ko'p konferensiya va boshqa mamlakatlarda tahsil olish uchun grantlar mavjud. Ishga joylashgandan so'ng ham universitet siz bilan aloqasini uzmaydi, bitiruvchilar bilan uchrashuvlar tashkil qiladi. Bu talabalar uchun juda katta ruhlantirish. Bu yerda muhim omillardan yana biri, ko'plab professor va dotsentlarning sizga "hali talaba" bo'lganingiz uchun tepadan qaramasligi, aksincha, sizni kelajakdagi hamkasblari sifatida hurmat qilishlari va o'zlariga teng ko'rishlari, sizga fikrlash va ijod qilish uchun erkinlik berishlaridir. Talabalar uchun keng va yorug' kutubxonalar, bepul internet, sayohat qilishi uchun chegirmalar, doimo rag'batlantirish tizimi – bularning barchasini O'zbekistonga qo'llasa bo'ladi!

Germaniyada qishloq xo'jaligi juda ahamiyatli soha va shunga ko'ra qishloq xo'jaligining har bir sohasida alohida menejment yo'nalishlari bor. Chunki har bir sohani reja asosida yuritish – rivojlanishning asosiy omillaridan biri. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotning 25 foizi qishloq xo'jaligi sohasi ulushiga to'g'ri keladi va bu aholining 30 foizidan oshiq qismini ish bilan ta'minlab kelmoqda. Chekka hududlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi menejmenti aslida O'zbekistonda ham juda kerakli va foydali soha.

## Tajribalar – xatolar mahsuli

O‘ylashimcha, muvaffaqiyatli odamlarning eski intervyularini tomosha qilish ancha qiziq va foydaliroq. Misol uchun, agar siz Apple asoschilaridan biri Stiv Jobs intervyularini ko‘rsangiz, 80-90-yillarda u o‘z davri uchun juda ilg‘or bo‘lgan narsalar haqida gapirganini sezasiz. U vaqt mashinasini yaratib, 2020-yildan ortga qaytgandek tuyuladi. Uning tafakkuri zamondoshlaridan juda farq qilgan. Bu hatto texnologiya haqida emas, balki biznes yuritish yondashuvi va boshqaruv modeli haqida. Bu sizni kamroq narsaga rozi bo‘lmaslikka ilhomlantiradi. Hech kim buni qilmasa ham, yangi va yaxshiroq narsaga intiling. Gap shundaki, afsonalarni tomosha qilish, ulardan ibrat olish aksariyat kitob yoki filmlardan ko‘ra qimmatliroq. Inson qanchalik ko‘p xato qilsa, shunchalik tajribali bo‘ladi. Aqlli odamlar boshqalarning xatolaridan o‘rganadilar, ularni o‘zlari takrorlamaslikka harakat qiladilar.

## Hayot kasbiy faoliyatdan iborat emas

Germaniyada insonning o‘zini qulay his qilishi juda muhim, ish va xizmat ko‘rsatish – insonlar bir-birlariga yordam berishlari, og‘irlarini yengil qilishlari uchun o‘ylab topilgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan jarayon deb bilaman. Bir insonning hayoti faqat uning kasbiy faoliyati bilan to‘lib qolib, uni bezitishi kerak emas, bu har qanday soha rivojinishini orqaga tortadi. Xoh o‘qituvchi bo‘ling, xoh shifokor yoki bank xodimi deysizmi, ularning ishi sog‘ligiga ziyon qilmaydigan soatlarda tugashi kerak va bu jahon standarti bo‘yicha haftasiga o‘rtacha 40 soat degani. Bizda ham insonlar o‘zlarining va boshqalarning vaqtlarini qadrlashlarini juda xohlardim. Bundan tashqari, har xil ish, o‘qish formalari (o‘ta muhim kasb egalaridan tashqari) soha rivojiga hech qanday foyda keltirmasligini tushunsak juda yaxshi bo‘lar edi.

Gaplarim so‘nggida tanqidiy fikrlarim uchun jurnalxonlardan uzr so‘rayman. Tanqid agar uni to‘g‘ri qabul qilinsa, rivojlanishga sabab bo‘ladi. Men quyoshli yurtimni juda ham yaxshi ko‘raman va kelajakda olayotgan bilimlarim bilan dunyoning istalgan nuqtasidan turib ham O‘zbekistonga foydam tegishini xohlayman. Umid qilamanki kelgusida yurtimizda o‘zgarishlar faqat ijobiy tarafga bo‘ladi.

**Robiyabonu ALMANOVA**
(Germaniyadan “O‘zbekiston talabasi” uchun maxsus)

# TO'LMAGAN KO'NGILNI HASAD TO'LDIRAR...

Bilasiz, odam yer yuzida yashashni boshlagach sodir etgan ilk gunohi hasaddan bo'ldi. Qobil ukasi Hobilni aynan shu illat sabab o'ldirdi. Bugungi kunda ham hasad illati bilan kasallanganlar oramizda kam emas. Hasad o'zi nima? Uni qanday susaytirsa bo'ladi? Keling, shu haqda gaplashamiz.

# BMW x7 mashinasi bor eski sinfdoshingiz Ilon Maskdan ko‘ra ko‘proq hasad nishoniga aylanadi

## Azaliy illat

Dunyo olimlarining ta’kidlashicha, hasad evolyutsiya tufayli paydo bo‘lgan. Bu tuyg‘u insonning zaifligini ko‘rsatishi va vaziyatni tuzatishga undashi, u tufayli omon qolish imkoniyatini oshirishi kerak edi. Hasad ibtidoiy odamlarni harakatga undar edi: ular egalik qilmoqchi bo‘lgan narsalarini zo‘rlik bilan olardilar, ular uchun yuqori darajaga erishishga harakat qilardilar. Bunday intilishlar omon qolishga va nasl qoldirishga yordam berar edi. Oradan ming yillar o‘tdi. Jamiyatlar o‘zgardi. Lekin hasad yo‘qolmadi. Olimlar bu tuyg‘u aslida nima ekanligi haqida turli nazariyalarni ilgari suradilar. Ba’zilar hasadni tajovuzkor xatti-harakatlarni qo‘zg‘atuvchi salbiy tuyg‘u deb bilishadi. Boshqalar esa insonning o‘z kamchiliklariga munosabatini ko‘rsatadigan tuyg‘u sifatida qaraydi.

## Havas va hasad

Britaniyalik olimlar esa hasadning ham ikki turi bor deb hisolaydi. Ya’ni oq va qora hasad. Biz buni havas deymiz. Havas sizni hayratlantiradi va odamni ruhlantirishi mumkin. Hasad esa boshqalarga nafratni qo‘zg‘atadi va odam o‘zini baxtsizdek his qiladi. Hasad asosan atrofimizda bizga yaqin bo‘lgan insonlarga nisbatan uyg‘onadi. Misol uchun qo‘shningiz yangi mashina sotib olsa, darrov hasad sizni o‘rab oladi. Hozirgi kunda hasad ijtimoiy tarmoqlar orqali ham paydo bo‘lishi mumkin. Misol uchun, siz instagramda o‘tiribsiz. Tasodifan qaysidir olimpiya chempioniga Tahoe berilgani haqidagi videoni ko‘rib qoldingiz. U sportchining yoshi siz bilan teng. Shu payt sizda ko‘pincha hasad uyg‘onadi. O‘zingizni baxtsiz his qilasiz. Undan ham yomonini aytaymi? Tanishlarning yutuqlari, noma’lum insonlarga qaraganda bizni ko‘proq hayajonga soladi. Biz o‘zimizni juda muvaffaqiyatli odamlar bilan kamroq taqqoslaymiz, chunki biz ular bilan teng iste’dod yoki imkoniyatlarga ega emasmiz deb hisoblaymiz. BMW x7 mashinasi bor eski sinfdoshingiz Ilon Maskdan ko‘ra ko‘proq hasad nishoniga aylanadi.

Buyuk Britaniya, Germaniya va Avstriya olimlari sakkiz yil davomida 18 000 avstraliyaliklar to‘ldirgan anketalarni tahlil qilib ko‘rishganda, hasad odamlarni o‘zgartirishga undaydigan, psixologik yuksalishga olib keladigan biron bir dalil topmaganlar. Ammo, bu tuyg‘u tomonidan yaratiladigan juda ko‘p salbiy ta’sirlar aniqlangan.

Hasadgo‘y odam o‘zi hasad qilgan odamning g‘iybatini qiladi, yolg‘on guvohlik beradi, chaqimchilik qiladi. Hasad odamni janjal qilishga, qo‘l ko‘tarishga, hattoki qotil darajasiga eltadi. Mana shu yomon illatlar: yolg‘on, chaqimchilik, bo‘hton – hammasining tagida hasad bo‘ladi.

## Bir kam dunyo

Hasadni kuchaytiruvchi narsa bu – diqqat. Biz o'zimiz xohlagan, ammo yetishmayotgan fazilatlarga diqqat bilan e'tibor qaratamiz. Misol uchun siz bir teleboshlovchi yoki san'atkorning shon-shuhratiga va boyligiga hasad qilishingiz mumkin va bu fazilatlar hayotingizni qanchalik oson va qiziqarli qilishini tasavvur qilishingiz mumkin. Ammo biroz chuqurroq o'ylab ko'ring. O'sha san'atkorning hayoti shunchalik ajoyib ekaniga ishonasizmi? Uning puli va shon-shuhrati baxtli va xotirjam yashashiga sabab bo'ladimi? Ehtimol, yo'q. Balki aksinchadir?

Psixologlar 2017-yilda bir tadqiqot o'tkazdilar. Tadqiqotchilar bir guruh odamlardan o'zlari juda yaxshi hayot kechirayapti deb hisoblagan mashhur insonlar, kumirlari haqida o'ylashni so'rashdi. Ularning faqat omadli tomonlariga e'tibor qaratishi ishtirokchilarning o'z hayoti bilan og'riqli qarama-qarshilikka olib kelishini va shu tariqa hasadni keltirib chiqarishini aniqladilar. Ammo qatnashchilarga bu odamlar ham boshdan kechirgan har kungi muammolar, to'siqlar haqida o'ylash buyurilganida, hasad pasayib ketdi.

## Hasadning turlari

Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlarning hasad qiladigan narsalari yoshga qarab o'zgaradi. Yoshlar ta'lim va ijtimoiy muvaffaqiyatga, chiroyli ko'rinishga va boylikka ega bo'lishga, keksa odamlarga qaraganda ko'proq hasad qilishlari mumkin. Keksa odamlar odatda bu narsalarga yelka qisib qo'yishadi. Lekin ular ham odatda puldor odamlarga hasad qilishadi. Erkaklar va ayollar har xil fazilatlarga hasad qilishadi. Tadqiqotga ko'ra, erkaklar ijtimoiy mavqega va obro'ga havas qiladilar. Ayollar esa asosan jismoniy jozibadorlikka e'tibor qaratadi. Ikki jins uchun ham hasadning ikkinchi eng katta manbai romantik sheriklarni jalb qilishdagi muvaffaqiyat hisoblanadi.

Agar biz shunchaki, bugundan boshlab hech kimga hasad qilmayman, deb o'zimizga va'da berib, hasadni hayotimizdan yo'q qila olsak edi... Ammo hasad tabiiydir va undan qutulish, oson emas. XV asrda italiyalik siyosatchi va bankir Kosimo de' Medici hasadni tabiatda paydo bo'ladigan yovvoyi o'tga o'xshatadi. Uni yo'q qilishga urinish emas, (bu befoyda bo'ladi) aksincha, uni sug'ormaslikning o'zi kifoya.

**Hatto olimlar "Facebook hasadi" atamasini, ijtimoiy tarmoqlar orqali yaraladigan halokatli tuyg'uni o'rganishdi**

# Ro'yodan chekining

Hasad hissini sezish uchun sizdan muvaffaqiyatliroq bo'lgan inson bilan oddiy suhbat qurishingiz yetarli bo'ladi.

Agar turli boy, muvaffaqiyatli va baxtli hayot kechirayotgan notanish insonlar hamisha kuzatib borilsa, hasad portlaydi, ya'ni maksimum darajaga chiqadi. Sezganingizdek ijtimoiy tarmoqlar haqida gapiryapman. Hatto olimlar "Facebook hasadi" atamasini, ijtimoiy tarmoqlar orqali yaraladigan halokatli tuyg'uni o'rganishdi va tajribalarda shuni ko'rishdiki, haqiqatan ham Facebookdan faol foydalanish (nafaqat Facebook, instagram, telegram, tiktok ham) hasadning kuchayishi tufayli farovonlikni sezilarli darajada pasaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlar hasadni kuchaytiradi, chunki u uchta narsani bajaradi: Bu sizga sizdan ko'ra baxtliroq odamlarning hayotini ko'rsatadi. Sizga real hayotda tenglasholmagan kishilaringiz bilan virtual jamiyatda deyarli bir xil maqom beradi va ular bilan o'zingizni qiyoslashga majbur qiladi. Mashhurlar va ta'sir o'tkazuvchilarning postlari hasadning ayniqsa kuchli va keraksiz manbaidir. Yechim ijtimoiy tarmoqlardan voz kechish emas. Yechim – siz xohlagan natijaga erishgan, ammo siz tanimagan odamlarni kuzatishni to'xtatish. Haqiqiy do'stlar bilan aloqada bo'ling, qiziqarli va kuchli narsalarni o'rganish va ehtimol biroz kulish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalaning.

**Sirojiddin SHUHRAT o'g'li**
**talaba**

# TO'RT YILLIK QIYOFA

## TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI YANGIYER FILIALI FAOLIYATIGA BAG'ISHLANADI

## Filial haqida

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 573-sonli qarori bilan tashkil etilgan. Toshkent-Zomin transport yo'nalishidagi sanoatlashgan Yangiyer shahri markazining aholi yashash qismida joylashgan. Hududi 12 gektardan iborat. Ushbu filial tashkil etilgan yili 1 ta fakultet hamda 2 ta kafedra bilan ish boshlagan bo'lib, talabalarning umumiy soni 203 nafarni tashkil etgan. Keyingi davrdagi o'zgarishlar natijasida kafedralar soni 4 taga yetkazilgan: "Kimyoviy texnologiyalar", "Avtomatika va texnologik jarayonlar", "Oziq-ovqat texnologiyalari", "Umumiy fanlar". Ushbu OTMda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni dastlab 4 ta bo'lgan, hozirgi kunda esa 9 taga yetdi. Bular:

1. Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
2. Kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar)

3.Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha)

4.Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)

5.Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

6.Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi

7.Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)

8.Kimyoviy texnologiya (Qurilish materiallari)

9.Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish

Bugun ushbu yo'nalishlarda umumiy hisobda 2650 nafarga yaqin yoshlarning bilim olishlari ta'minlangan bo'lib, shundan 1400 nafardan ortig'i ta'limning sirtqi shaklida tahsil olishmoqda.

Filialning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida joriy yilgi o'quv yili uchun 2 ta magistratura mutaxassisligiga qabul tashkil etilmoqda.

Filialda professor-o'qituvchilari soni 123 nafar bo'lib, ulardan 36 nafari ilmiy darajali professor-o'qituvchilardir. Shundan, 11 nafari fan doktori hamda professorlar, 15 nafari fan nomzodi, dotsentlar va 10 nafari fanlardan PhD ilmiy darajasiga ega xodimlar.

Filialning ilmiy salohiyat ko'rsatkichi 29,2 foizni tashkil etadi.

## Imkoniyatlar va texnik baza

Filialda o'quv jarayonini davlat ta'lim standarti talablari asosida olib borish maqsadida 8 ta o'quv-tajriba laboratoriyasi (noorganik kimyo, analitik kimyo, organik kimyo, oziq-ovqat xavfsizligi, fizika, don va don mahsulotlari, avtomatika, texnologik jarayonlar, dasturiy ta'minot) tashkil etilgan.

Talabalarning o'qishlarini an'anaviy usul bilan birga Vebinar shaklda tashkil etish amaliyoti shakllantirilgan bo'lib, ZOOM konferens-aloqa usulida sohaning malakali professor-o'qituvchilari tomonidan ma'ruza mashg'ulotlari shaklida o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bunda dars jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanishni yo'lga qo'yish orqali Vebinar (leksiyani boshqa o'quv xonasidan yoki oliy ta'lim muassasasidan masofali o'zlashtirish), "blended learning" (avvaldan yozilgan leksiya va seminar mashg'ulotlarini uyda o'zlashtirish) va "flipped classroom" (leksiyani uyda o'zlashtirish, seminar mashg'ulotini oliy ta'lim muassasasida bajarish) texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish ko'zda tutilgan.

Axborot-resurs markazida adabiyotlarning 7500 turdagi elektron resursi mavjud. Axborot-resurs markazida "AKBT" avtomatlashtirilgan tizimi yo'lga qo'yilgan va barcha kompyuterlar internetga ulanib, 3 ta WiFi routeri bilan jihozlangan. Axborot-resurs markazi uchun internet tezligi 100 mb/s ni tashkil etadi. Kompyuterlar jahonning yetakchi elektron nashriyotlaridan EBSCO, Web of science, Oxford university press, Elektronnaya nauchnaya biblioteka "E-library kabi bazalariga ulangan.

Ushbu ta'lim dargohida 1 ta o'quv zali, 1 ta fondlarni saqlash joyi, 1 ta kompyuter zali zamon talablariga mos holatda jihozlangan. Institutda BOOK cafe muntazam ravishda faoliyat olib boradi.

Shu bilan birga, filialda har birida 20 donadan 5 ta multimediali kompyuter sinfi tashkil etilgan. 4 ta chet tillarini o'rganish o'quv xonalari 20 donadan zamonaviy tipdagi noutbuk bilan to'ldirilgan.

O'quv xonalaridan 10 tasiga SMART doskalar, 12 tasiga videoproyektorlar o'rnatilgan.

69 ta zamonaviy kompyuter, 30 ta noutbuk, 15 ta rangli va 24 ta oq-qora printerlar, 10 ta zamonaviy televizordan filial o'quv-tarbiyaviy faoliyatida foydalanilmoqda.

54 ta o'quv xonasining 44 tasi ovozli va videoformatli kuzatuv moslamalari bilan jihozlangan.

Filial binosi va hududida 1 komplekt 10 dona WiFi zonalar tashkil etilgan bo'lib, ushbu hududda mavjud 100 mb/s internet tezligini 1000 mb/s gacha o'zgartirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Mavjud kompyuter va monobloklarga yo'nalishlarga mos holda AutoCAD, Mathcad, Autodesk 3dsMax, Adobe Photoshop, Adobe Premiere Pro, Adobe After Effects kabi dasturlarning so'nggi versiyalari o'rnatilgan bo'lib, ushbu dasturlarning doimiy ravishda faol ishlab turishi nazoratga olingan. Umumiy kompyuterlar soni 450 tani tashkil etadi. Bu degani filialda har 6 nafar talabaga 1 ta kompyuter to'g'ri keladi.

Qolaversa, ta'lim jarayonini raqamlashtirish doirasida oliy ta'limni boshqarishning HEMIS axborot tizimini to'liq joriy etishga erishilgan.

O'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, pedagogik xodimlarning kasbiy va malakaviy mahoratlarini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bu bo'yicha tez-tez seminar mashg'ulotlarini o'tkazish rejali tarzda tashkil etilmoqda.

## Mahalliy va xalqaro hamkorlik

So'nggi 2 yil mobaynida filialda ilmiy salohiyatning 2,3 foizdan 29,2 foizga oshirilishiga erishilganini alohida ta'kidlash mumkin. Bunda xalqaro va mahalliy hamkorliklarning ham ahamiyati katta.

Jumladan, Xitoy xalq respublikasining FA, AQSHning Pitsburg va Arkanzas universitetlari, Janubiy Koreya kimyoviy texnologiya ITI va ko'plab OTM va ITIlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalari mavjud. Turkiya Respublikasi Dicle universiteti, Diyorbakir qishloq xo'jaligi instituti bilan aloqalar natijasida 2 nafar professor-o'qituvchi va 1 nafar talaba safarda bo'lib qaytishgan.

Talabalar almashinuv dasturlari asosida Germaniya davlati (Bavariya)da talabalarning amaliyot o‘tash jarayonlari tashkil qilingan.

Shu bilan birga, Erzurum texnika universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali o‘rtasida memorandum imzolanib, hamkorlikda xalqaro ilmiy ishlarni olib borish uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Qolaversa, filial Xitoy xalq respublikasi Tiyanjin fan va texnologiya universiteti olimlari bilan hamkorlikda “Orol dengizi sho‘r ko‘li suyuq litiyli manbasidan elaksimon strukturali ionli shpinil yordamida litiyni ekologik toza va samarali qayta ishlash texnologiyasi asoslari” loyihasi uchun qiymati 1 millard so‘m bo‘lgan grant yutib olgan.

## Talabalarning yutuqlari

Talabalarimiz orasida 1 nafar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendianti va 2 nafar Davlat stipendiyasi sohiblari tahsil olishmoqda.

Shu bilan birga, til bilishning S1 va B2 darajadagi xalqaro hamda unga tenglashtirilgan milliy sertifikatlarni olishga muvaffaq bo‘lgan 6 nafar talabaga filial stipendiyasi berib borilmoqda.

Filialda talabalarga ingliz, nemis va rus tillari bo‘yicha bepul o‘quv kurslari doimiy tashkil etilgan.

Xabaringiz bor yaqinda "Kinochilar uyi"da "O'zbek qizi" badiiy filmining katta premyerasi bo'lib o'tgan edi. Ushbu filmda Ikkinchi jahon urushi yillarida ishtirok etgan o'zbek xotin-qizlarining jang maydonlarida ko'rsatgan qahramonliklari bosh qahramon Jamila obrazi orqali gavdalantiriladi.

# XALQQA QAHRAMONLARI ESLATILGANDA...

Kartinaning asosiy mavzusi – urushdagi qizning taqdiri. 18 yoshida o'z ixtiyori bilan urushga ketgan o'zbek qizi haqida. Qahramonning prototipi – Zeba G'aniyeva. Afsonaviy mergan, fashistlar olov kabi qo'rqqan yetti sovet ayollari ro'yxatiga kiritilgan. Ammo ssenariy mualliflari arxivdan huddi shunday taqdirga ega bo'lgan boshqa qizlar haqida ma'lumot topgach, qo'rqmas o'zbek ayolining tarjimai holini suratga olish fikridan qaytdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi davrida ayollarni urushga safarbar etish bo'yicha hukumat qarori e'lon qilingan. Mazkur hujjat asosida 1942-yilning 1-mayidayoq O'zbekistondan 448 nafar ayol frontga safarbar etilgan. Shu yilning oxiriga kelib esa 1 ming 600 nafar o'zbek ayollari urushga yuborilib, jang maydonlarida dushmanga qarshi kurashda katta jasorat ko'rsatgan. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, bular asosan 19 yoshdan 26 yoshgacha bo'lgan ayollardir. Ular orasida dushman bilan yuzma-yuz turib, jang olib borgan Zeboxon G'aniyeva, Rahima Alimova, Azizaxon Qalandarova, Sharofat Eshonxo'jayeva, Sora Shukurova, Xosiyat Usmonova, Roza Ibrohimova, Salomat Sangidova, Sobira Majidova singari xotin-qizlar faxr bilan tilga olinadi.

Film voqealari Ikkinchi jahon urushi, qishloqdagi “front”da matonat ko‘rsatayotgan ayollar hayotidan boshlanadi va bosh qahramon Jamila atrofida aylanadi. Daladagi kartoshkani frontga jo‘natish uchun omborga olib borishni mehnatkash ayollar istamaydi. Sababi u yerda “niyati buzuq” raisga duch kelishni hech bir ayol, hech bir qiz xohlamaydi. Bu vazifani zimmasiga olgan Jamila yomg‘irli loy yo‘lda ot arava bilan jarlikka tushib ketishiga oz qoladi. Kartoshkalar to‘kilib, anhorga oqib ketgan paytda o‘sha xulqi buzuq rais kelib qoladi. “Davlatning mulki”ni yo‘q qilgan Jamilani bu ishi uchun jazolamoqchi ekanini, ammo agar unga turmushga chiqsa, bu ishlar “bosdi-bosdi” bo‘lishini aytadi. Bu shartga rozi bo‘lmagan, unashtirilgan Jamila qishloqdan chiqib ketishni, frontda bo‘lajak turmush o‘rtog‘i bilan uchrashishni tanlaydi. Qolgan voqealar jang maydoni, urushning qonli sahnalarida kechadi. Film ssenariy mualliflari Baxtiyor Abdug‘afur, Igor Kosteychenko va Mansur Abduxoliqov, postanovkachi rejissyor Akbar Bekturdiyev, operatorlar Husan Alijonov va Maksim Kurovskiy, montaj ustasi Xurshid Alixo‘jayev, bosh prodyuser Firdavs Abduxoliqov.

Film ijodkorlari kartinaning tempini baland nuqtada ushlab turishning uddasidan chiqqan. Odatda filmlarning muqaddimasi juda cho‘zilib ketardi, biroq bu filmning kirish qismi baland nuqtada boshlanadi, voqea esa keyingi voqealarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kinoda boshidanoq vaziyatning tarangligi, urush holati ekani darrov seziladi. Tasvir shu qadar tabiiyki, tomoshabin ham o‘zini o‘sha makonda his qilganday bo‘ladi. Voqealarning ketma-ket ulanishi, Rustamni izlab frontga ketayotgan Jamilaning hayotida ro‘y berayotgan voqealar tomoshabinni o‘ziga bog‘lab oladi. Film voqealarida kutilmagan burilishlar, tomoshabin kutmagan vaziyatlar ham bor. Bu esa kinoning tomoshabopligini yana ham oshirgan. Film urushdagi o‘zbek ayollari, umuman ayollar holati, taqdiri haqida ma’lumot beradi. Filmda bosh rolni ijro etgan Aysenem Yusupova bu roli bilan nazarimda yana bir pog‘ona yuqori ko‘tarildi. Chunki uning ko‘zlarida ota-onasi xalq dushmani deya yo‘qotilgani, yaxshi ko‘rgan insoni urushga ketgani, raisning o‘ljasiga aylanib qolayotgani rostakamiga aks etadi. Uning qorachiqlaridagi mung, azobni ko‘rgan tomoshabin urush davri ayollarining dardini his qiladi. O‘zbek ayolining sadoqati, muhabbatini ko‘radi. O‘sha paytda front jahannam edi, Jamila esa yaxshi ko‘rgan insonini izlab o‘z xohishi bilan o‘sha jahannamga boradi. Filmda ko‘rsatilgan ana shu birgina sababning o‘zi o‘zbek ayolining yaqqol tasvirini chizadi. Faqat o‘zbek ayoligina yaxshi ko‘rganlari, yaqinlari, oilasi uchun hamma narsaga tayyorligini bildiradi. Qahratonda, sovuqda, qor bilan qoplangan o‘rmonda, har qadamda bombalar portlashi, pulimyotlarning ovozi tinmayotgan joylarda, muz bilan qoplangan daryolarda o‘z xohishi bilan erkaklar bilan teppa-teng dushmanga qarshi kurashayotgan qizlarning istaklarining ildizi bitta edi. U ham bo‘lsa, tinch zaminda o‘z oilasi bilan baxtli hayot kechirish. Rejissyor qizlardagi ana shu istakni mahorat bilan ko‘rsata olgan.

Tomoshabinda kichik savollar ham tug‘ilib qolishi tabiiy. Masalan, Jamila qanday qilib birdaniga frontga ketayotgan yuk mashinasida paydo bo‘lib qoldi, qanday qilib birdaniga merganga aylandi, urush davri ayollari ham qoshlarini bo‘yab yurganmi kabi. Biroq bu kabi kamchiliklar filmning umumiy mazmun va mohiyatiga u qadar ta’sir o‘tkazmaydi. Umuman olganda, yangi film bilan kinoijodkorlar va tomoshabinlarni tabriklash mumkin.

**Bahriddin AYNAZAROV, filmning ikkinchi rejissyori:**

– Murakkab davrlarga murojaat qilish, albatta, ijodkordan katta mas'uliyatni talab qiladi. O'sha paytdagi siyosiy jarayonlarning o'zi katta bir mavzu. Badiiy ijodning e'tibori esa hamisha inson taqdiriga qaratiladi. Juda ko'p o'rinlarda, xohlaysizmi-yo'qmi, urush vahimasi filmda eng oldingi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Axir o'sha paytdagi fojialarni ko'rsatib berish oson emas. Bosh qahramon prototipi sifatida faqatgina Zebo G'aniyeva obrazi olingan deb ayta olmayman. Bu film ikkinchi jahon urushi davridagi butun o'zbek qizlarining yig'ma obrazi, umumiy o'zbek ayollarining timsoli sifatida filmni "O'zbek qizi" deb nomladik. Biz arxivlarni ko'targanimizda, urushda qatnashgan ayollarning ko'p bo'lgani, aksariyat qismi o'z ism-sharifini sir qolishini istagani, e'lon qilmaganiga guvoh bo'ldik.

"O'zbek qizi" – murakkab postanovkali tarixiy-harbiy badiiy film sanaladi. Film ssenariysidagi urushgacha bo'lgan jarayon, ya'ni O'zbekiston hududidagi mavsumiy sahnalar kech kuz va yoz fasllarida suratga olindi. Shuningdek, jang bilan bog'liq urush sahnalarini Belarus Respublikasining Minsk shahri hududida tasvirga muhrladik.

**Baxtiyor ABDUG'AFUR, ssenariy muallifi:**

– Asarim asosida ishlangan filmni ko'rdim. Asarni yozishni boshlaganimda bunchalik katta tirajda chiqishini kutmagandim. Filmni tomoshabinlar orasida o'tirib ko'rdim. Bosh qahramon – Jamilaning har safar qahramonligini odamlar olqishlar bilan kutib oldi. Bundan shunday xulosaga keldimki, odamlar QAHRAMONlar timsolida o'z jasoratini ko'radi! Bundan g'ururlanadi, faxrlanadi. Demak, xalqqa o'zini eslatish kerak ekan. Xalq o'zini aftodahol, bechora, ojiz ko'rmasin. Milliy qahramonlar qiyofasi har doim muhimligini chuqur his qildim. Xalqning g'ururini ko'tarish hozirgi shiddatli dunyoda har qachongidan-da zarur. Har qanday davlatning tayanchi, eng avvalo, xalq! Xalq armiya va maxsus xizmatlar bilan birlashib qudratli sanalgan armiyani to'xtata oldi. Bizda ham shunday bo'lishi lozim. Yov ichkarida emas, tashqarida, buni hammamiz bilamiz. Tarixiy g'ururi, or-nomusini unutmagan xalq davlat uchun har narsaga tayyor bo'ladi. Va buning uchun xalqning o'zini o'ziga tanitish lozimdir.

Bu xalq o'zi kim? Bu Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Bobur, Madaminbek, Shermuhammadbeklardir... Bu xalq o'zi kim? Imperiyalar qurgan millatdir! Darvoqe, "O'zbek qizi"dan "Uzbechka"ning farqi borligini yozishyapti. Albatta, asarning filmga aylanishida qator o'zgarishlarga uchrashi bor gap. Bu safar ham shunday bo'ldi. Nasib qilsa, balki, asar to'liqligicha serial qilib ishlanar.

**Maftuna KARIMOVA, jurnalist:**

– Umuman, aktyor va aktrisalar mahorati, grim, urush sahnalari – bularning barchasi ajoyib. Ammo filmda ba'zi kamchiliklar ko'zga yaqqol tashlanib qolgan. Eng avvalo, dramatizm va xarakterlarning kuchi kamdek... Rejissyor Jamilani tomoshabinga majburlab tanitishga uringandek tuyildi. Voqealar rivoji juda tez. Menimcha, maqsad asosan Jamilaning qahramonligini ko'rsatish bo'lgan, uning shaxsiyati va ichki dunyosini emas. Ehtimol, shuning uchun u jon berganda men yosh to'kmadim, chunki film so'ngigacha Jamila shaxsiyatini, uning obrazini yaxshi taniy olganim yo'q. U film davomida mening yaqinimga aylanib ulgurmadi. Nazarimda, filmni ikki xil usulda ko'rish mumkin. Birinchisi, ong bilan, ikkinchisi ong va tuyg'ular bilan. "O'zbek qizi"ni ong bilan tomosha qildim. Bilganim, Jamilaning qahramonligi, tarixiy shaxs ekani bo'ldi. Tuyg'ularim o'rni esa bo'sh qoldi. Film frontga jo'natilishi kerak bo'lgan kartoshka voqeasi bilan boshlanadi. O'sha sahnada Jamila oldiga birdan yo urush, yo badfe'l raisga erga tegish tanlovi o'rtaga tashlangan. Shunday qilib, chorasizlik ortidan urushga ketgan qiz frontdagi ilk sahnadayoq merganligini namoyon qiladi. Bombardimonchi samolyotni urib tushiradi. Aql bovar qilmas holat, shunday emasmi? Go'yo u ona qornidan snayper bo'lib tug'ilgan, sal avval kartoshka terib yurgan qiz snayper qurolini ushlashni, qanday, qayerga otishni o'z-o'zidan o'rganib qolganmikan?

Kino so'ngidagi kulminatsiya esa ajoyib. Rustamning fashistlar tomoniga o'tib ketgani bilan bog'liq konflikt tomoshabinni o'ylantiradi. Ammo bu topishmoq tomoshabin shuurida avj pallasiga chiqishga ulgurmaydi. Uning javobi juda qisqa fursatlarda fosh qilib qo'yilgan... Va yana shu yerda muhabbat masalasiga qaytamiz: Rustamning yodi bilan yashayotgan, avvalroq uning ortidan "qoraxat" kelganidan xabar topgan Jamila asirlikda tirik Rustamga duch keldi! Tag'in qanday holatda? Fashistlar tomoniga o'tib ketgan sotqin, xoin sifatida ko'rdi sevgilisini. Shu yerda Jamila va Rustamning holati hamda ularning o'rtasidagi suhbat juda jo'n tasvirlangan. Vaholanki, bu film finali edi! Ko'zlarda hayrat, o'kinch va eng qizig'i, savollar yo'q edi. Axir o'ldi deb yurgan muhabbati uning qarshisida turibdi-ku?! Ular go'yo hech nima bo'lmaganday, ilk marta bir-birini ko'rib turgan ikki begonaday. Bosh qahramonni aks ettirgan aktrisa o'z rolini maromida ijro etgan, nazarimda. Umuman, barcha ijrochilar mahorati tahsinga loyiq. Urush sahnalari bilan alohida ishlangani ko'rinib turibdi. Jonli tarzda bo'y ko'rsatgan janggohlar. O'zbek kinosi uchun quvonarli natija. Yagona muammo ssenariyda, nazarimda. Unda ba'zi tushunmovchiliklarga yo'l qo'yilgani, hislar ikkinchi darajaga tushib qolgani, qahramonlar shaxsiyatiga ko'p to'xtalmagani film ta'sirchanligiga putur yetkazgan.

* * *

Yaxshi kino haqida soatlab gapirish mumkin. Bu filmni albatta tomosha qiling. Ketgan vaqtingizga achinmaysiz! Filmda urush keltirgan qabihliklar, urushning inson taqdirini sindirib tashlashi yaxshi ochib berilgan. Albatta fikrlar subyektiv, men kinotahlilchi emasman, yakuniy bahoni albatta o'zingiz berasiz.

**Otabek TURDIYEV**
**jurnalist**

# SHOGIRDNING USTOZGA VA BOSHQALARGA NISBATAN ODOBI

Ilmni talab qilish va bunda himmatli bo'lish. Hozirgi kunda ilmni izlashdan ko'ra, ilm o'quvchilarni izlayotganga o'xshaydi. Ko'plab o'quv yurtlariga talabalar ilm olish uchun emas, yo'qlamada ro'yxatdan o'tish uchun, diplom olish uchun borayotgani sir emas. Hatto, ko'pincha maktablarda o'qituvchilar o'quvchilarning ortidan quvib yuradi. Bu holatlar ilmga bo'lgan munosabatlar nihoyatda ayanchli ekaniga dalolat qiladi.

Qadimda ulamolar ilm izlab dunyo kezganlar va mislsiz mashaqqatlarni yengib o'tganlar. Imom Buxoriy hadis izlab minglab olimlarning huzurida bo'ldi. O'n yetti yoshga to'lganlarida, Buxoroi sharifda u kishiga ta'lim beradigan muhaddis qolmagan edi. Ilm izlab Hijoz va Iroq yurtlariga safar qildi.

Mahmud Zamaxshariyning bir oyog'i taxtadan edi. Uning aytishicha, bunga ilm yo'lidagi safarlarining birida Xorazm yerlarida qorda qolib ketgani sabab bo'lgan ekan. U o'sha taxta oyog'i bilan butun Islom olamini ilm izlab kezib chiqdi.

Har qanday ilm avvalo ustozdan o'rganilishi kerak. Shu bilan birga, mustaqil mutolaa va tadqiqot orqali ham ilmni orttirib borish lozim. Ammo ilmni faqat kitoblardan oladigan bo'lsa, to'g'risidan xatosi ko'p bo'ladi.

Imom Shofe'iy rahmatullohi alayh aytadi: "Kim kitoblardan fiqh o'rgansa, hukmlarni zoye qiladi".

Ilm-u amalda yetuk ustoz tanlashga urinish. Buning uchun ilm ahlidan maslahat olish va istixora qilish. Ustozsiz kishi har ko'yga yo'rg'alaydi. Shuningdek, ustoz tanlashda uning axloq va ilmda yetuk bo'lishiga ham e'tibor berish lozim.

Alloh taolo: "Agar bilmasangiz, zikr ahlidan so'ranglar" (Nahl surasi, 43-oyat), deydi.

Ya'ni bilmagan narsangizni ilm-u zikr ahlidan so'rab o'rganing, deyilmoqda. Xususan, din ilmini har kimdan o'rganib bo'lmaydi. Ibn Siyrin: "Bu ilm dindir, uni kimdan olayotganingizga boqinglar", der edi. Yaxshi ustoz topgach, undan unumli foydalanishga haris bo'lish darkor.

Go‘zal xulqli, tavozeli bo‘lish. Xususan, ustozga nisbatan yuksak ikromda bo‘lish, ustoz o‘zidan kichik yoshda bo‘lsa ham unga nisbatan ehtirom va go‘zal odobni ushlash kerak.

Imom Suyutiy “Jomi’us sag‘iyr”da keltirishicha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasalam: “Ilm olinglar va ilm uchun viqor va sokinlikni o‘zlashtiringlar hamda muallimlaringizga tavozeli bo‘linglar”, degan ekanlar. Bu hadisni Imom Tabaroniy va Ibn Adiylar Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan.

Alloma Munoviy ushbu hadisning sharhida jumladan shunday deydi: “Chunki ilmga tavoze va qunt ila tinglash orqali yetiladi. Tolibi ilmning ustozga tavozesi oliylikdir, unga bo‘lgan xokisorligi izzatdir, unga bo‘yin egishi faxr-u iftixordir”.

Nabiy sollallohu alayhi va sallam: “Kim kattamizni ulug‘lamasa, kichigimizga rahm qilmasa, olimlarimizning haqqini bilmasa, bizdan emas”, dedilar.

Ma’siyat bo‘lmagan o‘rinda ustozga itoat qilish. Ustoz biror ish buyursa, modomiki, gunoh ish bo‘lmasa, imkon qadar uni bajarish lozim.

Ustozning injiqligiga sabr qilish, ayb-u kamchiligini ko‘rsa, berkitish, o‘tim qilish. Kamchiliksiz inson bo‘lmaydi, agar aybi borligi uchun ustoz tark etiladigan bo‘lsa, juda ko‘p ilmdan inson bebahra qoladi. Shuning uchun mashoyixlar ilm yo‘lida “Yaxshisini ol, yomonini qo‘y”, degan qoidani qo‘llashgan.

Abdurrahmon Sa’diy aytadi: “Kimning ilm va olim suhbatiga sabr qilishga, bunda sobit turishga quvvati bo‘lmasa, sabrsizligi tufayli ko‘p ilmni qo‘ldan boy beradi. Kimda sabr bo‘lmasa, ilmga yetisha olmaydi”.

Qolaversa, shogird noto‘g‘ri deb o‘ylagan ish aslida to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ustozning tasarruflariga e’tiroz bildirishga shoshmaslik kerak.

Darsga vaqtida kelish, muallimdan kechga qolmaslik. Darsxonaga talabaning ustozdan keyin kech qolib kirib kelishi juda ham uyatli holat, ilmga bepisandlikdir. Uzrli va favqulotda holatlar mustasno.

Muallim kelganda unga ehtirom yuzasidan o'rnidan turib kutib olish. Aslida birov uchun o'rindan turish uncha ma'qul ko'rilmaydi. Biroq, kishiga ilm va taqvosi uchun hurmat qilib o'rindan turishni joiz deganlar. Bu haqda imom Navaviy alohida risola yozgan va ilm tolibining ustozlar uchun o'rnidan turishi mustahab degan xulosani berganlar. Zotan, muallim bu ehtiromga eng haqli kishilardan sanaladi.

Darsda odob bilan o'tirish, jim tinglash, zaruratsiz harakatlanmaslik. Behuda harakat darsning maromiga putur yetkazadi. Ustoz so'zlayotganda nima bilandir band bo'lib, yaxshi eshita olmagach, yana qaytarishini so'rashga to'g'ri keladi. Bu esa juda ham yomon odobsizlikdir.

Ustoz huzurida yerga o'tirganda iloji boricha cho'kka tushib, agar mashaqqat bo'lsa, chordana qurgan holda o'tirish lozim. Kursida o'tirganda esa tik va tavoze ko'rsatgan holda o'tirish kerak. Ustozning huzurida tupurmaydi, burun qoqmaydi, zaruratsiz tomoq qirmaydi, esnamaydi, barmoqlarini o'ynamaydi, qarsillatmaydi, tanasini qashlamaydi. Aksa urganda, og'ziga ro'molcha tutadi.

Imom Shofe'iy yana bir mazhabboshi olim imom Molikning huzurida dars olganda qanday odobda bo'lganini hikoya qilib aytadi: "Men Molikning huzurida unga shaqirlashi eshitilmasin deb kitobni ohistalik bilan varaqlar edim".

Imom Shofe'iyning shogirdi Robiy' rahmatullohi alayhi: "Allohga qasamki, Shofe'iy qarab turgan bo'lsa, suv ichishga jur'at qila olmadim", degan edi.

Ustozning oldiga tushib yurmaslik. Hujurot surasida aynan shu odob o'rgatilgan:

"Ey, iymon keltirganlar! Allohdan va Uning Rasulidan oldin o'tmanglar. Allohga taqvo qilinglar. Albatta Alloh eshitguvchi va bilguvchi Zotdir". (Hujurot surasi, 1-oyat).

Yurganda yo'l qorong'i bo'lib, notanish bo'lsa, shuningdek, tiqilinch joylarda shogird ustozning oldiga tushib, yo'l ochib yurgani afzal. Bunda ham iloji bo'lsa, ro'parasida emas, biroz o'ng yoki chaproq o'tib oldinda yuradi. Boshqa paytlarda shogird ustozdan ortda yoki o'ng tarafida, bir qadam orqaroqda yurishi kerak.

Biror xonaga kiradigan bo'lsa, ustozdan ortga yoki chap tarafga o'tib, ustozning eshikdan oldin kirishiga sharoit yaratadi.

O'z davrida hanbaliy mazhabi shayxi bo'lgan ulug' imom, qozi Abu Ya'loning shogirdi buyuk faqih Abulhasan Aliy ibn Muborak Karxiy aytadi: "Bir kuni qozi Abu Ya'lo bilan yurib ketayotgan edim. U menga: "O'zing ulug'lagan kishi bilan yurganingda uning qaysi tomonida yurasan?" dedi. Men: "Bilmayman", dedim. U: "O'ng tomonida. Uni namozdagi imom o'rniga qo'yasan va chap tarafini xoli qoldirasan, agar burun qoqmoqchi bo'lsa yoki biror ozorni ketkazmoqchi bo'lsa, uni chap tarafiga qiladi", dedi.

Ustoz aytayotgan ma'lumotni oldindan bilsa ham, bilishini izhor qilmaydi, xuddi birinchi bor eshitayotgandek qunt bilan tingashi kerak.

Ato ibn Yasor aytadi: "Ba'zan yosh yigit bir gap aytadi, men uni xuddi birinchi bor eshitayotgandek tinglayman, holbuki, men u gapni so'zlayotgan yigit tug'ilmay turib eshitgan bo'laman".

Oddiy suhbatda suhbatdoshga nisbatan ana shunday odob talab qilingan ekan, ustoz bergan ma'lumotlarni eshitganda bilimdonlik qilishdan hargiz saqlanish lozim.

Ustozning so'zini bo'lmaslik, undan oldin so'zlamaslik. Hujurot surasining biz yuqorida keltirgan ilk oyatidan ushbu ma'no ham tushuniladi.

Ibn Jamoa aytadi: "Biror masalani sharhlashda, savolga javob berishda va boshqa shu kabi ishlarda ustozdan oldin yoki u bilan teng so'zlamaydi, mavzuni bilishini ustozdan oldin izhor qilmaydi. Agar ustoz o'zi taklif qilsa, so'rasa, gapirsa hechqisi yo'q".

So'zni bo'lish hurmatsizlik hisoblanadi. Agar dars asnosida savol tug'ilsa, dars so'ngida yoki ustoz savollarga navbat berganida savolini so'rashi mumkin. Savol esdan chiqishidan qo'rqsa, yon daftariga qaydlab olsin. Sahobalar biror masalani yaxshi tushuna olmasalar, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan so'rashar edi. Hamma so'rab olim bo'ladi. "Islom ummatining ilm dengizi" degan laqabni olgan Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumodan: "Bu ilmga qanday yetishdingiz?" deb so'rashdi. U: "So'raydigan til, uqadigan qalb bilan", dedi". Shu bois, bilmagan narsasini ustozlardan so'rash kerak. Biroq, odob bilan, xokisorlik bilan so'rash darkor. Agar dalilga bilimi yetadigan bo'lsa, u holda aytilgan so'zning dalilini ham so'rashi mumkin. Ammo bu munozara uchun bo'lmasligi kerak.

Ustozning ismini aytmay, ustozim, shayximiz, domla kabi ehtiromni anglatuvchi so'zlar bilan xitob qilish kerak.

Abu Bark Zayd aytadi: "Loy tanaga otaligi bor otaga ismini aytib murojaat qilish munosib bo'lmaganidek, ustozga "Ey falonchi", deb xitob qilmaydi, balki "Ustozim", "Shayximiz", deb so'zlaydi".

Ulug' muhaddis, hofiz Ibn Hajar Asqaloniy doimo ustozining ismini aytmay, uni "Imomlar imomi", "Buyuk ustoz" kabi nomlar bilan tilga olar edi.

Ustozga so'zlaganda o'ta ehtirom bilan so'z surishi, shoshmay, sokin, baqirmasdan, ohista, odob bilan gapirishi kerak.

"Ey, iymon keltirganlar! Ovozingizni Nabiy ovozidan yuqori ko'tarmang va unga bir-biringiz ila so'zlashgandek baland so'zlamang, o'zingiz sezmagan holda amallaringiz habata bo'lib qolmasin" (Hujurot surasi, 2-oyat).

Ushbu oyatdan tushuniladiki, ustozga boshqalarga qilinadigan xitob bilan murojaat qilinmaydi. Shayx Bakr Abu Zayd aytadi: "Ustozing bilan o'tirganda va unga so'zlaganda butun odobingni jamlab ishga sol".

Ustozning huzurida ko'p gapirmaslik, g'iybat-u shikoyatlardan so'zlamaslik kerak. Umar roziyallohu anhu: "Kimning gapi ko'paysa, xatosi ko'payadi", deganlar.

Ustozni ota-onadek, balki undanda yuqori maqomda ko'rish.

Imom Abu Dovud Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Men sizlarga ota o'rnidaman, sizlarga ta'lim beraman", deganlar. Demak, muallimlar ma'naviy ota hisoblanadi.

Alloma Sa'diy aytadi: "Odamlarga ota-onasidan keladigan manfat – kattalarini qo'ying, kichik muallimlardan yetadigan manfaatga teng kela olmaydi. Chunki ular eng qimmat vaqtlarini, sara fikrlarini ilm toliblariga o'zlari qodir bo'lgan barcha uslublar bilan o'rgatadilar".

Ulamolarimiz ustoz va ota-onaning qo'lini muhabbat va ehtirom yuzasidan o'pishni joiz deganlar.

Ulug' sahoba, yetuk olim Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumo yuksak martabaga ega bo'lib, Rasulullohga yaqin qarindosh bo'lishiga qaramay, Zayd ibn Sobit roziyallohu anhuga otining uzangisini tuta turib, "Ulamolarimizga shunday ehtiromda bo'lishga amr qilinganmiz", dedilar. Shunda Zayd ibn Sobit roziyallohu anhu Ibn Abbos roziyallohu anhuning qo'llarini o'pdi va: "Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning ahli baytiga shunday muomalada bo'lishga buyurilganmiz", dedilar.

Imom Muslim ustozi Imom Buxoriyning huzuriga kelganda: "Ey ustozlar ustozi, izn bering, oyoq-qo'llaringizni o'pay", degani ana shu qabildan edi.

Ustozning qo'lini o'pish joiz bo'lishi uchun ma'lum shartlar bor. Jumladan, buni ustoz o'zi istab, talab qilmasligi, ilmga muhabbat uchun bo'lishi, sunnatni tark etishga, masalan, qo'l berib ko'rishishni e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'lmasligi, olimni kibrga olib bormasligi lozim.

Ustozning ilmiga muhtojligini izhor qilish, unga xokisorlik ko'rsatish.

Ulamolar aytadilarki, aslida tilyog'lmalik qilish mumkin emas, ammo ustozdan ilm olish uchun unga tilyog'lamalik qilishning zarari yo'q.

Ustozga qilgan mehnatlarini tan olib, tashakkur aytish. Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda: "Kim odamlarga shukr aytmasa, Allohga ham shukr keltirmabdi", deyilgan.

Ibn Jamoa aytadi: "Oltinchisi, fazilatga erishtirgani, nuqsonga yo'l qo'yganda ogohlantirgani, dangasalik qilganda yoki kamchilikka yo'l qo'yganda yoxud shu kabi ishlarda tuzatib, tarbiya qilgani uchun ustozga tashakkur izhor qilishidir".

Ustoz bilan tortishmaslik. Haq bo'lganda ham tortishmaslik fazilatli amallardan sanaladi. Xususan, ustoz bilan tortishish ko'pincha bilimsizlikdan bo'ladi, shu bois, bundan saqlanish kerak.

Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Haq bo'la turib tortishishni tark etgan kishiga jannatning o'rtasidan bir uy bo'lishiga men kafilman", deganlar.

Banda kamchilikdan xoli emas. Bordi-yu, ustoz biror ma'lumotda xato qilgudek bo'lsa ham unga tanbeh berilmaydi. Balki odob bilan savol shaklida ishora qilish yoki xoli joyda o'z mulohazasini tavoze bilan aytishi mumkin.

Biroq, ustoz o'zi ochiq bahsni istab biror masalani o'rtaga tashlasa, u holda shogird o'zini katta olmagan holda bilganini aytishi durust bo'ladi.

Ustozga jumboqli, qiyin savollar bermaslik. Ilm olish uchun, bilmaganini bilish uchun emas, ustozni mot qilish uchun, sinash uchun savol berish ham joiz emas. Shuningdek, nodir savollarni ham xoli paytda o'zidan so'ragan ma'qul.

Izn olish. Ustozning huzuriga kirishda, undan biror narsa so'ramoqchi bo'lsa yoki undan ilm olmoqchi bo'lsa, avval izn so'rash kerak. Ibn Jamoa aytadi: "Ustoz yolg'iz bo'lsin, oldida odam bo'lsin, farqi yo'q, modomiki, umumiy yig'in bo'lmasa, uning huzuriga izn so'ramay kirmasin. Izn so'raganda ustoz izn bermasa, ortga qaytadi. Ustozdan eshik oldida turib izn so'raganda uch martadan ortiq chaqirmaydi".

Ustozning huzuridan, darsdan chiqmoqchi bo'lsa ham izn so'rash kerak. Suhbatning odoblaridan biri – suhbatdoshning so'zini tinglash, iznsiz uning huzurini tark etmaslikdir. Ibn Abbos roziyallohu anhu: "Men bilan suhbatlashayotgan odam mening uchun eng qadrli kishidir", der edi. Oddiy suhbatda so'zlovchining e'tibori shunchalik ekan, dars o'tayotgan ustozning huzurida yanada ko'proq odob talab qilinadi.

Shuningdek, boshqa bir ustozda tahsilni davom ettirmoqchi bo'lsa, avvalgi ustozdan izn so'rash lozim. Bu ham ilm olishda barakaga sabab bo'ladi.

Izn so'rashning foydasi juda ham ko'p. Eng asosiysisi, ustozning muhabbatiga sabab bo'ladi, ilmga baraka beradi.

Ustozning sirini saqlash, unga vafodor bo'lish.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Agar kishi bir so'z aytib turib u yoq-buyoqqa qarasa, u omonatdir", dedilar.

Ustozni borida ham, yo'g'ida ham hurmat qilish, uni ehtirom bilan tilga olish, fazilatlarini so'zlash, kamchiliklaridan tilni tiyish kerak, u haqda yaxshi gumonda bo'lish.

Ibn Jamoa aytadi: "Uchinchisi, ustoziga ulug'lab boqish, uni kamolot darajasiga yetgan deb e'tiqod qilish, chunki mana shu manfaat olishi uchun yaqinroqdir. Salaflardan biri ustozining huzuriga borar ekan, biror narsa sadaqa qilib: "Allohim, mendan ustozimning ayblarini yashirgin, uning ilmi barakasini mendan ketkazib qo'yma", deb duo qilar ekan".

Hech kim barcha ilmni jamlay olmaydi. Odatda bir fanda mutaxassis bo'lgan odam boshqasida oqsab qolishi tabiiy. Shogird ustozi haqida buni nuqson bilmasligi, boshqalarga shu mazmunda so'zlamasligi kerak.

Agar ustoziga yaxshilik ilinganidan uning biror xatosini isloh qilmoqchi bo'lsa, uni xoli topib, yuksak odob bilan, savol tariqasida, ustozning qabul qilishini inobatga olgan holda yetkazadi. Biroq, keyin buni boshqa joyda gapirib yurmaydi.

Imom Navaviy aytadi: "Talabaning odoblaridan biri, garchi o'z fikriga muxolif bo'lsa ham, ustozning roziligi istash, uning huzurida g'iybat qilmaslik, uning sirini fosh qilmaslik. Agar uni birov g'iybat qilayotganini eshitgudek bo'lsa, qaytaradi, bordi-yu bundan ojiz qolsa, majlisni tark qiladi".

Ustozni rozi qilish, unga xizmat qilish. Ilmda baraka topish uchun ustozni rozi qilish darkor. Siz birovning mulkiga roziligisiz ega bo'lsangiz, unda baraka bo'lmagani kabi, ilmda xayr-u baraka topish uchun uni sizga taqdim qilgan zot – ustozni xursand qilishingiz, rozi qilishingiz lozim. Bu qoida hayotda ko'p bora tasdig'ini topgan haqiqat sanaladi.

Ustozga xizmat qilishning fazilati katta. Xizmat bilan ilm oson yuqishi, samarali bo'lishi tajribalarda ko'p ko'rilgan.

Imom Shofe'iy rahmatullohi alayh: "Ilmni kim nafsni xorlab, tor maishat va ulamolarga xizmat qilib izlagan bo'lsa, o'sha muvaffaqiyat topgan", deb bezij aytmagan.

Ustozning haqqiga duoda bo'lish.

Abu Dovud Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qiladi:

"Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Kim sizlarga bir yaxshilik qilsa, uni taqdirlasin, agar taqdirlashga narsa topa olmasanglar, taqdirlab bo'ldim deb bilgunicha uning haqqiga duo qilsinlar", dedilar".

Muvaffaq Xorazmiyning "Imom Abu Hanifa manoqiblari" nomli kitobida keltiriladi: "Abu Hanifa rahmatullohi alayhi: "Men ustozim Hammodning hurmatidan uning uyi tomonga hech ham oyog'imni uzatmadim. Uning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko'cha bor edi. Hammod vafot etgandan buyon qachon namoz o'qisam, albatta, otam bilan uning haqqiga istig'for aytaman. Zotan, doimo menga ta'lim bergan yoki biror narsa o'rgatgan kishi uchun istig'for aytaman", degan ekanlar.

Abu Yusuf rahmatullohi alayhi: "Men ota-onamdan oldin Abu Hanifaning haqqiga duo qilaman", der edilar.

Imom Ahmad ibn Hanbal rahmatullohi alayhi shunday degan edilar: "O'ttiz yildan beri Shofe'iyning haqqiga duo qilib, istig'for aytmay turib uyquga yotmadim".

Barcha ilm ahlini, ustozlarni birdek hurmat qilish. Ba'zi kishilar o'z ustozini ulug'layman deb boshqa ahli ilmlarning qadrini tushurishga o'tib ketib qoladi. Bu hol mutaassiblik bo'lib, hurmatni ilmga emas, shaxslarga bog'lab qo'yadi. Bu ish shar'an halol emas, chunki u o'zaro nizoga, fitnaga olib keladi.

Sheriklarga go'zal muomalada, xayrixoh bo'lish. Darsdoshlar ustozning huzurida tug'ishganlardek gap. Ularga hurmat ustozga, ilm va ilm ahliga hurmat sanaladi.

Joy torroq bo'lganda bir-birlariga joy berishlari ham odobdan sanaladi. Alloh taolo Qur'oni Karimda ayni odobni ta'lim bergan:

"Ey iymon keltirganlar! Agar sizlarga majlislarda joy bering, deyilsa, bas, joy bering, Alloh sizlarga ham joy beradir. Agar turing deyilsa, turingki, Alloh sizlardan iymon keltirganlarni, xususan, ilmga berilganlarni darajalarga ko'tarur. Alloh nima amal qilayotganingizdan xabardordir" (Mujodala surasi, 11-oyat).

Xulosa qilib aytganda, muallim ham, talaba ham ilmga nisbatan yuksak odob-axloq bilan munosabatda bo'lishi lozim. Yuqorida zikr qilingan barcha odob va ko'rsatmalar faqatgina ilmning ehtiromi yuzasidan tavsiya qilingan. Bugungi kunda ularni o'rganib, amalga oshirishga juda ham muhtojmiz. Ajab emaski, ana o'shanda ulug' ajdodlarimizga nasib etgan ilm va fazilatlar bizlarga ham muyassar bo'lsa.

**Hasanxon YAHYO ABDULMAJID**
**("O'zbekiston talabasi" uchun maxsus)**

# "YUTQAZSANG, ONANG YIG'LAYDI..."

Bu galgi qahramonimiz sportning boks turi bo'yicha 2022-yil bo'lib o'tgan Osiyo chempionati g'olibi, 2021-yil harbiylar o'rtasida o'tkazilgan Jahon chempionatining oltin medal sohibi, 2023-yil Toshkent mezbonlik qilgan boks bo'yicha Jahon chempionati bronza medali sovrindori – Lazizbek Mullajonov. U 1999-yilda Farg'ona viloyatida tavallud topgan. Boks bilan shug'ullanishni 13 yoshida boshlagan Lazizbek hozirda terma jamoamiz safida og'ir va super og'ir vazn toifasida tashkil etilayotgan milliy hamda xalqaro turnirlarda muntazam ishtirok etib keladi.

## Yoshlikda futbolga qiziqishim kuchli bo'lgan...

Sport bilan shug'ullanishni futboldan boshlaganman. Chunki yoshligimda futbolga qiziqishim juda kuchli bo'lgan. Boksga kirib kelishimga esa birinchi murabbiyim Sherzod Husanov sababchi bo'lganlar. Futbol bilan shug'ullanib yurgan paytlarim ustozim menga "Laziz, harakatlaring, jismoniy holating, texnikang yaxshi, sen o'zingni boksda sinab ko'rishing kerak. Futbol jamoaviy o'yin, unda sen yaxshi o'ynaganing bilan qolgan jamoadoshlaring harakat qilmasa, natija bo'lmaydi. Boks esa individual sport turi. Unda hamma o'zi uchun harakat qiladi", deganlar. Shundan keyin 13 yoshimdan boshlab sportning boks turi bo'yicha shug'ullanishni boshladim. Boshida futbolga bo'lgan qiziqishim kuchliligi uchun boksga uncha ko'nikolmadim. Keyin mashg'ulot jarayonlarini kuchaytirib, musobaqalarga chiqib g'olib bo'la boshlaganimdan so'ng boksga qiziqishim orta boshladi. Shundan buyon boks bilan muntazam shug'ullanib kelaman.

## Talaba bo‘lishni juda ham istaganman...

Talabalik baxtiga erishishimga ham sportdagi muvaffaqiyatlarim sabab bo‘lgan. 2017-yil yoshlar o‘rtasidagi Osiyo chempionatida ishtirok etib, yo‘llanma yutib olganman. Bu esa menga Qo‘qon davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya yo‘nalishiga grant asosida kirishga imkon bergan. Talaba bo‘lishni juda ham istaganim uchunmi, yo‘llanmani qo‘lga kiritgan paytim rosa xursand bo‘lganman. To‘g‘ri, ko‘p vaqtim terma jamoa bilan yig‘inlarda o‘tardi, shu sababli ba’zan 1-2 oylab o‘qishga bora olmasdik. Lekin yo‘nalishim jismoniy tarbiya bo‘lib, bizda ko‘proq amaliy bilimlar berilgani uchun o‘qish bilan bog‘liq hech qanday muammolar bo‘lmagan. Talabalikdan ham o‘ziga xos xotiralar qolgan.

# Toshkentdagi Jahon chempionati haqida

Toshkentdagi Jahon chempionati juda ham esda qolarli o'tdi. Chempionatga yurtimiz mezbonlik qilishi haqida eshitganimda, g'olib bo'lish ishtiyoqim yana ham kuchayib ketdi. Chunki yurtdoshlari, oilasi, muxlislar oldida ular bilan birga g'alabani nishonlashni, yurti bayrog'ini yuqoriga ko'tarishni har bir sportchi orzu qiladi, menimcha. Eng avvalo, chempionatning tashkiliy jarayonlari juda ham yuqori saviyada bo'ldi. Allohga shukrki, men ham terma jamoamizni umum jamoa hisobida ham 1-o'rinni olishiga o'z hissamni qo'shib, bronza medalga ega chiqdim. Bizga nasib etgani shu ekan, bundan juda ham xursandman. Bu chempionat menga hech qachon unutilmas damlarni sovg'a qildi. Albatta, bu yutuqlarga erishishimda meni qo'llab-quvvatlagan barchaga, biz bilan birga mehnat qilayotgan ustozlarimga, ortimdan duo qilib turgan ota-onamga kattakon rahmat aytaman.

Musobaqada qatnashish uchun ketishimdan avval otam yonlariga chaqirib "O'g'lim, senga oilang, qishlog'imiz, butun O'zbekiston ishonmoqda. Sen uchun shuncha qo'llar duoga ochilgan. Iltimos, oxirigacha g'alaba qozonib, hammamizni xursand qil, ishonchimizni oqla. Sen yutqazsang, onang yig'laydi, onangni yig'latma, o'glim", dedilar. Otamning bu gaplari menga juda katta mas'uliyat yukladi va ringga har doimgidanda ko'proq ishtiyoq bilan chiqishga undadi. Albatta, hech qaysi o'g'il onasining yig'lashini istamaydi. Men ham bu uchun qo'limdan kelganicha harakat qildim.

# Erishganlaring emas, yo‘qotganlaring seni chempion qiladi

Har bir ishning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bo‘ladi. Oson erishilgan narsalar esa tez qo‘ldan ketadi. Chempionlik ham xuddi shunday, sen qanchalik qiynalib, ko‘p mehnat qilsang, g‘alaba ham shuncha totli bo‘ladi. Avvalo, har bir sportchi ham chempionlikka Alloh nasib qilgani uchun erishadi, shu yo‘lda mehnat qilsang, Alloh, albatta, seni mukofotlaydi. Menimcha, erishganlaring emas, yo‘qotganlaring seni chempion qiladi. Yiqilganda qayta tura olish va xatolarini bartaraf etib, yo‘lida davom etish sportchining eng katta g‘alabasidir. Men ham o‘z ustimda yana-da ko‘proq ishlab, 2024-yil Parijda bo‘lib o‘tadigan Olimpiya o‘yinlari chempioni bo‘lishni niyat qilganman.

# Qoyilmaqom natija

Toshkentda bo‘lib o‘tgan jahon chempionatlarining eng katta voqealaridan biri, aynan, Lazizbek Mullajonov bilan bog‘liq. U 92 kg vazn toifasida Kubalik tajribali bokschi, besh karra Jahon, ikki karra Olimpiya chempioni Xulio Sezar La Kruz bilan ringga chiqdi. Bokschimiz raqibi ustidan 4:1 hisobida g‘alaba qozonib, La Kruzni musobaqadan chetlatib yubordi.

**Sadoqat RASHIDOVA**

# HECH KIM MAQTAMAYDI...

Bizda negadir hamma nasihat qilishni yaxshi ko'radi. Bir davrada uch marta uylangan tanishim ayol zotini qanday baxtli qilish haqida uzoq va'z o'qidi.

Turmush qurish ham tarvuz tanlashdek gap ekan – ichi qandayligini oldindan bilolmaysan.

Psixolog bu hayotda hech kimdan hech narsa qarz emassiz, deya naq bir soat va'z o'qib, suhbat so'ngida mendan 500 ming so'radi.

Bir paytlar men beg'ubor va begunoh edim, keyin eng yaqin do'stimni uchratdim...

Har yoz kelganda chet elga ta'tilga boraylik, deb xarxasha qiladigan oyligimga qarab: uyda o'tir, katta bo'lsang borasan, deb qo'yaman.

Oila qurish uchun chiroyli, pazanda, o'qimishli, hunarli, odobli va badavlat qiz izlayapman. O'zim haqimda: onamning aytishlaricha judayam yoqimtoy ekanman.

Ukoldan emas, do'xtir kassaga yozib beradigan qog'ozdan qo'rqsangiz, demak, ancha ulg'ayibsiz!

O'zbek filmlari yoki kliplarida biror qahramon yo'l chetida tursa, ishqilib mashina urib ketmasin deb, yuragimni hovuchlab turaman.

Agar biror tanishingizga 2-3 marta ketma-ket qarz berib tursangiz, u keyingi ishlarini rejalayotganda albatta sizni hisobga oladigan bo'lib qoladi.

Odamlar "Qayerda ishlaysiz?" degan savolni ko'pincha sizga ko'rsatajak hurmatlarining darajasini o'lchash uchun beradilar.

– Erta bir kun sun'iy aql ishingizni olib qo'yishidan qo'rqmaysizmi?
– Umuman qo'rqmayman. Agar chindan aqlli bo'lsa, u bu oylikka ishlamaydi.

Qanchalik kech uylansang, uchrashuvlar shunchalik ishga kirishdagi suhbatga o'xshab boraveradi.

Tillaqo'ng'izni ko'rib hayratlanayotgan o'g'illarimga bolaligimda buning oyog'iga ip bog'lab uchirganman, desam, ikkovi menga xuddi jinoyatchiga qaragandek qaradi.

Mo'jiza ko'rishni istasangiz, katta ko'chaga chiqing: bunday haydovchi-yu piyodalar bilan tirik yurganimizning o'zi bir mo'jiza!

– Qamoqdan nega qochdingiz?
– Uylanmoqchi edim.
– Ozodlikni juda g'alati tasavvur qilar ekansiz.

O'zini ahmoqqa solish faqat aqllilarning qo'lidan keladi, ahmoqlar esa aqllilik qilishdan boshqasiga yaramaydi.

Laganbardor boshliqning hamma hazillariga kuladi. Tashkilotchi laganbardor esa barchani boshliqning hazillariga kulishga undaydi.

Agar kechasi ovqat yeyish mumkin bo'lmasa, unda nima uchun sovitkich ichiga chiroq o'rnatilgan?! Bu dunyo jumboqlarga to'la.

Katta bo'lish yomon ekan. Ovqatingni oxirigacha yeb qo'ysang ham, hech kim seni buning uchun maqtab qo'ymaydi.

Bugun savdo markazlarining birida ko'rib qoldim: kimdir oyoq kiyim narxnomasiga mening oylik maoshimni yozib qo'yibdi.

Bizdagi yemakxonalarda taomnoma aslida qaysi taomlarning yo'qligi haqida ma'lumot berish uchun ishlatiladi.

Hamma GAIlar "Ichganmisiz?" deb so'raydi, ammo birortasi "Bugun nima yedingiz?" deb asti so'ramaydi-ya!

Ishga kirishdagi suhbatdan:
– Avvalgi ishxonangizning rivojiga hissa qo'shish uchun nimalar qilgansiz?
– Bo'shaganman.

O'g'limga rasm darsidan o'zga sayyoralik suratini chizish aytilibdi. Chizib borsa, ustozi bunaqa o'zga sayyoralik bo'lmaydi, debdi.

– Bobom vasiyatnomasini o'ninchi marta qayta yozdi.
– Ayb o'zida – ona tili o'qituvchisiga uylanmasligi kerak edi...

Bir narsaga hayron qolaman: nega uyini ijaraga beruvchilar 1973-yildagi ta'mir holati uchun 2023-yildagi narxni talab qilishadi?

U erining oylik maoshini oxirgi tiyinigacha olib qo'ydi-da, gender tenglik ta'minlanmayotgani haqida feysbukda post yozishda davom etdi.

– Yoshlar aynib ketdi, kattalarga, ayollarga joy bermaydi!
– Amaki, siz bemalol o'tirib ketyapsiz-ku?
– Ha, ammo xotinim tikka oyoqda ketmoqda.

Shifokor: Tabriklayman, ancha sog'ayib qoldingiz, o'zgarish bor.
Bemor: Shu o'zgarishmi? 6 oy oldin Napoleon edim, hozir-chi, hech kimman.

**Mavlon MARASULOV**

**ERKIN A'ZAM**
O'zbekiston xalq yozuvchisi

# OTOYINING TUG'ILGAN YILI

## SHARTAKILIK QISSASI

(Oxiri. Boshi o'tgan sonlarda.)

Universitetdan chiqib, to‘g‘ri uyga keldim. Qariyb bir oy yolg‘iz yashab, uy jonimga tekkan edi – chor atrofini oldi terakzor baland imoratlar qurshagan maydon o‘rtasidagi, shiyponga o‘xshash, doirasimon suhbatxonaga borib, kaftimga iyak tiragan ko‘yi o‘yga cho‘mdim. O‘zimiz yashaydigan bino derazalariga boqarkanman, u yerdagi odamlar haqida o‘ylash maroqli tuyuldi.

Bu binoda istiqomat qiladiganlarning ko‘pchiligi ilmga aloqador: biri fan kandidati, biri fan doktori, dotsent, professor – xullas, mendek unvonsizi yo‘q hisob. Darvoqe, bor ekan: huv anovi, derazasiga yo‘l-yo‘l parda tutilgan uyda yashovchi qiz, Raxshona. Aytgandek, uning onasi ham chakki emas – “Katta tarixchi olim, fan doktori!” deyishadi. Shunday bo‘lsa kerak: ko‘zida qo‘shqat ko‘zoynak, atrofga vazmin nazar solgancha bir oz enkayib qadam tashlaydi.

Raxshonaning otasi Telman aka – arxeolog; ko‘pincha ekspeditsiyada bo‘lib, ikki-uch oyda bir keladi. Safardan qaytganida uylari shovqin-suronga to‘lib ketadi: bir hafta surunkasiga mehmondorchilik!

U yosh yigitlardek chaqqon, serharakat, sochida bitta ham oqi yo‘q, belida serbar kamar, doim korjomaga o‘xshash ixcham shim va charm kamzul kiyib yuradi. Shuning uchunmi, xotinidan ancha yosh ko‘rinadi.

Yangamning gapiga qaraganda, u Raxshonaga o‘gay: otasi qazilma payti tuproq bosib halok bo‘lgach, onasi erining do‘sti – mana shu Telman akaga turmushga chiqqan ekan.

Men shu paytgacha hali biror marta Raxshonaning ko‘zini ko‘rgan emasman: qachon qaramang, shildiroq qog‘ozga o‘ralgan, derazadek kattakon bir taxtani qo‘ltiqlagancha, qansharida gardishi yaltiroq havorang ko‘zoynak, xuddi tilla topadigandek yer suzib yuradi.

Raxshona menga yoqishini ich-ichimdan sezaman. Biroq uni ko‘rsam negadir rahmim keladi. Ha, rahmim! Bilaman, u mening mehrimga, shafqatimga muhtoj emas. Mutlaqo. Lekin... rahmim keladi: allanechuk shikasta, himoyasiz tuyuladi. Uni nimalardandir ogohlantirib qo‘ymoqchi, o‘zi bilmaydigan, balki sezmaydigan nimalardandir asramoqchi bo‘laman. Nochorligim – uning menga daxlsizligini o‘ylab o‘rtanaman. Zinapoyada u bilan izma-iz ko‘tarilganda beixtiyor orqasidan ergashib ketay deyman. Qo‘ysa, shu yo‘sin arshi a’loga qadar ham chiqib boraverishim mumkin. Ammo darhol o‘zimni tiyaman. Axir, u kimsan – fan doktorining qizi! Buning ustiga shunday suluv, shunday barno. Menga o‘xshagan uncha-muncha kimsalarni nazariga ilmas – biron bir amaldorning kechasi ham qora ko‘zoynak taqib uxlaydigan arzandasi bilan “yursa” kerak.

Bilmadim, Raxshona mendan hazar qiladimi yoki hadiksiraydimi, uzoqdan ko‘rdi deguncha ko‘chaning narigi betiga o‘tib oladi, zinada duch kelganimizda ham qo‘rqa-pisa chetlanib yo‘l beradi.

Ular bizdan bir qavat yuqori – xuddi tepamizdagi uyda turishadi. U yerdan ko‘pincha pianino tovushi eshitiladi. Qaysi kuni kechki payt xunobim chiqib konspekt yozib o‘tirganimda bu na’ma g‘ashimga tegdi-yu: “E, fan doktori bo‘lsang – o‘zingga, quloq-miyani tinch qo‘yasanmi, yo‘qmi!” deya bir boplab qo‘ygim keldi, to‘rtinchi qavatga ko‘tarilib, eshik yonidagi tugmachani zarda bilan qattiq-qattiq bosdim. Eshikni rangi o‘ngiganroq kaltagina atlas ko‘ylak kiygan, sochlari parishon Raxshona ochdi. Ichkaridan bahor chog‘i gulzorni oralaganda bo‘ladigan muattar bir hid ufurardi. Negadir daf’atan og‘iz ocholmay shoshib qoldim.

– Kechirasiz, pianinoni kim chalyapti? – debman bo‘g‘inim bo‘shashgancha.

– Sizga yoqdimi? – dedi Raxshona. Tilla suviga botirib olingan shildiroq qog‘ozni g‘ijimlasangiz qanday tovush chiqadi – ovozi o‘shanga o‘xshardi. – Kiring, chalib beraman, – deya u eshikni kattaroq ochib, taklif qildi.

– Yo‘q-yo‘q, rahmat. Men... – deb battar sarosimaga tushdim va sekin burilib, shalviragancha izimga qaytdim.

O‘shandan beri Raxshonani ko‘rganim yo‘q. Ko‘rsam, unga bir gap aytaman, deb o‘ylar, ammo qanday gap ekanini o‘zim ham bilmas edim. Nazarimda, u ham menga nimadir demoqchi bo‘lgan-u, aytolmagandek tuyulardi. Men unga nimadir deyishim kerak, u menga nimadir deyishi kerak – boshqa iloji yo‘q edi go‘yo!

Xuddi hozir Raxshona osmondan tushadigandek, kaftimga iyak tiragan ko‘yi g‘ayritabiiy bir telbalik bilan uning yo‘liga ko‘z tika boshladim.

Ba’zan birov haqida o‘ylab yoki gapirib turganingizda, uni juda ko‘rgingiz kelganida, sezgandek, o‘zi oldingizdan chiqib qoladi. Shunda, “Xizrni yo‘qlasak bo‘ladi...”, deb qo‘yadilar. Buni shunchaki tasodif deyish ham mumkin yoki – savqi tabiiy, ruhan muloqotda bo‘lish, ya’ni, ilmiy tilda “telepatiya” deb ataydilar. Qisqasi, kutish, astoydil istashda gap ko‘p.

Men hozir ayni shunday holatda edim. Xuddi Raxshona osmondan tushadigandek, g‘ayritabiiy bir telbalik bilan yo‘liga ko‘z tutib o‘tirardim: negadir shu tobda uni juda-juda ko‘rgim bor edi.

Ne ajabki, bir mahal... ro‘paradagi yo‘lakdan u chiqib keldi, Raxshona! Qo‘lida doimiy hamrohi – shildiroq qog‘ozga o‘ralgan kattakon taxtasi yo‘q, odmiroq kiyingan, bilagida zangori to‘rxalta.

O‘rnimdan qanday turib ketganimni, “Raxshona!” deb chaqirganimni bilmay qoldim. U atrofga alanglagach, meni ko‘rdiyu ikkilanibgina to‘xtadi. Yugurib oldiga bordim.

– Qayoqqa ketyapsiz? – dedim hovliqib.

– Nonga, – dedi u taajjub bilan.

– Nima, nonlaring yo‘qmi uyda?

– Nega, bor, – deya kulimsiradi Raxshona va allanechuk iymangan kabi davom etdi: – Non-ku bor, to‘g‘risi, o‘zim uyda o‘tirolmadim, nima uchundir ko‘chaga chiqqim kelaverdi.

– Sizni men chaqirdim, – dedim uni battar hayratga solib. – Ko‘rgim keldi.

– Qanday?.. – Raxshona menga bir zum anqayib turdi-da, qizargancha ko‘zini yerga oldi.

– Anovi taxtangiz qani? Doim ko‘tarib yurardingiz...

– Qanaqa taxta? Ha-a, podramnigim...

– Uningizda nima bor o‘zi? – deya atay so‘roqqa tutdim.

– Chizmalar. Loyiha, uylarning loyihasi-da.

– Bir o‘zingiz shuncha uyni ko‘tarib yursangiz polvon ekansiz, – dedim maqtab. U jilmaydi. Jilmayganda burnining ikki yonidagi chuqurchalar yanada botib, chehrasiga ma’sumona bir ko‘rk, joziba bag‘ishlardi. Biz ko‘cha tarafga yura boshlagan edik. – Men sizni konservatoriyada o‘qisangiz, sozandami, xonanda bo‘lsangiz kerak, deb o‘ylardim.

– Arxitektorman. Kelasi yil bitiraman. Pianino chalishimni aytyapsiz-da, shundaymi? Muzika maktabida o‘qiganman. Eshitgandirsiz, arxitektura – toshdagi muzika, degan gap bor... – Raxshona oldinga o‘tgancha, o‘ziga o‘zi gapirayotgandek shoshilmay, bamaylixotir so‘zlardi. – Men muzika eshitsam yoki pianino chalsam, kallamda har xil fikrlar tug‘iladi. Loyihalar-da, o‘sha siz aytgan uylar, boshqalar... Siz ham muzikani yaxshi ko‘rasizmi?

– Klassik muzikani, maqomlarni! – dedim nimagadir shama qilgandek o‘jarlik bilan. – Bilaman, ular sizga yoqmaydi. Sizga…

– Iya, nega? Aksincha, didimiz bir ekan. Radiodagi tungi kontsert, a?..

U kutilmaganda meni eski tanishidek yaqin olib gapirayotganini, o‘zini bunday erkin tutishi, ochiqligi – xullas, men o‘ylagan qizlar toifasidan emasligini ko‘rib, ajib hayratda qolgan edim. Men uni negadir doim osmonda yuradigan, kechalari tushiga faqat ertakdagi shahzodalar kirib chiqadigan oqbilak oyimqizlardan bo‘lsa kerak, deb taxmin qilardim. Yo‘q, o‘zimizga o‘xshagan yer odami ekan, o‘sha radiodagi tungi kontsertni u ham eshitarkan, to‘rxalta ko‘tarib nonga borarkan…

Dadillandim. Go‘yo Raxshonani ming yildan beri bilaman, go‘yo u menga sinashta – o‘zimni ana shunday favqulodda erkin, yengil sezardim. Ajabo, men hozir qiz bola bilan birinchi marta uchrashayotgandek, birinchi marta so‘zlashayotgandek hayajonda edim. Bas shunday ekan, munosabatni boshdanoq oydinlashtirib olish kerak, toki keyin, masala jiddiylashganda oqibati voy bo‘lib o‘tirmasin!

– Siz ham bironta aspirant bilan yurasizmi? – (Mayli, haqiqatning shunday qattiq-quruq, lekin zinhor-bazinhor ochiq bo‘lgani yaxshi.)

– Nega… aspirant?!

– Nima, o‘sha arzanda aspirant emasmi?

– Qanaqa arzanda? – Raxshona, hayrat ichra ko‘z soqqalari chiroyli bir aylanib, yelka qisdi. – Nima deyapsiz o‘zi?

– Kam ko‘rinasiz? – deya allanechuk yengil tortib gapni burdim.

– O‘zingiz doim osmonga qarab yurasiz-ku?

– Siz bo‘lsa yerga tikili-ib, xuddi oyog‘ingiz ostidan tilla chiqib qoladigandek…

– Ha-a, shuning uchun ko‘rishmas ekanmiz-da, – deb kulimsiradi Raxshona. – Keyin, rostini aytsam, men sizdan bir oz… nima desa bo‘ladi, qo‘rqardim-mi-ey. Xafa bo‘lmang-u, ko‘zingiz boshqacharoq, odam qarashdan cho‘chiydi, gunohkorga o‘xshab… Unaqa emas ekansiz-ku?

Ko‘cha boshiga yaqinlashib qolgan edik.

– Raxshona! – dedim shartta to‘xtab. – Menga tegmaysizmi?

– Nima-nima? – Raxshona yuzimga boqqancha angrayib qoldi. Keyin yosh boladek beg‘ubor jilmaydi. – G‘alati ekansiz-ku…

– Ammo, hozirdanoq aytib qo‘yay: bo‘lgan-turganim shu! Bittagina kostyum-shimim bor, besh-o‘nta kitobim. Zo‘r kitoblar!

– Iya, buning nima ahamiyati bor? – dedi Raxshona endi jiddiy tortib. – Lekin, siz aytgan qarorga kelishdan oldin odam bir-biri bilan tuzukroq tanishardi, bir-birining fe’l-atvorini o‘rganardi shekilli? Balki, men…

– Tushundim. Avval yurish kerak: kino, teatr, morojenoye degandek. Keyin – anhor bo‘yi, biror majnuntol tagida izhori dil… Shundaymi?

– Taxminan shunday, – deb jilmaydi Raxshona.

– Hammasi bo‘ladi! Qolaversa, hozir meni allaqachon muhabbat izhor qildi, deb tushuning. Kino, teatr, morojenoye – keyin. Xo‘sh, menga tegasizmi?

– Tavba. G‘alati ekansiz-a…

– G‘alatilarni yomon ko‘rasizmi?

– Yo‘-o‘q, gapimni tushunmadingiz.

– Endi tushunishga harakat qilaman. Xo‘p, bo‘lmasa, gap bunday: bugun tarix muzeyiga boramiz. Vaqtingiz qalay?

– Muzey?! Nega muzey, tarix muzeyi?..

– Bilasizmi, men ikki oydan beri o‘tmishda yashayapman: adabiyot tarixini, umuman tarixni o‘rganib chiqishga harakat qildim. Bugun ikkovimiz birga borib, u bilan xayrlashib kelsak, devdim. Kelajakni ham o‘ylash kerak-da, axir, bu yog‘i yosh o‘tib boryapti…

# Yozuvchi bisotidan

– Sekinroq, – dedim qo'llarim harakatga tushib. – Mening bir tanishim bor. Sizga o'xshab u ham shoirlik qiladi. Lekin she'rlari juda bemaza, bachkana...

– Endi-i, do'stim, ijod – murakkab jarayon. Bilasizmi...

– Bilaman! Ammo, o'sha tanishim yozgan telba-teskari satrlarning adabiyotga, ijod tushunchasiga nima aloqasi borligiga aqlim yetmaydi. Bu muqaddas so'zni ba'zi birovlar xor qilyapti-da. Ijod qilgan deb Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhorlarni aytsa bo'ladi. Bilishimcha, siz fan kandidatisiz, shundaymi? O'sha tanishim ham kandidat. Doktorligini tayyorlab, mo'maygina maoshni olib yuraversa bo'lmasmikan, deyman o'zimcha. Qiziq, go'yo u she'r yozmasa, adabiyot g'ariblashib qoladiganday! Bu – oddiy adabiyot ixlosmandining fikri, albatta. Adabiyot muxlisi sifatida men uni xalqning dushmani, degim keladi...

– Nima-nima?! – U titragancha ko'zoynagini qo'lga oldi.

Payrovni boy berdim – gap egasini topgan edi. Oshkora hujumga o'tishdan o'zga iloj qolmadi:

– Yo'q, men bunday demoqchiman: siz ertaga elikka kirasiz, biror gazeta yoki jurnalga redaktor bo'lasiz. Ham shoir, ham olim, deb ko'taradilar-da. O'shanda she'riyat torlik qilib prozaga, katta janrlarga qo'l urasiz. Kallangizga kelgan gapni yozib chiqaraverasiz – jurnalmi, gazeta qo'lingizda, nashriyotlar bilan aloqangiz zo'r. Sho'rlik kitobxonlar esa, yozganlaringizni o'qib, "adabiyot deganlari shu bo'lsa kerak, bosilib chiqibdi-ku", deb yurishaveradi. Bora-bora ularning didi

– Gaplaringiz shoirona, adabiyotchiligingiz ko'rinib turibdi, – dedi Raxshona boshini bir yonga qiyshaytirib. – Tarix muzeyiga ekan, bo'pti, borganimiz bo'lsin. Anchadan beri bormagan edim. Ayniqsa, hozir zarur, ba'zi bezaklarni ko'rib olishim kerak. Diplom ishim uchun. Faqat, biror soatlardan keyin uchrashsak, maylimi? Oyimlarga ovqat qilib qo'ymoqchi edim...

Biz avtobus bekatida ko'rishishga ahdlashib, xayrlashdik. Raxshona non do'koniga qarab ketdi.

Qiziq, u non uchun chiqib, men bilan uchrashdi – men bilan uchrashgach, nonga ketdi. Uylarida esa non bor...

Raxshona bekatga mendan oldin borib, kutib turgan ekan. Uzoqdan tanidim. Vujudimni yorug' bir his chulg'ab, entikib ketdim. Qarasam, yonida allaqanday ziyolibashara kimsa, so'zlashib turishibdi. Ziyoli tilla gardishli qimmatbaho ko'zoynak taqib olgan, boshida ixchamgina, chiroyli shlyapa, qo'ltig'ida semiz papka.

Raxshona meni unga tanishtirdi.

– O-o, qariyb hamkasb ekanmiz! – dedi ziyoli menga qo'l cho'zib. – Mana, siz kelguncha Raxshonaxonni zeriktirmay turibmiz.

U shu qadar yarashiqli kiyingan, shu qadar xushbichim, silliq ediki, beixtiyor uning qarshisida o'zimni juda ojiz, ayanchli sezdim. Bu ojizlik zum o'tmay alamzadaligu nafratga ham aylanib ulgurdi.

– Meni tanisangiz kerak – Badal Karomatman. She'rlarim, qo'shiqlarim radio-televizordan berib turiladi.

– Eshitganman, – dedim xotirjam gapirishga tirishib. – Siz bilan tanishmoqchi edim o'zi. – "Endi sen ilib ketmoqchimisan, kandidat-shoir?!"

– O-o, yana bir muxlis! – dedi u tilla tishlarini ko'z-ko'z etmoqchidek, Raxshonaga qarab tirjayarkan.

sizga moslashadi. “Adabiyotga xizmat qilish” bahonasida kitobxon saviyasini orqaga tortayotganingizni xayolingizga ham keltirmaysiz. Xo‘sh, bunday odamni, sizningcha, kim deb atash kerak?

– Kechirasiz-u, uka, kayfingiz borga o‘xshaydi, – dedi u nihoyat bo‘g‘ilib.

– Bayramlarda oz-moz ichaman.

– Bugun bayram qilgan ekansiz-da?

– Bayram qilsam arziydi, – dedim Raxshonaga nazar tashlab. U menga qiziqish bilan tikilgancha beozor kulimsirab turardi. – Afsuski...

– Afsuski, bayramingizni men buzib qo‘ydim, shundaymi?

– Nachora, – dedim, – sizlarning kasbingiz shu. Sizlar bayramlarni harom qilish uchun tug‘ilgansizlar, aslida. – Bu gapni aytishga aytdim-u, uning hozir qiz bola oldida meni yakson qiladigan bir gapga chog‘lanib og‘iz juftlayotganini ko‘rdim va shosha-pisha Raxshonaning tirsagidan oldim. – Omon bo‘lsinlar!

Biz ancha joygacha indamay bordik. O‘zimni gunohkor sezib, Raxshonaning yuziga qaray olmasdim; kutilmagan bu noxushlikdan ichimni xijolat, hadik kemirardi. Darvoqe, bekatni tashlab qayoqqa ketyapmiz? Nega u gapirmaydi? Tushunarli, hammasi tamom! Umid – norasida, murg‘akligidayoq bo‘g‘izlandi.

– Jim bo‘lib qoldingiz? – dedi Raxshona to‘satdan quvnoq ohangda. – Yoki mendan ham arazladingizmi? Men she’r yozmayman-ku?

– Yana buzib qo‘ydim, Raxshona!

– Nimani? Nimani buzdingiz?

– Eh! Bilaman, sizga ham yoqmay qoldim. Qancha urinmayin, baribir... Uxlasangu ertasi boshqacha odam bo‘lib tursang...

– Qanaqa odam?

– Boshqacha-da, silliqro-oq... Madhiddindek. Unchalik emas, albatta. Shunday bir kursdoshim bor. Doim jim yuradi, mo‘min-qobil. Ko‘ringandan kechirim so‘raydi. Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yaverganidan kostyumining yoqasi yaltirab ketgan...

– Siz-chi, siz nima qildim, deb o‘ylayapsiz?

– Men... ko‘rdingiz-ku! U bechora menga hech bir yomon gap aytmagan edi...

– Meningcha, to‘g‘ri qildingiz, shunday qilish kerak edi. U oyimlarning institutida ishlaydi, uyimizga kelib turadi. Oyim uni “diletant” deydilar. E, qo‘ying o‘shani, unuting!

“To‘g‘ri qildingiz, shunday qilish kerak edi”. Bu – men hali hech kimdan eshitmagan, lekin eshitish orzusida yurgan kalima edi!

– To‘xtang!

Raxshona to‘xtaydi, cho‘chib boshini ko‘taradi. Nigohida hayrat. Yuzini astagina kaftlarim orasiga olaman.

“Topdim! – deyman ichimda hayqirib. – Topdim!”

“Topdi-ing! – deya sado beradi ikki yondagi baland imoratlarning peshtoqlari, osmon, yorishgan ko‘ngildek oppoq bulutlar... – Topdi-ing!..”

Raxshonaning yuzini kaftlarim orasiga olaman. Kaftlarim orasiga olib, ko‘zlariga boqaman. Ko‘zlariga cho‘mib, dunyodagi bor narsami, dunyoning o‘zini ham unutaman – yuragimda yangi, porloq bir dunyo paydo bo‘ladi...

– Hey uyquchi, turing, biz keldik!

Tashqarida – ayvonchada yotibman. Charaqlab turgan quyosh nigohimni qamashtiradi. Bazo‘r ko‘z ochib, qorayib ketgan yangamni taniyman. Orqasidan akam ko‘rinadi. U deyarli o‘zgarmagan – o‘zi azaldan qora.

Oyog'imni choyshabga o'rab karavotdan pastga tushiraman. Akam kelib yonimga o'tiradi.

– Xo'sh, uka, ishlar qalay? Imtihonni topshirdingmi? – Birinchi savoli – shu.

– Topshirdim.

– Barakalla. Yana nima gaplar?

– Yana... Uylanmoqchiman, aka!

– O'-o', yangilik! Zo'r-ku! Uylan. Qiziq, kelin kim ekan?

– Raxshona.

– Qaysi Raxshona?

– Tepadagi. Opaning qizi. Pianino chaladigan.

– Hmm... Nima deymiz – yaxshi qiz, odobli qiz, onasi ham tuzuk ayol. Tag'in o'ylab ko'rish kerak. Qani, yangang bilan kengashaylik-chi. Bunday masalalarda uning didi o'tkir. Ho'v, Zubay, bu yoqqa kel, zo'r gap! Darvoqe, bunchalik tez? Ilgari hech gap yo'q edi shekilli? Ko'ngil, de? Ishni zimdan pishirib yurgan ekansan-da, hah, shayton! Mayli, meni ko'ndi, deb hisoblayver. Lekin, uylanish – jiddiy masala, uka. Bu ishda yengiltaklik ketmaydi. Keyin, u yoqda boboy-momoy turibdi. Ularning ham roziligini olish kerak, farz. Qolaversa, uka, hayotda muhimi uylanish emas. Muhimi – endi boshqacharo-oq, jiddiyro-oq, bosiqro-oq bo'lishing. Anov odatlaringni tashlab, a?..

"To'g'ri, – deyman ichimda akamning gapiga qo'shilib. – Uylanish – jiddiy masala. Bu ishda yengiltaklik ketmaydi".

Hammasi to'g'ri, hammasi ma'qul, ammo Ubaydullayevga aytib bergan o'sha sevimli rivoyatim-chi?..

Qadimda o'tgan bir podsho har kecha bir xil tush ko'rar ekan. Har kecha tushida quyosh yuzini qora parda to'sib, olamni zulumot bosar ekan. Bir gal shunday tush ko'rib alahlay-alahlay uyg'onib ketsa, g'oyibdan: "Ey, osiy banda! Kuning bitdi – ertaga quyosh tutiladi, saltanating yer bilan yakson bo'ladi. Najot yo'lini yolg'iz Ozodbosh degan juldurvoqi darvesh biladi", degan vahiy kelibdi. Darhaqiqat, ertasi quyosh tutilib, dunyoni qorong'ilik yutibdi. Vahimaga tushgan xaloyiq tomu toshga chiqib, qo'lga ilingan narsani taraqlatgancha xudoga iltijo qila boshlabdi. Podsho chora istab vaziru vuzaro, fozilu fuzalolarini yig'ibdi. Ular: "Shahanshohim, barchasi bekor, ana, qarang – quyosh charaqlab turibdi!" deya jon saqlashibdi. Shundan keyin podsho kimki "Quyosh tutildi", desa, boshini tanidan judo qilishga farmon beribdi. Buni eshitgan xaloyiq tomu toshdan tushib: "Quyosh charaqlab turibdi, quyosh charaqlab turibdi!" deya qo'l qovushtira boshlabdi. Ammo, baribir, quyosh yuz ko'rsatmabdi, mamlakatni zulmat qoplab turaveribdi. Podsho ne qilarga boshi qotganida huzuriga juldur kiyimli bir darvesh kelib, o'zini Ozodbosh deb tanishtiribdi va: "Ey shoh, sening fuqaroga o'tkazgan zulmingdan g'azablangani, uyalgani uchun quyosh yuziga parda tortdi. Toki, saltanatingda zulm hukm surar ekan, toki mamlakatdan makru riyo, xushomadu yolg'on arimas ekan, quyoshni ko'rmaysan, toabad ignaning uchidek nurga zor o'tasan. Tezroq ko'zingni och, yo'qsa, saltanating yakson bo'ladi", debdi. Podsho darveshga hayot va'da qilib, so'zidan qaytishni so'rabdi. Biroq darvesh: "Yolg'on bilan jon saqlab yurgandan

– rost aytib, hur o'lgan yaxshi", deb javob qaytaribdi. G'azablangan podsho uni qatlga buyuribdi. Ertasi huzuriga Ka'badan qaytayotgan yetti ziyoratchi kelib, sahroda boshdan-oyoq oppoq kafan yopingan bir odam: "Quyoshning yuzi qora! Quyoshning yuzi qora!" deya hayqirgancha mashriqqa qarab ketayotganini aytibdi. Buni eshitgan podsho: "Evoh, baribir saltanatni darvesh aytgan illatlardan xalos etolmasman. Bas, go'ristondek saroyda ko'rshapalak bo'lgandan hur darveshu devona bo'lib bosh olib jo'naganim afzal", deya toju taxtini tark etib, juldur libosda sahroga chiqib ketgan ekan...

Hammasi to'g'ri, hammasi ma'qul, ammo ana shu rivoyat...

Xullas, endi uylanaversam bo'lar: adabiyot tarixi imtihonidan o'tdim; shu imtihon sabab ancha-muncha achchiq-chuchuk tarixni ham boshdan kechirdim; eng asosiysi – meni tushunadigan, ko'nglimdagi odamni topganga o'xshayman... Uylangach, anov odatlarimni tashlab, akam aytgandek, boshqacharo-oq, jiddiro-oq, bosiqro-oq bo'laman.

Lekin, bilaman, bular hali holva, hali yo'limda imtihonlar ko'p, juda ko'p. Bilaman, "Iskandarning shoxi" qabilida biror ishkal qilib, kelajakda hali necha-necha qatla olovli chohdan – kimdir yaqin borishga ham hadiksiragan, kimdir ochiqdan-ochiq chekingan, kimdir mutlaqo yo'lamagan chohdan sakrashimga to'g'ri kelar va, tabiiyki (oldindan aytish qiyin), ko'p martalab qulab, o't ichida qolarman. Bilaman, buni eshitib, do'stu dushmanim – har biri o'z fikrini aytadi.

O'shanda kim nima deydi?

Tog'am onamga: "Salom berdi-ik, opajon! Men nima degan edim?.."

Onam: "Sho'rimga tug'ilgan ekan-da bu bola, boshimni qaysi toshga uray?"

Akam: "Uka, uka-a! Necha marta aytdim..."

Bo'ston, Javliboy va Marat: "Ahmoq edi, ahmoqligicha qolibdi. Battar bo'lsin!"

Madhiddin: "Ey, yashashni bilmagan galvars!"

Akbarova: "Ujas! Tez Matluga yetkazish kerak!"

Matluba: "Esingdami, Nazi (Vazir, Manzur), o'zi sag'al anaqaroq bola edi, yaxshiyam o'shanda tegmagani-im..."

Ahmadxonov: "Ha-a, shunday bir bola bor edi. Xudo urgan sarkash, shakkok edi. Mana, oqibati..."

Ubaydullayev: "Ajablanadigan joyi yo'q, o'zi olov edi – o't o't bilan o'ynashadi-da. Bunaqalar kerak, oh, ko'p kerak! Lekin, har qalay, uloqqa kirgan chavandoz boshini ham o'ylagani ma'qul – uloq mingta, bosh esa bitta!"

Raxshona – yonimda bo'ladi!

Bilaman, taxminan shunday deyishadi. Nachora! Birov o'sha mash'um chohni osongina aylanib o'tar (Bo'ston, Marat), birov unga mutlaqo yo'lamaslikni afzal ko'rar (Madhiddin) – men esa sakrayman, kimlarningdir hadiksiragani, chekingani, mudabbirlik qilganiga qasdma-qasd sakrayman – ehtimol, o'shalarning o'rniga, o'shalarning o'zi uchun! Axir, kimdir... O'sha "kimdir" men bo'lsam ne tong?! Har kimning o'z yo'li, o'z a'moli. Qolaversa, "bunaqalar kerak, oh, ko'p kerak!" deguvchi Ubaydullayev haqmasmikan?

Biroq, valine'matim aytishi mumkin bo'lgan boshqa bir gap meni qiynaydi: "Uloqqa kirgan chavandoz boshini ham o'ylagani ma'qul – uloq mingta, bosh esa bitta!"

Bitta, bit-tagina!

...Darvoqe, Mashrabning oti nega – Mashrab?

**1977-yil**

## MAHLIYO ASQARALIYEYA:

# "QADRIYATLAR BILAN QIMMATLIMIZ..."

# O‘ZIM HAQIMDA...

1996-yil 26-noyabrda Farg‘ona viloyatida tug‘ilganman. Asli vodiylik bo‘lganim bilan bolaligim Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on qishlog‘ida, buvijonim bilan o‘tgan. Ota-onam shaharda ishlardi. Maktab yoshiga yetganimdan so‘ng meni ham poytaxtga olib kelishgan. Maktabda a’lochi o‘quvchi bo‘lganman. Barcha fanlardan yaxshi o‘qiydigan, namunali qiz edim. Lekin institutga kelib, bu xislatlarim biroz kamayib ketdi. Tushundimki, aslida baho muhim rol o‘ynamaydi, shunchaki o‘qish emas, uqish ham kerak ekan.

Bilim olishimda otamning katta hissasi bor. Har doim “Yaxshi o‘qisang, yaxshi yashaysan. Kelajagim chiroyli bo‘lsin desang, yaxshi o‘qi. Ilm olgan kam bo‘lmaydi”, deb nasihat qilardi. Shunday gaplarni eshitaverib, bolaligimdan menda yaxshi o‘qib, husnixatim chiroyli bo‘lsa, meni maqtaydilar, biror olimpiadada yutsam ota-onam xursand bo‘ladi, degan fikrlar miyamga o‘rnashib qolgan. Shu tariqa bu fikrlar, yoshim ulg‘aygani sari ortib boraverdi. Institutga kirganimdan keyin ham televizorda chiqsam, otam men bilan faxrlanadi, insitutdan faxriy yorliq, tashakkurnoma olib kelsam mendan faxrlanadilar degan fikr haligacha qolgan. Umuman olganda, biz farzandlarning yutug‘imiz, ota-onamizning biz bilan faxrlanib yashashi ekan. Bolaligimda ota-onam meni turli to‘garaklarga olib borishardi. Fizika, matematikadan tortib raqs mashg‘ulotlarigacha. Lekin hech birini ko‘ngildagiday eplay olmaganman. Aslida kichkinaligimdan kinolarga mehrim boshqacha edi. Lekin bu haqda uydagilarga aytishga uyalardim...

Meni to‘garakma-to‘garak sudrab yurishlar jonlariga tegdimi, nihoyat, o‘zing istagan kasbni tanla, deyishdi. O‘sha paytda san’at institutiga topshiraman deganimda, oilamdagilarning jim bo‘lib qolgani hali ham ko‘z oldimdan ketmaydi. Ammo qarshilik qilishmadi. Ikki oydan so‘ng o‘qishga kirganimda ham suyunishmadi. Bu g‘alati kayfiyat oilamizda birinchi ishimni ekranda ko‘rgunlariga qadar davom etgan. Shundan so‘ng endi kinoda ijod qilib keta olishimga ishonishgan.

# YASHASH UCHUN SAHNADAGI MAYDON KENGROQ

Talabalik paytlarim men uchun juda ham o‘zgacha palla. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining rejissyorlik yo‘nalishida o‘qiganman. Diplom bo‘yicha mutaxassisligim rejissyorlik. Talabalik paytlarimda qisqa metrajli filmlar ham suratga olganman. Aslida rejissurani emas, aktyorlik mahorati yo‘nalishini tanlamoqchi edim. Lekin men institutga topshirmoqchi bo‘lgan yillarda aynan aktyorlik mahorati bo‘yicha fakultetlarga topshiruvchilar juda ko‘p bo‘lgan. O‘sha payt o‘zimga bo‘lgan ishonchim juda ham past edi. Bu fakultetga kira olmayman, deb qo‘rqqanman. Shu sababdan rejissura yo‘nalishiga topshirdim. Chunki rejissyor ham o‘z ishini, ham aktyorlikni qila oladi. Aktyor har doim ham rejissyor bo‘la olmaydi. Lekin ko‘nglimga aktyorlik ancha yaqinroq.

Hayotda xandon otib kula olmasangiz, sahnada kulishingiz mumkin. Real hayotda to‘kolmagan ko‘z yoshlaringizni sahnada chiqarishingiz mumkin. Hayotda dilingizni og‘ritgan insonlarga, siz menga shunaqa qildingiz, deb ayta olmagan gaplaringizni sahnada ayta olasiz. Tilingiz, dilingiz botina olmagan so‘zlarni sahnada ayta olasiz. Yashash uchun sahnadagi maydon kengroq, deb o‘ylayman. Bu sohaga nisbatan mening qarashim, tushuncham, hurmatim cheksiz. Bu sohaga shunchaki kasb sifatida qaray olmayman. Yurakdagi ayta olmagan so‘zlaringizni aytish mumkin bo‘lgan kasb. Tuyg‘ular bilan bog‘liq kasb. Insonni eng qimmatli, nozik, tilga olinganda inson his qilib-his qilmas tuyg‘ularini sezdiradigan kasb bu – aktyorlik.

## HAMMA BIR KISHI UCHUN EDI

Talabalik davrim men uchun katta maktab va eng shirin xotiralarga boy davr bo'ldi. Aynan shu paytda qisqa metrajli filmlarim tufayli ko'plab chet mamlakatlarga bordim. Yosh ijodkor sifatida tanilishimga talabalik davrim, ustozlarimning menga bergan bilimlari sabab bo'ldi. Kursdoshlarimiz bilan juda ahil edik. O'zi guruhda o'n talaba edik. Sakkiz o'g'il bola, ikki qiz bo'lganmiz. Shu darajada ahil bo'lganimizdan, 5 baho olsak, hammamiz birga 5 olardik, 2 baho olsak, hammamiz birga 2 olardik. Darsga kech qolsak, birga kech qolardik.

## PAYTI KELGUNCHA JIM TURAMAN

Men fikrimni teran, ravon ayta olaman. Lekin buni qilmayman. Kun keladi, men o'sha ayta olmagan, aytishim kerak bo'lgan gaplarimni ayta oladigan darajaga yetib kelaman. Ilm shunday narsaki, izlanganingiz sari siz bilmagan bilimlar chiqib kelaveradi. Qachonki, ilmimni mustahkam qilib, qaysidir darajaga chiqqanimdan so'ng gapiraman. Bu o'zimga qo'ygan prinsipim. Shu sababli biror film haqida, biror aktyor yoki aktrisaning ijrosi haqida mendan fikr so'rashganda men ochiqchasiga fikrimni aytmayman. Lekin o'zim uchun bu narsani bilib, ya'ni mana bu yerda to'g'ri qilgan, mana bu yerda sal boshqacharoq bo'lishi mumkin edi, degan xulosalarni o'zim uchun qilib olaman. Lekin bu xulosalarni hammaga aytishdan biroz yiroqman. Yosh aktrisalar, aynan o'zimning tengdoshlarim haqida aytadigan bo'lsam, biz har doim eng yaxshisi bo'lishga harakat qilyapmiz. Raqobat bor joyda o'sish bo'ladi. Kasbini haqiqatan qattiq sevgan aktyor va aktrisalarni hurmat qilaman. Chunki, ular kasbini qay darajada bilishidan qa'ti nazar, sevsa – mehnati orqali katta cho'qqilarga erisha oladi. Shu jumladan men ham. Hozir ma'lum bir darajaga chiqa olmagan bo'lsam-da, kasbimni sevganim sababli mahoratimni oshiraman, mehnat qilaman va albatta maqsadimga erishaman.

# KINOGA AYOL REJISSYORLAR KERAK

Ba'zan shunday paytlar bo'ladiki, hamma narsa bir sening boshingga yog'ilib kelayotgandek tuyiladi. Nosamimiy munosabat, nohaqliklarga chiday olmayman. "Qaniydi, o'g'il bola bo'lsam-u, yoqalashib ketsam", deyman shunday paytlar. So'ng ustozimga telefon qilaman. Go'yo boshqa odam haqida gapirayotgandek muammoni aytaman. Ustozim "Qiz bola kino dunyosida kuchli bo'lishga majbur", deydi. Shunda ko'z yoshlarimni artgancha, yana syomka maydoniga qaytaman.

Suratga olish jarayonlarida qiynalishim rost. Qiz bola bo'lganingiz uchun sizni avaylashlari, aytgan topshiriqlaringizni so'zsiz qilishlari mumkin. Lekin kezi kelganda, qiz bola-ku, nima ham kelardi qo'lidan, deyishlari bor. Film syomkasida bir rassom bilan ishlay boshlagandik, ikkinchi kundan keyin hech qanday ogohlantirishsiz yo'qolib qoldi. O'ylaganmanki, agar o'g'il bola bo'lganimda, u bu ishini qilmagan, hech yo'q ogohlantirgan bo'lar edi. Mana shunaqa katta-kichik muammo-(cha)lar uchragani sabab balki bugun o'zbek kinosida ayol rejissyorlar sanoqlidir. Aksariyat ayol rejissyorlarning filmlarida birinchi o'rinda tuyg'ular turishini sezganman. Insoniyat haqida aytilgan rost gaplar har doim qadrli va qimmatli bo'lib kelgan. Ayol kishi esa tuyg'ular borasida hatto kinoda ham alday olmaydi. Shu bois qanchalik qiyin bo'lmasin, kino dunyosiga ayol rejissyorlar kerak.

# O'TISH DAVRI

Bugungi kunda o'zbek kinosi qaysidir ma'noda, haqiqatan orqaga "yurdi" deb hisoblayman. O'zbek kinosini yashashga harakat qilayotgan jonli mavjudotga o'xshataman. Kino hozir o'tish davri jarayonida. Biz aktyorlar uchun maza qilib ijro etadigan, bor mahoratini ishga soladigan rollar yo'q. Aktrisa sifatida umid qilaman, o'zbek kinosi baribir bir kuni o'z o'rniga qaytishiga ishonaman. Uni qayta tiriltirishga, hayotga qaytarishga biz yoshlar bor kuchimiz bilan harakat qilamiz.

# SAN'AT QUDRATI

She'riyat. She'rlar eng nozik tuyg'ular, dardlardan tug'ilgan misralar deb hisoblayman. Dardsiz qalam tebratilmaydi. Bir og'riq bor ekanki, shoir qalamini tebratib, dardni so'z orqali qog'ozga tushiradi. Qanchalar go'zal, tasavvur qiling. Alloh tomonidan majoziy nur shoirning qalamiga baxshida qilinadi-ki, go'zal jumlalar, satrlar yaraladi. She'riyatning o'zga bir olami menga boshqacha zavq bag'ishlaydi. San'at insonning yuragiga ta'sir o'tkaza oladigan vosita deb hisoblayman. Xoh u kino, xoh u she'riyat bo'lsin. Musiqani sevmaydigan, kinoni sevmaydigan inson bo'lmasa kerak. Mayli, kinoni sevmas, ammo musiqani tinglaydi. Musiqani sevmasligi mumkin, ammo she'r o'qiydi. Demak, inson qo'shiq tinglayaptimi, film ko'ryaptimi uning ichidan o'zini topa olyapti. U o'zi tomosha qilayotgan film bilan so'zlashayapti. Umuman, san'atning har bir turi inson bilan so'zlashadi. Uni tinglaydi. Real hayotda buning teskarisi bo'lishi mumkin. Lekin majoziy ma'noda qaraganda, aslida inson o'z dardlarini qo'shiqqa, kinoga aytib beradi. Odam ichidagi g'uborlarini chiqarib tashlash uchun san'atning har qanday turi bilan suhbatlashadi. Raqsni olaylik. Inson raqqos bo'lmasa ham raqsga tushganda maroq bilan o'ynaydimi? Demak, u so'zlashayapti. U ichida aytmoqchi bo'lgan-u, aytolmagan, iymangan, qo'rqqan, uyalgan gaplarini raqs bilan chiqaradi. Qarang, san'atning kuchini. San'at qudratini ta'riflashga til ojiz.

# MADANIY DIDNI YO‘QOTYAPMIZ

Bugungi yoshlar nimalarga erishyapti-yu, nimalarni qo‘ldan boy bermoqda? Keling, o‘zimdan misol qilib aytaman. Avvalo, erinchoqman. Buni tuzatish uchun ko‘p harakat qilaman. O‘zimni-o‘zim urishaman, tergayman, pand yeganimda aynan shuni sabab qilib keltiraman. O‘zimni jazolay olish xislatim ham bor. Xayolimdan, shunday gap o‘tadi: Uxlasang yutqazasan! Nimadan yutqazaman? Masalan, bir kunimni olaylik. Nima ish qildim? Aynan san’atim uchun, tajribamni oshirish uchun? Bugun internet juda rivojlandi. Hozir mashhur bo‘lish juda oson. Mashhurlikning qadri qolmadi, deb o‘ylayman. Oson yo‘l bilan topilgan mashhurlik juda ham kam yashaydi. Chin mehnat, qiyinchilik bilan erishilgan mashhurlikning umri uzoq bo‘ladi. Biz yoshlar didimizni boy beryapmiz, deb o‘ylayman. Ya’ni madaniy did. Biz bugun instagram olamida nimani ko‘ryapmiz? Ular bizga nima beryapti? Ha, foydalilari ham bor. Lekin shu qatlamning ba’zi bir taraflariga qaraydigan bo‘lsak, kurakda turmaydigan, vijdon ko‘tarmaydigan didsizlikka tomon ketayotgandekmiz. Ba’zan instagram olami rivojlanib ketgan paytga, mening ijodim to‘g‘ri kelib qolganiga xafa bo‘laman. San’at degan tushuncha bilan ijtimoiy tarmoqlardagi ba’zi bir didsizliklar qorishib ketayotgandek. Aslida, ikkisi bir-biridan juda uzoq bo‘lishi kerak. Bugun biz innovatsion zamon deymiz, zamon bilan hamnafas bo‘lish kerak deymiz. To‘g‘ri, zamon bilan hamnafas bo‘lish kerak. Ammo qadriyatlarni esdan chiqarish kerak emas. Chunki, qadriyatlar bilan qimmatlimiz. Aslida qadriyatlar bilan zalvorimiz bor. Bir yosh sifatida yo‘qotayotgan narsalarimiz orasida, ming afsuslar bilan aytaman, san’atning qadri, madaniy did ham mavjud.

**Aziz ABDUMALIK**
**yozib oldi**

# “DIYDOR”DAN MINNATDORMAN

Talabalik paytlarim “Diydor”da ishlayman deb niyat qilardim. Bordim, javobsiz qaytdim, bordim, yana qaytdim va 3 yil avval men mana shu teatrga qabul qilindim. Sahna, undagi boshqacha hayot – hammasini shunchaki so‘zlar bilan ta’riflab bera olmayman. Kichkinagina, ammo fayzga to‘la dargoh. Men shu dargohda unib-o‘sdim, u meni avaylab-asrab kasbim yo‘liga olib chiqdi. Sahnada nimanidir eplay oldim, nimadir esa qo‘limdan kelmadi. Men “Diydor”ni topdim, unda yuragimga yaqin insonlarimni topdim. Sevgan kasbingizda ishlasangiz, hech qanday moddiy manfaat ko‘zga ko‘rinmaydi deyishardi. “Teatr, teatr deysan, bo‘ldi-da” degan gaplarni oz eshitmadim. Lekin, kecha chiqara olmagan holatimni bugun qila olarmikinman deb repetitsiyaga borish, spektakl oldi kulis ortida o‘tirib “Yo Alloh, o‘zing qo‘lla, kasbim yo‘lida yuzimni yorug‘ qil”, deya ming hayajon bilan yo kulib, yo yig‘lab tomoshabin qarshisiga chiqish... Bularning hammasi menga zavq bag‘ishlardi. Kezi kelsa, teatrni xafa qildim, kezi kelsa, o‘zimga ishonib-ishonmay men borman deb oldinga chiqdim. Sahna, kulis orti, personajlarim yaxshi-yomon kunimda men bilan birga bo‘ldi. Rasman ishdan bo‘shash uchun ariza yozar ekanman, hali sahna ma’suliyatini tushunmagan bir talaba qizcha “Diydor”ga qabul qilinganidagi xursandchiligini esladim. Arizani yozib, sahnaga chiqdim, “Hammasi uchun rahmat” deb boshimni egdim. Har bir ishda bir hikmat borligini qayta-qayta takrorlayapman. Demak, hammasi yaxshilikka. San’atni, sahnani qadrlashni o‘rgatgan insonlar, sahnada menga yelkadosh bo‘lgan personjalarim va qadrdon tomoshabin, “Diydor” – sizdan minnatdorman.

## MUHAMMAD SIDDIQ:

# "ENDI KUZGA QOLDI QIZG'ALDOQ SAYLI..."

Muhammad SIDDIQ – 2000-yil Farg'ona viloyati Toshloq tumanida tug'ilgan. "Yohu" va "Dugoh" nomli she'riy kitoblari chop etilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil oladi.

* * *

*Yaproqlar qoniga indi yashillik,*
*chug'urchuq in soldi loy-u cho'p, xasdan.*
*Hech kim qilmasa-da endi qarshilik,*
*baribir bahorga teginolmasman.*
*Ruhim qatlariga xazonlar qular,*
*endi kuzga qoldi qizg'aldoq sayli.*
*Ko'z oldimdan o'tar –*
*varragim bilan*
*uchib ketayotgan bolalik paytim...*
*Ertakka aylandi ertam, ey gulim,*
*artolmam ko'zingdan yig'i g'uborin.*
*Qo'msayman tonggacha shiftga termulib,*
*kaftimni kuydirgan kulcha iforin.*
*Bu bog'lar – ship-shiydam,*
*kelma, payhondir!*
*Yoshlik, diydoringga to'ya olmasman.*
*Buvim chakkasiga taqqan rayxonni*
*loaqal qabriga qo'ya olmasman!*
*Shu bo'lsin dunyoda xolis Jabbordan*
*bari gunohimga olgan jazoyim.*
*Ravo ko'rmam,*
*hech bir kasga bahorda*
*Bahorni sog'inib o'tmoq azobin...*

* * *

*Yana qaytar bo'ldim,*
*Ey ona tuproq,*
*Poyingga yil sanab,*
*Dard terib qop-qop.*
*Ortimda – yastangan chaman-u so'qmoq,*
*Oldimda – yanada og'irroq azob!*
*Kazzoblar oshimga ko'z olaytirgan,*
*Baxtimga chang solgan nechalab razil?*
*Bilmadim, qismatim kim qoraytirgan,*
*Qayda qalbim chopgan ul yorug' manzil?!*
*Yana aytar bo'ldim*
*Senga baytlarim,*
*Yana tutar bo'ldim qat-qat qo'shiq, kuy,*
*Men uzoq safarda yurgan paytlarim,*
*Kim seni bag'riga bosdi, ota uy?!*
*Ey jon, desam jonim kuyar har qachon,*
*Borlig'im g'amxona –*
*Farg'ona, desam!*
*Ayt, yo'qmi biz uchun bittagina tong,*
*Kammi yosh boshimga yo shuncha sitam?*
*O, hamon yonishlar ayyomidaman,*
*Hamisha g'am uyin ayvonidaman.*
*Har nafas xonishlar hayajonida,*
*Har safar tug'yonlar paykonidaman!*
*Har daf'a armonlar tig'ida bo'g'zim,*
*O'zim jar labida, yig'ida ko'zim.*
*Ko'nglim olislarda, so'zim ilinjda,*
*Har kecha sog'inchning dog'ida ko'ksim!*
*Yana yig'lar bo'ldim,*
*Farg'onajonim,*
*Bosh urib etaging qirg'oqlariga –*
*Yiroqlardan boshlab keldim fig'onim,*
*Malham bo'l yuragim og'riqlariga!*
*Yo'qdir sendan o'zga yupanchim mening,*
*Talpingan yerim yo'q g'aflat bog'iga.*
*Qo'lingdan kelsa gar –*
*Qaytargin endi,*
*Bolalik chog'imga,*
*Yoshlik chog'imga...*

* * *

*Buncha tun ko'ksida talvasa, gidir,*
*Buncha oy yuzida achchiq kulimsa?*
*Zamon ravnaqiga yetgay ne putur –*
*Bir inson suyunsa,*
*Bir inson suysa?!*
*Ne huzur –*
*Lahzaga dardim arisa,*
*Ayt,*
*Nedan yo'limga chugun boylangan,*
*Necha g'ayrlarim bordir, azizam,*
*Tillo kunlarimga jallod saylagan?!*
*Va senmi –*
*Takalluf ko'rguzib, bir yon*
*Shaydo aylagan-u, o'tlarga otgan,*
*Tinchim g'orat etib, senmi, nigoron,*
*So'ng yiroq-yiroqdan harorat kutgan?!*
*Nahot, umrim bo'yi yeta olmasman,*
*Ayt,*
*Qayon yoshingay bu munchoq – qarosh,*
*Buncha soyam uzra otash, vasvasa*
*Va buncha tegramda tamosho, talosh?!*
*Azizam,*
*Baxtimiz rangin talagan*
*Qancha olchoq bordir –*
*Dilim g'ashlagan,*
*O, sening nimpushti gullaring kabi*
*Mening tilaklarim yanchib tashlagan?!*
*Qayga odim otsam –*
*Chah-chah g'amxona,*
*Zulumot yuzida qah-qaha, davron!*
*Buncha ko'zlaringda ma'yus tarona,*
*Buncha bo'g'zimdagi sibizg'a nolon?!*
*Kel,*
*Darding aritsam netgay har nafas,*
*Umrbod izingdan chechaklar tersam!*
*Jahon shodligiga yetgay ne shikast –*
*Sen faqat sevinsang,*
*Men faqat sevsam!*

## She'riy lahzalar

* * *

*Bu savdoni*
*Men atay*
*So'rab olibmi edim,*
*So'rab olib –*
*Umrim-la*
*O'rab olibmi edim?*
*Shom-u sahar yo'l qarab,*
*Yorning tarog'i bilan*
*Uzun-uzun*
*Tunlarim*
*Tarab olibmi edim?!*
*Va yo nolibmi edim –*
*Nolishim kuyga o'xshar,*
*Nolishimga hamohang*
*Yonishim nayga o'xshar.*
*Kimning shaydo bolasin*
*Eslatar dovshim mening?*
*To'yim – motamga o'xshar,*
*Motamim – to'yga o'xshar!*
*O'zim – qo'zidakman-u,*
*Dunyo o'xshar bolamga*
*Va bolam ko'zidagi –*
*Nola ichra olamga.*
*Shu olamni hovuchlab,*
*Yomg'irlarga shoshgayman,*
*Shamolga ergashgayman –*
*O'xshaymanmi odamga?!*
*Quyoshga bo'ylashgayman –*
*O't bilan o'ynashgayman,*
*Nur bilan quvlashgayman,*
*Suv bilan sirlashgayman.*
*Qator-qator*
*Choh uzra –*
*Ko'rsam oy kokillarin,*
*Silab, siypab, erkalab,*
*Ohista tirmashgayman...*
*Bu dardlarni*
*Men atay*
*Tilab olibmi edim,*
*Tilab olib –*
*Qalbimga*
*Belab olibmi edim?*
*Tomirlarim yulgancha,*
*Qon aralash kulgancha,*
*Necha kecha-kunduzni*
*Ulab olibmi edim?!*
*Yulduzlarga boqqancha –*
*Ulg'ayganim sezmasman,*
*Mung'ayganim sezmasman,*
*Kuylarimdan bezmasman!*
*Xayolotdan*
*Narida,*
*Samovotdan*
*Beriga –*
*Tortsalar ham kelmasman,*
*Ossalar ham kelmasman!*
*Bu savdoni*
*Men atay*
*So'rab olibmi edim...*

* * *

*Bu sahroga kelmas edim –*
*Netay, keltirdi falak?*
*Yer – g'ildirak,*
*Aylandi xo'b etib halak,*
*Tilak sari yetakladi...*
*Kimlar meni kaltakladi?*
*Nolishlarim – chechakladi!*
*Yurak-bag'rim obdon g'ajib,*
*Bazm ayladi – shodon, ajib,*
*Toj-u taxtning ko'ppaklari!*
*So'ndi baxtim kurtaklari...*
*Quloq tutsam dardga do'nib,*
*Qoshingni – qaro,*
*Sochingni – daryo,*
*Ko'zingni – eng go'zal ma'vo,*
*O'zingni esa – balo, dedilar.*
*Agar ishqingda jon bersam, nigoro,*
*Shahidi Karbalo, dedilar.*
*O, meni tiriklay yedilar!*
*Qonimni ichdilar,*
*Iligimni qoqib,*
*Jonimni o'tda yoqib,*
*Boshimni yong'oqdek chaqib –*
*Surdilar davr-u davron...*
*Qolmadi darmonim, ortdi armonim,*
*Ey, sadarayhonim, deymi,*
*Bog'lari payhonim, deymi?*
*Qirpichoq bo'lganim,*
*Qirq qizi nolonim,*
*Qirmizi olmadek yonog'ingdan o'pib,*
*G'urbatda o'ltirib yeymi seni, ayt?!*
*Qator-u qator-u, guras va guras –*
*G'ussalar bostirib kelgan paytida,*
*Yana jim turaymi, motam tutaymi?!*
*Yetar, kurashaman – so'nggi on qadar,*
*So'nggi tomchi qonim to'kkuncha Ajal,*
*Toki qarog'ingdan yuvilguncha g'am,*
*Toki quchog'ingdan ketguncha alam,*
*Toki kulgichlaring – nur-u ziyoga,*
*Hovuchlaring gulga to'lguncha, sanam!*
*Seni izlab kelmas edim,*
*Izlatmasa edi Tangrim –*
*Ko'zlatmasa saodating,*
*Halovating, o, rohating,*
*Yonmas edim, kuymas edim,*
*Seni hargiz suymas edim...*
*Otam – orim,*
*Onam – iymonim,*
*Qudrat qo'shib turar qalbga!*
*Seni baxtiyor etmakka*
*Va so'ngra bir kun o'lmakka –*
*Tug'ilganman...*
*Keyin mag'rur qaro yerga ko'milmakka.*

* * *

*Yuzimga urilgan bu mayin yellar –*
*Sening nafasingmi,*
*Xo'rsinig'ingmi?*
*Yoki yig'ladingmi*
*Sochlaring tarab,*
*Simirib g'ussalar ko'lankasini?!*
*O, qator kulgichlar –*
*Quvnoq gul, yaproq,*
*Kapalaklar qo'ngan sanoqsiz dudoq*
*Va buloq jilg'asi bo'ylab izlayman,*
*Sening sevinchingni topolmam biroq.*
*Buncha yo'llar yiroq –*
*Buncha holim tang,*
*Kechib o'tolmasman g'am sahrosini.*
*Yantoq soyasidan teraman ohang,*
*Tinglayman saksovul taronasini...*
*So'ng yana boshlayman dil g'avg'osini,*
*To'fonni chorlayman –*
*Tozarsam deyman!*
*Bulutlar tarqasa,*
*Shomlar oqarsa,*
*Tonglardan senga ham yuborsam deyman!*

*Va nogoh nafasing tuysam yellardan,*
*Gullardan atringni tersam damo-dam.*
*Hu-uv olis dengizning sohillarida*
*So'rasam –*
*Azizam, nima edi g'am?!*
*Ne edi bag'ringni o'rtagan og'riq?*
*Ana, ortimizda qolgan so'qmoqlar –*
*Bog'larga evrildi...*
*Ko'z yoshing artib,*
*Endi boshing silar ulkan yaproqlar!*
*Ulkan – chumolilar,*
*Ulkan – arilar,*
*Ulkan – ninachilar,*
*Ulkan – kaptarlar...*
*Bizni qurshab olgan, o'txo'r, muloyim,*
*Do'stimiz – bahaybat dinozavrlar!*
*Yuzimga urilgan sochingmi, shamol,*
*Dam-badam yangragan kulgichlaringmi?*
*Shabnam sog'inchingmi, ey sohibjamol,*
*Subhidam o'tinching, o'kinchlaringmi?*
*Hasrat nima edi,*
*Nima edi dard?!*
*Bizni sarson etgan, o, beshafqat vaqt*
*Ortimizda qolgan...*
*Qara, azizam,*
*Ana – bizga yorug' qismat, ana – baxt!*

# MILLIONLAB SAHIFAGA SINGGAN KO'Z NURI

*Bizda faqat Shayx Sa'diy ishlaydi*

*"Guliston"da ishlar edim. Mahmud Sa'diy degan xodimimiz bozorda kitob ayirboshlayotgan ekan, militsiya ushlab olib ketibdi. U juda bilimdon, kitobxo'r; biz uni Shayx deb atar edik... Mening iltimosim bilan militsioner idoraga keldi, yoshgina leytenant ekan. Gapni uzoqdan boshlamoqchi bo'ldim:*
*– Ibn Sino Buxoroning kitob rastasida Forobiyning Arastuga sharhlarini topib olganda xursandchiligidan bir zumga hushini yo'qotgan ekan...*
*– Forobiy degan shoirni eshitganman, u ham sizda ishlaydimi?*
*– Yo'q, bizda faqat Shayx Sa'diy ishlaydi.*
*Hazil-mutoyiba o'tmadi. Aniq gap qildim.*
*– Bu yigit uylanganida kelinni oshxonaga tushirib kelgan. Chunki uch xonali uyning hamma xonalari liq kitob bo'lgan. U shunaqa kitob jinnisi.*
*– Jinniligiga spravkasi bormi?..*

**Asqad MUXTOR**
O'zbekiston xalq yozuvchisi

*– Mahmud aka katta ma'noda savodli olim. Sharqdan tushasizmi, G'arbdanmi, duch kelgan mavzuda suhbatlasha olasiz. Har bir so'zni dalil, isboti bilan, mantiq tarozisida tortib gapiradi. U kazo-kazo olimlarni (yashirib nima qildik, adiblarni ham) "terlatib" qo'ygan paytlarni ko'rganman. Hayotda nodonlik va bilimsizlik hech qachon bahsda aql va bilimdan g'olib kelolmaydi! Mahmud Sa'diy buni o'z misolida ko'rsatgan shaxs.*
*Yana, Mahmud aka gazetachilik, universitetda domlalik, olimlikni birlashtirgan shaxs. Bularning har birida uning munosib xizmati bor.*

**Omon MUXTOR**
O'zbekiston san'at arbobi, yozuvchi

*– Adabiyot, adabiy jarayon deganlari qiziq, sirli-jumboqli. Gohida yostiqdek-yostiqdek kitob yozgan mualliflarning nomi hademay unutilib ketadi. Shu jarayonga faol aralashgan, biron ijodkor yoki asarning ro'yobga chiqishida jonkuyarlik qilgan kishilar esa ko'p zamonlar eslab yuriladi. Mahmud Sa'diy keyingi qirq-ellik yillik adabiyotimizning, adabiy jarayonning jonli guvohi, jo'shqin ishtirokchisi. Biron-bir adabiy hodisa bu odamni chetlab o'tmagan desak, mubolag'a bo'lmas. Biriga muharrirlik qilgan, biriga murabbiylik, yana biriga taqriz yozgan yoki kuyib-pishib fikr bildirgan, taklif aytgan. Matyoqub Qo'shjonovdek alloma bekorga uni "ustozim" deb atamasdi. Bu lutfda hazildan boshqa bir ma'no ham bor edi.*

**Erkin A'ZAM**
O'zbekiston xalq yozuvchisi

*– Badiiy tafakkurdagi milliylikni, milliy g'ururni saqlash va ulug'lashga bo'lgan tashnalik Mahmud Sa'diydek tajribali munaqqid va muharrirning hayotiy maslagini, ijodiy hayotining o'zagini tashkil etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.*
*Mahmud Sa'diyning o'ziga xos muharrirlik maktabi alohida va maxsus tahlilga, tadqiq etishga va o'rganishga loyiq. Jamoatchilik orasida Mahmud Sa'diyning nihoyatda boy kutubxonasi borligi alohida e'tirof etiladi. Bunday ta'rifga men u kishini shogirdlarga boyligini, jurnalistlik yo'lini tanlagan ajoyib farzandlarning otasi ekanligini, milliy adabiyotimiz va jurnalistikamizning bugungi kuni uchun ham g'oyatda qimmatli va qadrli ziyoli inson ekanligini qo'shimcha qilgan bo'lur edim.*

**Xurshid DO'STMUHAMMAD**
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, yozuvchi

*– Men ko'p o'ylayman-da. Mahmud ancha yillar "Sharq yulduzi"da ishladi. Xo'sh, nimaga erishdi? Jurnalda muharrir sifatida komillikka erishdi, tahrir san'atini mukammal o'rgandi. Shu bois, mana-man degan fan doktorlari, katta-katta olimlar ham uning oldiga o'ylanibroq, tizzasi qaltirabroq kiradi, shu bola nima der ekan, deb. Hayiqibroq munosabatda bo'ladi. U bilan hisoblashishadi...*

**Nosir FOZILOV**
O'zbekiston san'at arbobi, yozuvchi

*Mahmud Sa'diy badiiy asarlarga gumanizm, xalqchillik, ijtimoiy hayot muammolarini haqqoniy aks ettirish mavqeidan turib baho berardi. Uning adabiy-tanqidiy fikrlaridan boshqa ko'p adabiyotshunos va jurnalistlar ham bahra olganlar. Binobarin, XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda yashab ijod qilgan deyarli barcha adabiyotshunoslar, munaqqidlar, tarjimonlar oz-u soz yozadigan, o'zini unutib, faqat milliy adabiy prozamiz, she'riyatimiz, adabiy tanqidchiligimiz ravnaqini o'ylab, mashhur va yosh olimlarga qanday yozish kerakligini o'rgatgan munaqqid Mahmud Sa'diyni yaxshi biladilar.*

**Mahkam MAHMUDOV**
adabiyotshunos

*– Zamonaviy o'zbek adabiyotiga, matbuotimizga xizmati singgan ustoz adabiyotshunoslar, zahmatkash muharrirlar talaygina. Ularning mehnati – ma'naviyatimizga qo'shilgan bebaho hissa.*
*Ana shu fidoyi ijodkorlar orasida taniqli munaqqid, mohir muharrir Mahmud Sa'diyning o'z o'rni bor. So'zni his qilish va anglash, uni o'z o'rnida qo'llash kabi tahrirning o'ziga xos jihatlarini ustozdan o'rganishga havas qiladigan yoshlar ko'p. Quyosh nuridan bahra ololmayotgan maysalarni ko'rganmisiz? Ular quyosh nuri beradigan go'zal rangni topa olmay sarg'ayib, nimjon bo'lib o'sadi. Muharrirlik bobida ustozni quyoshga o'xshatgim keladi.*

**Halim SAYID**
jurnalist

*– Avvaliga Mahmud Sa'diyning zamonaviy o'zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlarga juda-juda talabchanlik bilan yondashishi, ta'bir joiz bo'lsa, "plankani juda baland qo'yishi" sabablarini unchalik tushunmay yurdim. U-bu narsa qoralab yurgan qalamkash sifatida esa, o'zimcha domlaning ba'zi keskin baholariga qo'shilmadim ham. Lekin bora-bora bir haqiqatga iqror bo'ldim. Adabiyotga ham, muallifga ham xuddi Mahmud Sa'diy kabi imtiyozlarsiz, chegirmalarsiz, xolisona yondashish kerak ekan. Domla aytganlariday, ortiqcha shira mevani, ko'p maqtov esa adabiyotni va iste'dodni o'ldiradi.*
*Uzluksiz mutolaa, hayotiy tajriba, iste'dod, xolislik, talabchanlik, mas'uliyat, halollik, jur'at, jasorat... Bularning hammasi domla Mahmud Sa'diyni yuqoriga olib chiqqan.*

**Abdiqayum YO'LDOSH**
yozuvchi

*– Uning "shafqatsizligi" shunda ediki, maqolangizning sarlavhasini ko'riboq "qaytarardi". Favqulodda hayratlanarli sodda, ixcham, mantiqli, mazmundor sarlavhalar o'ylab topardi. Sarlavha uchta so'zdan oshmasin, derdi u. Ko'pincha, sarlavha muammosini o'zingizga tashlab qo'yardi va oxir-oqibatda ko'ngildagiday sarlavha topish mahoratingizni "majburiy ravishda" shakllantirardi. U "o'qitmaydigan", ammo ishlatadigan ustoz edi. "Shafqatsizligi" yana shunda ediki, maqolani uzoq muddat orqaga surib yurardi. Lekin, oxir-oqibatda, "zo'r" maqola qilib chiqarardi. U faqat qiyomiga yetguncha ishlashingizni istardi. Maqola chiqqanida, quvonchi azoblarini yuvib ketardi.*

**Nusratullo JUMAXO'JA**
adabiyotshunos

# Millat murabbiylari

*– Mahmud akani shu shashti-yu shafqatsizligi bilan ham muharrirlar ichida eng "demokrati" deyish mumkin, chunki muallifning uslubini – mabodo, u kishining qo'liga tushgan matnda o'sha jonivor bo'lsa – saqlab qolishga harakat qiladi, keraksiz tuzatishlar qilavermaydi. Muallifga shafqatsizligi barobarida uning uslubini ayaydi.*

**Faxriyor**
shoir

*– Mahmud Sa'diy o'z ishining bilimdoni, teran fikrli jurnalist. U o'zbek tilining jozibasi, go'zalligi, so'z boyligini yaxshi his etadi, har bir so'zning qadrini o'rniga qo'yadi. O'zi ishlayotgan gazeta va jurnallar mavqeining yuqori turishida uning xizmati katta. Mahmud aka ilmni ulug'laydigan, qadriga yetadigan shaxs. Fandagi yangiliklarni yuzaga chiqarishga bo'lgan urinishlarini ko'rib ko'p hayratlanganman. Unga cheksiz hurmatimning boisi ham shunda.*

**Qosimjon SODIQOV**
filologiya fanlari doktori, professor

*– Mahmud Sa'diy – falsafiy fikrlovchi, xotirasida olamjahon asarlar va hodisalarni saqlab yuruvchi ziyoli. U shoirlar va yozuvchilarning ijodini yaxlit tarzda tasavvurga keltirib fikrlaydi va shu asosda o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.*
*U o'zida bor ilmni, hikmatni boshqalar bilan baham ko'radi, shuning uchun eng yaxshi topilmalarini hech qizg'anmay do'sti yoki shogirdining maqolasi yoki risolasiga ilinaveradi.*
*Endilikda repetitorlik urf bo'ldi. Mundoq o'ylab qaralsa, Mahmud Sa'diy umr bo'yi, faqat hech qanday ta'masiz – xolis repetitorlik qilib keldi.*

**Muhammadali QO'SHMOQOV**
Adabiyotshunos

*– Mahmudning faoliyati, asosan, vaqtli matbuot bilan bog'liq bo'lganligi uchun uni jurnalist, deb atash mumkin. Lekin men bunday bahoga qo'shilmayman. Chunki uning ish uslubi ko'proq tadqiqotga o'xshab ketadi. U faqat maqola yoki risolaning uslubi emas, balki undagi har bir fikr-xulosa va iqtibosni jiddiy tadqiq va tahrirdan o'tkazadi. Buning uchun oylab vaqt kerak bo'ladi.*

* * *

*Bir maqolamning tahriri ustida Mahmud bilan kun bo'yi o'tirdik. Nihoyat, erkin nafas olish uchun xonadan chiqsam, bir necha tahririyat a'zolari menga tikilgancha so'radilar:*
*– Domla, tinchlikmi?*
*– Tinchlik desa ham bo'ladi.*
*– Horgan, ezilgan odamga o'xshaysiz?*
*Javob qildik:*
*– Shu xonaga kirib, bardam qaytib chiqqan odam ham bo'lganmi? (Kulgi ko'tarildi.)*

**Yoqubjon IS'HOQOV**
adabiyotshunos

*– Adabiyotning bugungi mavqe-darajasida Mahmud akaga o'xshagan tahrirchilarning sirtdan bo'rtib turmaydigan, kamtar-kamsuqum, lekin buyuk mehnati yotadi. Yana bir tomoni ham borki, hammani tuzatib, tahrir qiladigan odam o'zidan hammadan baland yozishni kutadi va juda kam yozadi yoki boshqalarning ustidan ishlab, chiqarib bergan asarlarini o'ziniki qabul qilib ham ishlayveradi. Shu ma'noda Mahmud aka dunyoga keltirgan asarlarning sanog'i yo'q. To'g'ri ma'noda ham shunday. Mahmud aka qo'lidan yetaklab, yelkasidan itarib, yurmaganlarini sudrab ham adabiyotga olib kirgan ijodkorlar juda ko'p. Shularning qariyb hammasi u bilan bir umr hamkorlikda, doim u kishidan aniq fikr kutadi, u kishi ham qalamini qayrab, hamisha tayyor...*

**Ahmad A'ZAM**

yozuvchi

*– Mahmudjonning bevosita tashabbusi, sa'y-harakati bilan Eronga safarlarim, Navoiyning dastxati, uning muhrini topish bilan bog'liq voqealar haqida gazeta va jurnallarda maqolalar, suhbatlar uyushtirilgan edi. Sharq allomalaridan biri, har kim biror ish talabida qadam qo'ysa, bu ishning qiyinchiliklariga bardosh berishi kerak. Maqsad sari yo'lga chiqqan odam zahmat sahrosidan cho'chimasligi kerak, degan ekan. Mahmud Sa'diyni shunday olimlardan deb bilaman.*

**Suyima G'ANIEVA**

O'zbekiston Qahramoni

*– Uning beqiyos xizmatlarini, necha minglab, balki millionlab sahifalarga singgan ko'z nurlarini birov bilar, birov bilmas. Ammo barchasi Yaratganga ayon! Shaxsan o'zim yarim asr davomida Mahmudjondek zahmatkash o'z inim, maslakdoshim, yo'lda yo'ldoshim, dangalchi maslahatgo'yim borligidan faxrlanaman.*

**Umarali NORMATOV**

adabiyotshunos

# Millat murabbiylari

*Konfutsiy yozgan: "Ustozlarning eng ulug'i ilhomlantiradi", deb. Bu fazilat Sa'diy domlaga ham begona emas. Ular "cho'g' tashlab, qo'zg'ab qo'yadilar". Faqat "gul tikoni bilan aziz" deganlaridek, u kishimning achchiq-chuchuk so'zlariga chidash shart.*

## Shomirza TURDIMOV

adabiyotshunos

*– Mahmud muharrir bo'lib tug'ilgan edi. Muharrir bo'lib yetishdi. Fikrlovchi, o'ylovchi, xalq manfaati uchun ishlovchi muharrir bo'lib mana necha o'n yillardan beri so'z madaniyati, so'z haqqoniyati uchun kurashib keladi. Qanchadan-qancha yoshlar undan so'z o'rgandilar, so'zni non kabi e'zozlamoqni bildilar. Mahmud Sa'diy qanchalab maqolalar yozdi, tarjimalar qildi, qanchalab noyob maqolalarni yuzaga chiqardi.*
*Ko'z o'ngimizda so'z murabbiysi, tahrir ustozi bo'lib yetishdi.*
*U oilada ham murabbiy, ko'chada, ishda, jamoat ichida ham murabbiy! U tabiatan muallim.*
*Bu muallimning nigohi tushgan so'z yashnab ketadi! Uning qo'lidan chiqqan jumla tirik jonday nafas oladi!*

## Ibrohim G'AFUROV

O'zbekiston Qahramoni

*– Sa'diy domla ijodkor qanday yashashini, qanday kurashishini isbotlagan shaxs edi. Na mansab, na shon-shuhratga intildi. "Qullik psixologiyasi" haqida yozishni taqiqlashgani uchun dissertatsiyani ham tashlab ketganini aytgandi. Ko'nglidagi haqiqatdan boshqasini tilga olmagan, u haqiqat boshiga balo bo'lsa ham prinsipidan og'ishmaydigan "qizil kitob"dagi SHAXSlardan biri edi. Qancha-qancha "jontoq" va "jonqovul"lar shu insonning soyasida ijod va hayotdan dars oldi. So'z xor bo'layotgan, iflos tillarda toptalayotgan, yaloqxo'rlik uchun adabiyot qurbon qilinayotgan zamonda yana bitta ustunning qulashi qanday og'irligini anglayapmizmi?*
*Adabiyotdan gap ketganda o'ziga dushmanlik qilgan odamning ham yaxshi asari bo'lsa, albatta, e'tirof etardi: "bor gapni aytish kerak". Hozirgi adabiyotning, jurnalistikaning asl konsepsiyasi shu: BOR GAPNI AYTISH KERAK. O'z boshingga balo bo'lsa ham, hamma yomon ko'rsa ham bor gapni aytish kerak... Endi bor gapni kim aytadi? Kim Sa'diy bo'ladi?*

## Suhrob ZIYO

shoir

*– Otamning ustozi – kitob. Mening asl ustozim esa – otam! Dilimdan his qilaman, otamchalik hech kim menga ilm va hayot darsini bermagan va berolmaydi. Buni menga ilk bora kitobni tanishtirganlari yoki tarbiya berib, oqdan qorani ajrata olishga o'rgatganlari bilangina izohlab bo'lmaydi. Meni jurnalistikaga olib kirganlari ham asosiy sabab emas. Ularning menga ustozligi – yurish-turishi, dunyoqarashi, hamma narsaga munosabati, mehri, umuman, butun borlig'i! Otamning borlig'i mening idealim, o'rnagim, doim unday bo'lishga intiladigan cho'qqim! Otam menga qayta-qayta uqtiradilar: "Shunday yashaginki, orqangdan yaxshi va katta nom qolsin". Men ham otam aytgandek kuchli odam bo'lishga intilaman, chunki bilaman, ular bergan tarbiya, qondan o'tgan xarakter mening shunday inson bo'lib yetishishimga imkon beradi.*

## Jaloliddin SA'DINOV

o'g'li

# Sa'diy DOMLA deydiki...

* * *

*Bola to'g'ri ish qilsa, uni quvvatlash kerak, o'ziga qo'yib berish kerak. Aqlli bolalar bor, sal bundayroq bolalar bor. Hammasiga bir xil tarbiya berib bo'lmaydi. Har bir bolaga fe'l-atvori, aql-idrokiga mos tarbiya berilsa, o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman. Umuman, bolalar tabiatan qiziquvchan bo'lishadi. Hamma narsani bilgisi, qilgisi keladi. Odamlar uni maqtashini xohlaydi, o'zini ko'rsatgisi keladi. Meningcha, unga bu yo'lda odob doirasidan chiqmaguncha qo'yib berish kerak. Erkinlik – shu.*

* * *

*Insondagi yaxshi fazilatlar ham, yomon xislatlar ham qonga, naslga bog'liq. Demak, ilmga, kitobga muhabbat ham, avvalo, qondan o'tadi. Agar qaysi oilada kitobxonlik, kitobga mehr kuchli bo'lsa, bu o'sha oilada tug'ilgan farzandlarga ham o'tadi. Bolaga go'dakligida go'zal allalar aytilishi, uyda milliy musiqa doimo yangrab turishi lozim. Keyinchalik – bolalarning tili chiqib, esini taniy boshlagach, ertaklar, hikoyatlar, rivoyatlarni ovoz chiqarib, ifodali o'qib berish zarur.*

* * *

*Inson dunyoda butun ongli hayoti davomida mazmunli umr kechirishga intilishi kerak. Hech kim bu dunyoga ustun bo'lolmaydi. Binobarin, har bir odam qo'lidan kelganicha yaxshilik qilishi, hech bo'lmasa, boshqalarga yaxshilik sog'inishi, zarari tegmasligi kerak. Kitob mutolaasi, ma'rifatni egallash bu borada insonning asosiy tayanchlaridir. Ma'rifatli insongina o'zini anglab yashashga qodir.*

* * *

*Aslini olganda har bir davlatning o'z manfaatlari bor. Har bir xalq o'z manfaati uchun azaldan kurashib kelgan. Bu dunyo – shunaqa dunyo. Demak, hamma o'z qadrini, or-nomusini saqlashga intiladi. Shu ma'noda haqiqiy jurnalistda vatanparvarlik hissi qog'ozda emas, uning amalida bo'ladi.*

* * *

*O'zini vijdonliman, deya o'g'irlik qiladigan, o'zgalar haqqini yeb, tag'in maqtanib yuradigan odamni tasavvur qilolmasdim. Lekin hayotda shundaylar bor ekan. Ayrimlar vijdonini chaqaga sotib, o'zini oqlash uchun turli yo'llarni qidiradi. Vijdonsiz bo'lishga bahona keltirish o'rinsiz, deb hisoblayman. Qiyinchilik deysanmi? Qiyinchilik hamma vaqt bo'lgan.*

*Agar o'z shaxsingizga, manfaatingizga tegishli masalada yon bersangiz, oqlash mumkin; biroq xalq taqdiriga, boshqalar qismatiga bog'liq bo'lgan masalalardagi yon berishni oqlash mumkin emas*

* * *

*Mening tushunishimcha, odamni dunyoda ushlab turadigan, uni baxtga eltadigan vositalardan bittasi – uning sevgan kasbi. Hayotda insonning boshiga har xil savdolar tushishi mumkin, yaxshi-yomon kunlar, degandek. Shunday kezlari uning joniga ora kiradi, ovuntiradi, hayotga bog'lab turadi.*

*Puxta egallangan kasb insonning taqdiriga aylanib ketishi mumkin.*

* * *

*Yozuvchilarning xalq hayotiga aloqador hamma masalalarga aralashishga haqqi bor va aralashishlari shart. Chunki yozuvchi – xalqning vijdoni. Xalqning vijdoni bo'lishga intilgan yozuvchigina chinakam yozuvchi bo'la oladi. U o'zining nafsoniyatiga tegishli hamma gaplarni yig'ishtirib, xalqning manfaatini birinchi o'ringa qo'yishi va hamma ezgu ishlarning boshida bo'lishi kerak, deb o'ylayman.*

# "MAUGLI" BOLALAR

XIX asrning oxirida Italiyaning bir qishloq cho'poni bo'rilar to'dasi orasida to'rt oyoqlab harakatlanayotgan inson bolasini payqab qoladi. Cho'ponni ko'rgan bo'rilar chekinishganda, cho'pon o'ziga tikilib qolgan bolani ushlab oladi. Bola 4-5 yoshlarda bo'lib, bo'rilardek yirtqich edi. Uni Milandagi psixiatriya institutiga joylashtirishadi. U hayvonlarga xos tusda qichqirar va hech narsa iste'mol qilmas edi. Bo'rilar orasida katta bo'lgan inson farzandi shifokorlarda katta qiziqish uyg'otgani tushunarli edi. Ammo uni insonlar ichiga qaytarish vazifasi turardi. Biroq buni uddalab bo'lmaydi. Bola odamlar ko'nikkan ovqatlarni yemaydi. Bo'rilar kabi ingrab, g'amgin bo'ladi. Karavotda yotmay, yerda soatlab qimirlamay yotadi. Bo'rilar orasiga qaytish istagi shunchalik kuchli ediki, bolaning yuragi bunga bardosh bera olmay bir yildan so'ng vafot etadi.

Dina Sanicharning "Maugli" deb atalishi haqiqatga yaqinroq edi. Boshqa topilgan bolalardan farqli, butun tanasi juda ko'p tuk bilan qoplangan. 1867-yili ovchilar uni Hindistonning Bulandshahr o'rmonida bo'rilar to'dasi ortidan harakatlanayotganda ushlab olishadi. U topilganda 6 yoshda edi. Bolani odamlar Agradagi "Sikandra Mission" bolalar uyiga topshirishadi. Shu uyda Dina Sanichar deb nomlashadi. Birinchi bolalar uyiga olib kelishganda – yuvib, tozalab yangi tug'ilgandek qilishadi, shu kuni haftaning shanbasi edi. Urdu tilida "sanichar" – "shanba" degani. U bilan ko'p ishlashadi... Go'shtni pishirib berishsa yemas, xom go'sht va suyaklarni bo'ridek g'ajirdi. Unga bo'rilar orasida yashagan umridan ko'proq yil mehnat sarf etishadi. Ammo natija juda oz edi. Eng e'tiborli tomoni – insonlarga taalluqli yomon odatlardan tamaki chekishni tez o'zlashtiradi va kashandalikka mubtolaa bo'ladi. Uzoq umr ko'rmay, sil kasalligidan 1895-yilda vafot etadi. Bo'yi 1 m 60 sm, og'irligi 55 kg edi.

Rudyard Kiplingning "Jangle Book" hikoyasidagi Maugli, bizningcha, shu bola bo'lsa, ajab emas.

So'nggi 100 yil ichida o'nlab "maugli"lar aniqlangan. XX asrning 30-yillarida Hindistonning Laknau shahridan unchalik uzoq bo'lmagan Pradesh viloyatida, temir yo'l xodimi vagon ichida g'alati jonzotni ushlab oladi. Bu taxminan 8 yoshli, qo'l va tizzalari qavarib ketgan, hayvonga o'xshash inson bolasi edi. Odamlar nutqini tushunmas, to'rt oyoqlab harakatlanar edi. Bolani kasalxonaga joylashadi. Oradan bir oy o'tib, 8 yil avval bolasini hovlidan bo'ri ilib ketgan meva sotuvchi ayol bolani ko'rsatishlarini talab qilib keladi. Bo'ynidagi chandig'idan tanib, uyiga olib ketadi. Shunday qilib bola oilasiga beriladi. Ammo bir yil davomida insoniy xususiyatlarni o'zlashtira olmay vafot etadi.

"Maugli bolalarga" oid eng mashhur hikoya – ikki hind qizi Kamala va Amala voqeasi bo'lsa kerak. Ular 1920-yili bo'ri uyasidan topilgan. Kulrang bo'rilar orasida o'zlarini juda qulay his qilib yashagan. O'sha kezlarda shifokorlar Kamala 6 yosh, Amala 5 yoshda ekanini aniqlashgan. Amala tez orada vafot etadi, Kamala 17 yoshgacha umr ko'rgan. 11 yil shifokorlarning ilmiy kuzatuvida bo'lgan. Bechora qiz olovdan qo'rqar, faqat xom go'shtni tishlari bilan uzib olib yemoqni afzal bilar, to'rt oyoqda yurardi. Kunduzi uxlab, kechasi kasalxona hovlisida aylanib yurar va soat 21:00 da hamda 24:00 dan 03:00 oralig'ida ingrab uvullar edi. Kamalani "insonlashtirish" juda qiyinchilik bilan amalga oshdi. Uzoq vaqt kiyim kiymadi, kiygani ham oz vaqtda yirtilib, yaroqsiz holga kelar, faqat 2 yil o'tib ikki oyoqlab odamlardek yura boshladi, ammo tez harakat qilish kerak bo'lganda yana to'rt oyoqlab chopqillar edi. Shifokorlarning aql bovar qilmas mehnatidan so'ng tunda uxlashni va qo'lda ovqatlanishni, stakanda suv ichishni o'rgandi. Afsus, inson tilida gaplashishga 7 yil sarflandi, atigi 45 ta so'z o'rganadi. 15 yoshga kelib aqliy darajasi 2 yoshli bola darajasida edi. 17 yoshida to'satdan yuragi urishdan to'xtadi.

# Sirli dunyo

1925-yili Hindistonning Assam shtatida sodir bo'lgan yana bir holat. Ovchilar leopard inidan bolalaridan tashqari, 5 yoshli inson bolasini topishadi. U leopard aka-singillari singari xirillab, tishlab va tirnab qarshilik qiladi. Uni eng yaqin qishloqdan bir oila tanib qoladi. Bu oilaning so'zlariga ko'ra, 3 yil avval oilaviy dalada ishlayotganida, 2 yoshli bolasini leopard og'zida olib qochgan bo'lgan. Oradan 5 yil o'tib, bola idish-tovoqda ovqatlanishni o'rganadi.

Inson bolasini bo'rilar boqib olgani ko'p uchragan. Bunday holat odamlar yovvoyi hayvonot bilan yonma-yon yashab kelgan hududlarda uchrab turadi. Qarovsiz qolgan go'dak yirtqichga oson o'lja bo'lib, iniga olib borganda nochoryig'layotgan bolaga nisbatan onalik instinkti uyg'onib, o'ljaga bolalari qatorida qaraydi. Dastlab sut bilan boqadi, oz vaqt o'tib yarim hazm qilingan go'sht olib kelib beradi. Hammasi tekis kechmaydi, bo'ri bolalari 8-9 yoshdan mustaqil hayotga o'tadi, ammo inson bolasi ojiz qolishda davom etadi. Bo'rilarning birgalashib harakat qilishi va nochor, qari sheriklarini qo'llab-quvvatlashi inson bolasining ham ojizligiga qaramay ular orasida yashab ketishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib shuni takidlash kerakki, insoniy muloqotdan mahrum bo'lgan bolalar aqliy rivojlanishda odamlar jamiyatida yashovchilardan orqada qola boshlaydi. "Maugli" bolalar buning inkor etib bo'lmas isbotidir. Ya'ni inson psixikasining eng muhim rivojlanish davri – tug'ilganidan 5 yoshgachadir. Aynan shu yillarda bolaning psixikasi asosiy asoslarni o'rganadi. Qanday oilada katta bo'lishi, atrofidagi odamlarning harakati, boshlang'ich ta'lim va bog'cha davri katta ta'sir qiladi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol haqiqatga yaqin, ammo "qush"ning uyasi faqatgina tug'ilgan xonadoni emas, balki butun jamiyatdir. Agarda ushbu dastlabki 5 yillik davr o'tkazib yuborilgan bo'lsa, unda to'laqonli odamni tarbiyalash deyarli mumkin emas. Shuning uchun bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun uning atrofidagi kattalar ham namunali inson bo'lishlari kerak.

# HURMATLI TALABALAR!

**“O‘zbekiston talabasi” jurnali iqtidoringiz, intellektual va ijodiy salohiyatingizni namoyon etish uchun Sizga ajoyib imkoniyat taqdim etadi.**
Buning uchun Siz quyidagi UCH yo‘nalishdan birini tanlab, ma’lumotlar to‘plashingiz va shular asosida maqola yozib, suratlar ham ilova qilgan holda o‘zingiz haqingizdagi batafsil ma’lumotlar (pasport nusxasi, o‘qish joyi, fakultet, guruh – talabalik guvohnoma nusxasi, telefon raqami) bilan elektron pochta orqali tahririyatning ushbu elektron manzillariga yo‘llashingiz kerak:

uzbtalaba@gmail.com  @uzb_talabasi

## TANLOV YO‘NALISHLARI:

**1. INNOVATSIYA YO‘NALISHI**
Olib borayotgan ilmiy izlanishlari muvaffaqiyatli kechib, biror ixtiro qilgan yoki ratsionalizatorlik taklifini bildirgan talaba hamda uning yutuqlari haqida qiziqarli maqola.

**2. MOZIYGA SAYOHAT YO‘NALISHI**
Ko‘hna va boy tariximizning yoritilmagan sahifalari xususida original material.

**3. XORIJIY TILLAR BILIMDONI YO‘NALISHI**
Rus va ingliz tillarida erkin mavzuda qiziqarli ijod namunasi.

TANLOVGA YUBORILGAN MATERIALLAR SARALANIB, JURNAL SAHIFALARIDA CHOP ETIB BORILADI.
YIL YAKUNIDA ESA HAR BIR YO‘NALISH BO‘YICHA 1 NAFAR G‘OLIB ANIQLANADI VA **3 000 000 SO‘MDAN** PUL YUTUG‘I BILAN TAQDIRLANADI.
**AZIZ TALABALAR! IJOD QILISH FURSATI KELDI. SIZDAN MAZMUNLI MAQOLALAR KUTIB QOLAMIZ!**

“O‘ZBEKISTON TALABASI” TAHRIRIYATI

**BUTKUL UZOQLASHAR,
KETISHAR ULAR.
BIZLAR INTILAMIZ,
UYG‘ONGACH BEDOR.
LEK QO‘LLAR HAVOGA NOGOH URILAR –
UNDA O‘SIB CHIQMISH BIR
SHISHA DEVOR.**

**Yevgeniy YEVTUSHENKO**

Italyan rassomi Valter Molinoning “2022-yilgi hayot” kartinasi. 1962-yilda ishlangan.